

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

**Qo'lyozma huquqida
U.D.K. 413. 164**

MANNONOVA MAFTUNA SHUKRILLO QIZI

O'ZBEK TILI KULOLCHILIK TERMINOLOGIYASI

5A 111201- O'zbek tili va adabiyoti

Magistr

akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Himoya qilishga ruxsat

O'zbek tilshunosligi

Magistratura bo'limi boshlig'i

kafedrasi mudiri

O'.Toshov

E.Jabborov

“__” _____ 2017-yil

“__” _____ 2017-yil

Ilmiy rahbar: _____ f.f.n. E.Jabborov

Qarshi-2017

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
BIRINCHI BOB. O'ZBEK TILI KULOLCHILIK TERMINLARINING SHAKLLANISH MANBALARI VA TEMATIK TASNIFI	
1.1. Kulolchilik terminlarining shakllanish tarixi.....	6
1.2. Kulolchilik terminlarining boyish manbalari.....	14
1.3. Kulolchilik terminlarining tematik tasnifi.....	22
Bob bo'yicha xulosa.....	37
IKKINCHI BOB. O'ZBEK TILI KULOLCHILIK TERMINLARINING STRUKTURAL VA DERIVATSION XUSUSIYATLARI	
2.1. Kulolchilik terminlarining struktural xususiyatlari.....	39
2.2. Morfologik usul bilan yasalgan kulolchilik terminlari.....	42
2.3. Sintaktik usul bilan yasalgan kulolchilik terminlari.....	48
Bob bo'yicha xulosa.....	50
UCHINCHI BOB. O'ZBEK TILI KULOLCHILIK TERMINLARINING SEMASIOLOGIK XUSUSIYATLARI	
3.1. Kulolchilik terminologiyasining ko'p ma'nolilikka munosabati.....	51
3.2. Kulolchilik terminologiyasida omonimiya va sinonimiya hodisalari.....	61
3.3. Kulolchilik terminologiyasida variantlilik hodisasi.....	68
Bob bo'yicha xulosa.....	72
XULOSA.....	73
ILOVA. Kulolchilik terminlarining qisqacha lug'ati.....	77
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	85

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Ma’naviy hayotimizdagi katta o‘zgarish va yangilanishlar moddiy va nomoddiy merosimizni keng o‘rganish va tadqiq qilishda e’tiborli yutuqlarni qo‘lga kiritishga keng yo‘l ochdi. Mamlakatimizning Birinchi Prezidenti I. A. Karimovning “Eng muhim vazifa shundan iboratki, o‘zligimizni teran anglab, mutafakkir bobolarimiz, aziz avliyolarimiz qoldirgan beba ho merosni avaylab-asrab, yanada boyitishimiz, ulug‘ ajdodlarimiz ishining munosib davomchilari bo‘lmog‘imiz darkor”¹, degan so‘zlari moddiy va nomoddiy merosimizga diqqat-e’tibor ortganligi va milliy o‘zligimizni anglash davlat siyosati darajasiga ko‘tarilganligidan dalolat beradi.

O‘zbek tili lug‘at boyligini kengaytirish hamda har bir so‘zning izohi, asl ma’nosi, vazifasi, etimologik kelib chiqishi, dialektal variantlari hamda nutqda voqelanadigan turli xil variantlarini o‘rganish o‘zbek tilshunosligi oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ana shunday muhim vazifalardan yana biri kulolchilik kasbiga oid so‘z va terminlarni to‘plash, ularni ilmiy tadqiq etishdir. O‘zbek tilshunosligida kulolchilik terminologiyasi deyarli o‘rganilmagan. Ushbu sohaga oid so‘z va terminlar “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”, eski o‘zbek tilidagi bir qancha lug‘atlarda, shuningdek, qomusiy lug‘atlardan o‘rin olgan. Ushbu manbalar asosida kulolchilik terminologiyasini tadqiq etish dissertatsiyaning dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqot obyekti va predmeti. Tadqiqot obyekti sifatida o‘zbek hunarmandchiligiga bag‘ishlangan qator ilmiy va badiiy asarlar, o‘quv va o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar olingan. Jumladan, Mahmud Koshg‘ariy, Nosiriddin Burhoniddin Rabg‘uziy, Alisher Navoiy va boshqa mumtoz adabiyotimiz namoyondalarining asarlari va bu asarlar asosida yaratilgan izohli lug‘atlar, o‘n ikki tomli “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, besh jildli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”, S.Ibrohimov, M.Abdiyev, T.Tursunova, E.Begmatov singari tilshunoslari, S.Bulatov, T.Abdullayev, R.Xasanov, M.K.Rahimov, T.Miraliyev,

¹ Karimov I. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas’uulmiz. –Toshkent, “O‘zbekiston”, 2001.-B.104.

R.Egamberdiyev, A.Hazratqulov, Muhammad Siddiq, U.Umarov, N.Axmedov kabi san'atshunoslar, shu jumladan, kulolchilik san'ati tarixi bilan shug'ullangan olimlar va hunarmand ustalar qalamiga mansub ayrim maqolalar, izlanishlar va tadqiqotlariga murojaat qilindi. Tadqiqot predmeti o'zbek kulolchilik terminologiyasidir.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari. Dissertatsiyaning asosiy maqsadi o'zbek tili kulolchilik terminologiyasini kompleks tarzda tadqiq etishdan iborat. Kuzatilgan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni bajarish ko'zda tutilgan:

- kulolchilik terminologiyasining shakllanish jarayoni va tarixini tadqiq etish;
- kulolchilik terminologiyasiga tegishli lisoniy birliklarni qadimiy yozma manbalarda aks etish jarayonlarini yoritish;
- kulolchilik terminologiyasining hozirgi lug'atlarda berilishi va izohlanishini o'rghanish;
- kulolchilik san'atiga bag'ishlangan ilmiy, o'quv-uslubiy ishlarni tadqiq etish va ularga munosabat bildirish;
- kulolchilik terminologiyasi birliklarining mavzuviy (tematik) guruhlarini ishlab chiqish;
- kulolchilik buyumlarining sirti, ichki tomonida chizilgan turli shakllar, bezaklar va gullarning nomlarini aniqlash va ilmiy muomalaga olib kirish;
- kulolchilik terminologiyasi tizimini tashkil etuvchi til birliklarining genetik xususiyatlarini tadqiq etish;
- kulolchilik terminologiyasi birliklarining semasiologik xususiyalarini o'rghanish;
- kulolchilik terminlarining qisqacha izohli lug'atini tuzish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. O'zbek tilining kulolchilik terminologiyasi ilk marta ilmiy asosda tadqiq etildi.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari. Tadqiqotning asosiy masalalari uning oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalardan kelib chiqadi.

1-faraz. O‘zbek tilshunosligida kulolchilik terminlari to‘liq to‘planmagan va ilmiy muomalaga kiritilmagan. Kasb-hunar leksikasiga bag‘ishlangan ayrim tadqiqotlarda ushbu soha terminologiyasi nazariy jihatdan tadqiq etilmagan.

2-faraz. O‘zbek kulolchiligi ko‘p asrlik tarixga ega bo‘lib, ular shu sohaga oid qo‘llanmalar, badiiy hunarmandchilikka bag‘ishlangan ishlar va turli lug‘atlarda tarqoq holda uchraydi. Shu boisdan ular jamlanishi va to‘planagan terminlarning lingvistik xususiyatlari tadqiq etilishi lozim.

Tadqiqot mavzusi bo`yicha adabiyotlar sharhi (tahlili). O‘zbek tilining kasb-hunar leksikasi va terminologiyasi turli yo‘nalishlarda tadqiq etilgan. Bu borada S.Ibrohimov, M.Abdiyev va boshqa tilshunoslarning tadqiqotlarini keltirish mumkin. S.Ibrohimov Farg‘ona vodiysi kasb-hunar leksikasini monografik tarzda tadqiq etgan bo‘lsa, M. Abdiyev esa Samarqand shevasi materiallari asosida kasb-hunar leksikasini tadqiq etadi.

O‘zbek hunarmandchiliga bag‘ishlab yaratilgan barcha ilmiy va badiiy asarlar, Mahmud Qog‘ariy, Nosiriddin Burhoniddin Rabg‘uziy, Alisher Navoiy asarlari, O`zbekiston milliy ensiklopediyasi, O`zbek tilining izohli lug`ati, S.Bulatov, T.Abdullayev, R.Xasanov, M.K.Rahimov, T.Miraliyev, R.Egamberdiyev, A.Hazratqulov, Muhammad Siddiq, Usmon Umarov, E.Begmatov kabi hunarmand va olimlarning ba’zi bir izlanishlariga, tadqiqotlariga, maqolalariga murojaat qilindi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot ishi natijalari uzluksiz ta’lim tizimining kasb-hunar tizimida shu mutaxassislikni o‘rganayotgan talabalarga qo‘l keladi. Shuningdek, ish natijalari o‘zbek tilining izohli lug‘atlari, qomusiy lug‘atlar uchun material vazifasini o‘taydi.

Tadqiqotda qo‘llanilgan metodikaning tavsifi. Dissertatsiyada, asosan, qiyosiy tahlil, analiz va sentiz, komponent tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning tuzilishi. Dissertatsiya ishi kirish, uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, 87 sahifani tashkil etadi.

BIRINCHI BOB. O'ZBEK TILI KULOLCHILIK TERMINLARINING SHAKLLANISH MANBALARI VA TEMATIK TASNIFI

1.1. Kulolchilik terminlarining shakllanish tarixi

Badiiy kulolchilik sharqning eng qadimiy va navqiron san'atlardan biridir. Uning tarixi, jahon madaniyatidagi o'rni va ahamiyati ham shu bilan belgilanadi. O'lkamizda amalga oshirilgan arxeologik ishlar, tarixiy yozma manbalarda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra neolit va enolit davridayoq kulolchilik paydo bo'lgan va san'at sifatida rivojlangan. VII-XII asrlarda O'rta Osiyoda bu san'at keng taraqqiy etgan. XIV asrda Sohibqiron bobomiz Amir Temur madaniy obidalar qurdirar ekan, shubhasiz, kulollarning xizmatiga murojaat etadi. O'lkada kulolchilikni san'at darajasiga ko'targan hunarmandlar avlodи yetishib chiqadi.

XIX asrda Samarqand, Buxoro, G'ijduvon, Shahrisabz, Toshkent, Rishton kabi joylarda kulolchilik markazlari paydo bo'ladi. Hozirgi kunda esa kulolchilik san'at darajasiga ko'tarildi.

Kulolchilik qora loydan mo'jizakor go'zallik yaratish demakdir. Kulolchilik bilan dunyodagi barcha xalqlar shug'ullanadi. Ular o'ziga xos tomonlari bilan bir-biridan farq qiladi. Badiiy hunarmandchilikda kulolchilik san'ati o'zining jozibakorligi va o'ziga xos texnikasi bilan ajralib turadi. Kulolchilik Sharqning eng qadimiy hamda navqiron san'atidir. Insoniyat hayotida qora loy saxovat, halollik, ezgulik timsoli sanalgan. Tuproq insonlarning barcha ehtiyojini o'z zimmasiga olgan farovonlik, to'kinlik, rizq-ro'z, go'zallikning eng oliy ko'rinishi - san'atning paydo bo'lishi uchun zamin yaratgan.

Kulolchilik bilan barcha dunyodagi barcha xalqlar shug'ullangan, lekin ular bir-biridan alohida bir jihatlari bilan farqlanadi. Tuproq jahoning hamma yerlarida bo'lgani uchun kulolchilik keng tarqalgan bo'lib, tarixiy manbalarda qayd etilishicha, dastlab bu hunar bilan ayollar shug'illanganlar. Kulolchilik

charxi miloddan avvalgi 3-ming yillikning boshlarida ixtiro qilingandan keyin kulolchilik bilan erkaklar ham shug‘ullana boshlaganlar.

O‘zbekistonda xalq amaliy san’atning juda keng yoyilgan turi kulolchilik san’atidir. Bu san’at ildizi juda qadimgi davrlarga borib taqaladi. Arxeologlar tomonidan respublikamiz hududidan topilgan sopol buyumlar qadimgi ustalarining dahosidan dalolat beradi. Ular yasaga sopol buyumlar o‘z shakli va unda tushirilgan gul va bezaklarning sermazmun va lo‘ndaligi bilan ajralib turadi. Arxeologik topildiqlar — sopol lagan, likopcha, piyola, kosa, ko‘za, xumcha va boshqa shaklan xilma-xil idishlardan iboratdir. Bu idishlar qadimda yashab o‘tgan ota-bobolarimiz ehtiyojini qondirgan. Hozirda muzeydan joy olgan bu buyumlar o‘z shaklining go‘zalligi, naqshinkorligi, ranglarining uyg‘unligi bilan kishi ko‘zini quvontiradi. Ota-bobolarimiz kashf etgan san’atning umri boqiyligi, hozirda ham bu san’at ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgani sababi ham shundadir.

Maxsus tuproqni o‘tga qizdirib, toshsimon bo‘lib pishishini, undan har xil idishlar tayyorlashni odamlar juda qadimdan bilganlar. Ular avval loydan idish yasab gulkanda qizdirib pishirganlar. Bu hunar bilan dastlab ayollar shug‘ullangan. Keyinchalik kulolchilik bilan erkaklar ham shug‘ullana boshlagan. Loydan yasalgan idish-tovoqlar maxsus o‘choq hamda xumdonlarda pishirilgan. Neolit davrida idishlarning tagi uchlik qilib yasalib yerga sanchib qo‘yilgan. Eneolit davrida esa Sharq mamlakatlarida hamda qadimgi Gretsiyada nafis kulolchilik idishlarini yasash rivoj topgan. Insoniyat me’morchilikda sopoldan foydalana boshlagan.

VIII-XII asrlarda kulolchilik O‘rta Osiyoda yaxshi rivojlangan. Buni Afrosiyob va O‘rta Osiyo mamlakatlaridan topilgan kulolchilik buyumlari isbotlab beradi. XIX asrda O‘rta Osiyoda yashagan tojik va o‘zbek millatlariga mansub xalqlar kulolchilik bilan jiddiy shug‘ullanib, uni juda keng rivojlantirganlar. G‘ijduvon, Panjikent, Samarqand, Shahrisabz, Toshkent, Rishtonda kulolchilik markazlari paydo bo‘ldi. Ular sopol idishlarni sirlab bezatishning o‘ziga xos uslublarini vujudga keltirganlar.

1930-yilda Toshkentda eksperimental keramika va Samarqandda keramika ustaxonalari ochildi. 1932-yilda Toshkent o‘quv ishlab-chiqarish ustaxonasi tashkil etilib, u mahalliy xalq amaliy san’at ustalari, shu qatori kulollar tayyorlaydigan kurslar tashkil etildi. 1943-yili Shahrисabzda o‘quv ishlab-chiqarish badiiy korxonasi ishga tushirildi. Kulolchilik sir-asrorlarini mashhur kulollar yoshlarga sitqidildan o‘rgata boshladilar.

Hozirgi kunda kulolchilikka yanada e’tibor kuchaymoqda. Poytaxtimizning barcha qo’shimcha ta’lim muassasalarida kulolchilikka yo‘naltirilgan to‘garaklar ishlab turibdi. O‘zbekiston Badiiy akademiyasiga qarashli Respublika Rassomlik kollejida, K. Behzod nomidagi rassomchilik va dizayn institutida, Nizomiy nomli Toshkent davlat pedagogika universiteti san’at fakultetida kulolchilik fan sifatida talabalarga o‘qitib kelinmoqda.

Rishton O‘zbekistondagi sirlangan sopol buyumlari ishlanadigan eng mashhur va qadimiy markazlardan biri. XIX asr oxiri XX asr boshlarida aholisining deyarli hammasi kulollardan iborat bo‘lgan. Farg‘ona vodiysidagi barcha kulolchilik markazlari azaldan Rishton kulolchilik maktabi ta’siri ostida shakllangan. Ushbu tumanda har qanday turdagи buyumlarni yasash uchun yaroqli bo‘lgan, alohida navli kulolchilik gilining mavjudligi bunga asos bo‘la oladi. Qizg‘ish-sarg‘ish rangli ajoyib gil Rishtonning deyarli butun hududida uchraydi.

Keyingi 20 yil ichida Rishton sopolis an’anaviy badiiy va texnologik usullar asosida yana qayta tiklandi. Ishqorli sir tayyorlash usuli yo‘lga qo‘yildi. Rishton sopolchiligining mahalliy badiiy xususiyatlari ko‘p jihatdan buyumlarga naqsh berilishida ko‘zga tashlanadi.

Yuqorida keltirilgan fakt va dalillar kulolchilik terminologiyasi qadim tarixga ega ekanidan dalolat beradi. Shuni ham ta’kidlash joizki, terminologik birliklarining asosiy qismi sopol buyumlarning sirti va ichiga chizilgan turli chizgilar, naqshlar, bezak va gullar nomlari tashkil etadi. Buni 1990-2000 yillarda Rishton kulollari yaratgan buyumlardagi bezak nomlari misolida ham ko‘rish mumkin. Ushbu tuman kulollari leksikasida girix bezaklar nomlari

sanalgan *to'rsimon naqsh, rombsimon naqsh, uchburchakli shakl, uchburchak naqsh, doirasimon shakl, doirasimon naqsh, zanjirsimon naqsh, zanjirsimon shakllar, nuqtali naqsh, kvadratchali qora naqsh, kvadratchali oq naqsh, egri chiziq, to'g'ri chiziq, doiracha, doirachali naqsh, tupbarggul shaklli naqsh* singari ko‘plab so‘z va terminlar paydo bo‘ldi. Shuningdek, kulolchilikda keng urf bo‘la boshlagan *o'simliksimon naqshlar* ham ko‘pgina so‘z va terminlarning yuzaga kelishiga zamin yaratdi. *Anor guli, bodom guli, qalampirgul, nokgul, bargi gulnor, guli behi, bargi tug‘, guli madoxil, guli olubolu, guli binafsha, munchoqgul, doira, pistagul, bargi mustai, guli talxa, qovoqgul, guli angur, daraxti xurmo, guli anor, anorgul, guli binafsha, guli tupsar* singari naqsh nomlari shular jumlasidandir.

Soha terminologiyasida ma'lum bir kompozitsion shakllarni yaratishda qo‘llaniladigan naqshlar ham o‘simliksimon shaklda bo‘lgan va bu naqshlar qaysi o‘simlikka o‘xshatib chizilgan bo‘lsa, shu nom bilan atalgan. Masalan: *guli bodomi ninachi, bodomgul, islumi qalampir, guli tarbuz, guli nok, pistagul, islumi ansur, guli norinj, sodda gul, qirq og‘ayni, karnaygul, qiyoq o‘t, guli chong‘ora, lolagul, buragul, g‘unchagul, guli zarvaraq, guli odmi, gul xayri, guli o‘sma, guli ansur, g‘o‘za gul* kabi.

Hayvon, parranda va hasharotlar gavdasining ayrim qismlari yordamida yaxlitlik g‘oyasi aks ettirishga qaratilgan shakllar ham mavjud bo‘lib, ularning nomi xuddi o‘simliksimon naqshlar kabi hayvon, parranda va hasharotlar yoki ularning uzvlari nomi bilan atalgan: *qo‘chqaroq, islumi zuluk, chor chashm, dumi baliq, baliq dumi, qanoti tovus, tovus qanoti, qanoti o‘rdak, o‘rdak qanoti, dumi kabutar, kaptar dumi, qanoti tovus, tovus qanoti, qanoti kapalak, kapalak qanoti, dumi murg‘, chumchuq dumi, dumi xo‘roz, xo‘roz dumi, dumi burgut, burgut dumi, qanoti boyqush, boyqush qanoti, oltin qo‘ng‘iz* singari.

Bizning ilmiy izlanishlarimiz shuni ko‘rsatadiki, qadimda ajdodlarimiz ustoz-shogird an’anasi asosida yoshlarga hunar o‘rgatish bo‘yicha boy tajriba to‘plaganlar. Markaziy Osiyoda ustoz va shogird an’analari asosida kadrlar tayyorlashning o‘ziga xos tarixi mavjud. Bu an’ana bilan bog‘liq turli so‘z va

terminlar tilimizda faol ishlatilib kelingan. Qadimda usta tayyorlashning o‘ziga xos milliy an’anaviy asoslari, urf-odatlari, qonun-qoidalari va talablari bo‘lgan. Shogirdlikka boradigan bolaning ota-onasi va qarindosh-urug‘lari *bo‘y* deb ataluvchi odatga ko‘ra, bo‘g‘irsoq va holvaytar pishirib, unga yaxshi niyatlar bildirganlar, yoshi ulug‘lar uning usta bo‘lib yetishishini tilab duo qilganlar. Dastlabki davrlarda ustoz shogirdiga mayda-chuyda uy ishlarini buyurgan. Keyin esa ustaga asbob-uskunalarni yoki xom-ashyoni ishga tayyorlab turish vazifalarini bajargan, keyinchalik uning zehni va qobiliyatiga qarab asta-sekin ijodiy mehnatga, hunar qilishga ruxsat berilgan. Kulolchilikni o‘rganishga kelgan bola *shogird* deb yuritilgan. Unga hunar o‘rgatayotgan shaxs esa *usta*, *katta usta*, *ustakalon* singari terminlar orqali nomlangan bo‘lsa, ustaning ishlariga yaqindan yordamlashish bosqichiga o‘tgan shogird *yordamchi usta* yoki *xalfa* deb nomlangan.

Ustalarning o‘z shogirdlariga fotiha berishi turli shakllarda amalga oshirilgan. Bularning ham o‘z nomlari mavjud bo‘lib, *oq fotiha*, *arvoi pir*, *suv ichirish*, *mo‘yqalam topshirish*, *non tortiq qilish* (Rishtonda noni suxta deb yuritilgan) singari so‘z va terminlar shular jumlasidandir.

Ustoz-shogird an’anasida bajariladigan yana bir tadbirning nomi uy bezash deb nomlangan. Uy bezash shogirdning usta maqomini qo‘lga kiritishi uchun bir sinov vazifasini ham o‘tagan. Katta usta yoki ustakalon shogirdining ishidan ko‘ngli to‘lsa, u usta maqomiga erishgan. Bu maqomga erishgan yosh ustaga mustaqil ishslashga ruxsat berilgan. Ba’zi hollarda yosh ustalar *xalfa*, ya’ni *katta usta* boshchiligidagi birgalikda ishslashga taklif etilgan. Ba’zan kulol ustalar katta va kichik duradgorlik, qurilish ishlarini ham bajarishgan. Bu ishga jalgan shaxslar mansabi va unvoni asosida turlicha nomlangan: *oqsoqol*, *g‘olib*, *najjorboshi*; ularning o‘rinbosari esa ustoz kalon, poykor, katta usta, usta; ustaga yordamchilar: *xalfa*, *nimsherik*; *shogird*, *mulla* deb yuritilgan.

Har bir hunar odatda avloddan-avlodga o‘tgan, begona bolalardan esa o‘ta iste’dodli, shu hunarga mehr qo‘yganlargina tanlab olingan. Chinakam usta bo‘lish va hunar egallahshni orzu qilgan kishilar uchun madrasada o‘qigan

bo‘lishi, tarix, she’riyat va musiqa sirlaridan voqif bo‘lishi, hatto musiqa asboblarini biroz chala bilishi shart qilib qo‘yilgan. Ayrim ustalar shogirdlari uchun maxsus odob talablarini ishlab chiqqanlar. Masalan, ular shogirddan pokizalikni, ish vaqtida chalg‘imaslikni, egri va noma’qul ishlarga yaqin yo‘lamaslikni qat’iy talab qilganlar. Shularning o‘ziyoq xalqimiz qadim-qadimdan amaliy san’at turlarini nechog‘lik ardoqlaganini, ajoyib san’at, mashaqqatli hunarni faqat eng munosib va fidoyi kishilargagina ishonib topshirilganini ko‘rsatadi.

Xullas, kulolchilik san’ati nechog‘li qadimiy bo‘lsa, bu sohada qo‘llanishda bo‘lgan so‘z va atamalar ham shunchalik qadimiyyidir.

O‘zbekistonning barcha hududlarida xalq san’atining o‘ziga xos markazlari bo‘lib, ular jahon madaniyatiga buyuk badiiy qadriyatлari bilan hissa qo‘shgan. Bu qadriyatlar haqli ravishda xalq, san’atining ramzi bo‘lib qoldi. Samarqand, Buxoro, Toshkent, Farg‘ona vodiysi, Xorazm va Qoraqalpog‘istonda yuzaga kelgan kulolchilik (sirkor va guldar sopol buyumlar), yog‘och va ganch o‘ymakorligi, naqshinkor bezak va kandakorlik, kashtachilik, gilamdo‘zlik, sholchado‘zlik va chitgarlik, zargarlik san’ati, charmga bezak tushirish san’ati, lokli miniatyura hamda kitob miniatyurasi hozir ham mavjud. Zangori-lojuvard, cho‘g‘dek qip-qizil sopol ko‘zalar, laganlar, yog‘ochdan o‘ymakori va naqshinkori qilib yasalgan milliy xontaxtalar, qo‘lda to‘qilgan gilamlar, miniatyuralar, marg‘ilonlik, xivalik va toshkentlik ustalar tomonidan qizil misdan yoki tillarang jezdan yasalgan, qimmatbaho metalldek yarqirab, shaklan nafisligi hamda naqshinkorligi bilan ajralib turuvchi buyumlar va, ayniqsa, kandakori idishlar mehmon bo‘lib kelgan xorijiy davlatlar boshliqlariga tortiq qilingan,

O‘zbek keramikasi ikki turga: sirkor va sopol keramikaga bo‘linadi. Hozirgi kunda keramika markazlari respublikaning Samarqand, Shahrisabz, Toshkent, G‘ijduvon, Rishton, Qo‘qon, G‘urumsaroy, Kasbi, Uba, Denov, Yangiariq kabi shaharlarida joylashgan. Farg‘ona vodiysi va Xorazm sopol

buyumlari ko‘k-oq-yashil ranglarda tovlansa, Samarqand, Qashqadaryo, Toshkent, Buxoro sopolijigarrang-sariq tusda tovlanadi.

Naqshinkor bezaklarning qo‘llanilishi va talqinida an’analarning rangbarangligi namoyon bo‘ladi. Kulollar buyum yasar ekan, naqshinkor rasm, rang va shaklning murakkab nisbatini nozik his etishadi. Buni mashhur kulol ustalardan A.Muzaffarov, M.Obloqulov, R.Matchonov, I.Komilov, X.Sotimov, M.Rahimovning muzey to‘plamlarida saqlanayotgan asarlarida yaqqol ko‘rish mumkin.

Rishton va G‘urumsaroy kulollarining ijodi nozik islimiylaqsh bilan ajralib turadi. Shu naqsh uzra ro‘zgor buyumlari va atrof muhit elementlari — ko‘za, pichoq, anor va bodom mevalari tasviri tushiriladi. Xorazmning ko‘k-oq-yashil rangli sopolime’moriy qoplama keramika (mayolika) bilan bezatiladi. Unda ko‘k yoki yashil fondagi oq chirmoviq tasvirlanadi. Islimiylaqsh handasaviy shakllar bilan hoshiyalanadi.

Toshkent, Buxoro va Samarqand keramikasi alohida ranglari va bezash usullari bilan ajralib turadi. Unda nuqtali va sariq-yashil rangdagi bezak islimiylaqsh bilan yo‘g‘rilib ketadi. Idishlarda anor mevasi, tovus patisimon gullab turgan shoxchalar tasvirlanadi. Xalq ustalari mo‘yqalamda naqsh chizish bilan birga o‘yma, kesma hamda bosma naqshdan ham foydalanishgan va hozir ham foydalanib kelishmoqda.

O‘zbekistonda mayda dekorativ sopol plastikani Uba, Kasbi, Samarqand kulollari tomonidan ertaklar olamidan olib yasalgan an’anaviy o‘yinchoqlarda ko‘rish mumkin. Hamro Rahimova va Anbar Sattorova yaratgan g‘aroyib *hushtaklar*, *fantastik fillar*, Abduraim Muxtorov va Vohid Ilhomov yasagan, lirik humor va mug‘ombirona tabassum bilan yo‘g‘rilgan *haykalchalar* xalqning yorqin va quvnoq bezakka hamda fantaziyaga mehri balandligidan dalolat beradi.

O‘zbek kulolchiligi uzoq tarixga, ajoyib an’analar, shakl, mazmun, ijodiy jarayon va o‘ziga xos uslubga ega. Sopol buyumlari sodda bo‘lsa-da uning ko‘rinishi qismlarining aniqligi, mutanosibligi saqlanishi, naqshlarining badiiy

joylashishi, shakl va mazmunining birligi, uyg‘unligi o‘zbek kulollarini jahonga tanitib kelmoqda. Kulolchilik hunari loydan *piyola, kosa, tovoq, ko‘za, lagan, xurmacha, tog‘ora, xum, tandir, buyum, o‘yinchoqlar, qurilish materiallari* va boshqalar tayyorlaydigan soha bo‘lib, u uzoq tarixga ega.

Maxsus tuproqni o‘ta qizdirganda toshsimon bo‘lib pishishini, undan har xil idishlar tayyorlashni odamlar juda qadimdan neolit davrining boshlaridayoq bilganlar. Neolit davrida idishlarni tagi uchli qilib tayyorlanib yerga sanchib qo‘yilgan. Enolit davrida esa Sharq mamlakatlarida hamda Qadimgi Gretsiyada nafis kulolchilik idishlari rivoj etgan va me’morchilikda sopoldan foydalana boshlangan.

VIII-XII asrlarda kulolchilik O‘rta Osiyoda yaxshi rivojlangan bo‘lib, buni Afrosiyobda va O‘rta Osiyoning boshqa yerlarida topilgan kulolchilik buyumlari isbotlaydi.

XIX asrda O‘rta Osiyoda tojik va o‘zbek xalqlari o‘rtasida kulolchilik juda keng rivojlanib G‘ijduvon, Panjikent, Samarcand, Shahrisbz, Toshkent, Rishtonda kulolchilik markazlari paydo bo‘la boshlagan. Rishton O‘zbekistondagi sirlangan sopol buyumlari ishlanadigan eng mashhur va qadimiy markazlardan biri. XIX asr oxiri XX asr boshlarida aholisining deyarli hammasi kulollardan iborat bo‘lgan. Farg‘ona vodiysidagi barcha kulolchilik markazlari azaldan Rishton kulolchilik ta’siri ostida bo‘lgan. Ushbu tumanda har qanday turdagи buyumlarni yasash uchun yaroqli bo‘lgan, alohida navli kulolchilik gilining mavjudligi bunga asos bo‘la oladi. Qizgish-sarg‘ish rangli ajoyib gil Rishtonning deyarli butun hududida 1–1,5 m chuqurlikda qatlam bo‘lib joylashgan. Gilning yaxshi sifatliligi mahalliy ustalarning uni O‘zbekistonning boshqa tumanlaridagi kulollardan farqli ravishda oldindan tozalab boshqa turdagи tuproqlarga aralashmagan holda ishlab chiqarishga jalb qilish imkonini beradi. Kulollar Rishton yaqinidagi tog‘lardan har xil buyoqlar, kvarsli qum va olovbardosh gillarni qazib olishgan.

Har bir ijodkorning ruxiy holati, o‘zi bajarayotgan buyumida o‘z aksini topmasdan qolmaydi. Kishi ruhiyatini ko‘tarishda esa xonaning ozodaligi,

jihozlarning qulayligi muhim rol o‘ynaydi. Har bir asbob–uskunalar, xomashyolar, ko‘rgazmali qurollar, kulollarning tayyor ishlari, dastgohlar, elektropechlar tartibi bilan o‘z joyiga qo‘yilmog‘i lozim.

O‘zbekistonda kulolchilik tovarlari Toshkent, Samarcand, Quvasoy, Bog‘ot chinni, SHerobod kulolchilik va Rishton badiiy kulolchilik zavodlari hamda Angren kulolchilik kombinatida ishlab chiqariladi. Yurtimizda Angren, Olmaliq, Oqtosh va Nurobodda kaolin konlari, SHo‘rsuvda kuydirganda oqaradigan gil, Chotqol va Langarda pagmatit, Zirabuloq, Ziyovuddinda dala shpati, Dehqonobod va G‘uzorda dolomit konlari mavjud.

Bugungi kunda hech shubhasiz shuni aytish mumkinki, dunyoning qaysidir chekkasidan O‘zbekistonga sayohat qilish uchun kelgan har qanday sayyoh, albatta, o‘zbek kulollarining o‘ziga xos san’atidan zavqlangan holda kichik bo‘lsa-da, bir ijod namunasidan o‘zi birga olib ketadi. Shunday ekan, biz o‘zbek xalqini butun dunyoga tanitgan kulolchilik san’ati haqida yanada chuqurroq va yaxshiroq o‘rganishimiz, kulolchilik san’atiga oid bo‘lgan atamalar va ularning kelib chiqishi haqida chuqur bilim va malakaga ega bo‘lishimiz joizdir. Biz kabi yosh tadqiqotchilar tomonidan ko‘pgina ilmiy-amaliy ishlar bajarish, xususan, kulolchilik terminologiyasiga asoslangan kulolchilik lug‘atining yaratilishi ham o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi.

1.2. Kulolchilik terminlarining boyish manbalari

Har bir xalqning iqtisodiy va madaniy hayotida yuz bergen yangiliklar, yaratilgan moddiy ne’matlarni ifodalovchi so‘zlar, birinchi navbatda, o‘sha xalq tilining ichki imkoniyatlardan foydalanib tuziladi va ular o‘sha til lug‘at fondini tashkil etadi. O‘zbek xalqining idish-tovoq buyumlariga ehtiyojini o‘tovchi kulolchilik mahsulotlari va bu mahsulotlarni tayyorlash jarayonida qo‘llaniladigan leksik birliklarning ma’lum qismini turkiy (o‘zbekcha) so‘zlar tashkil etadi. Bundan tashqari o‘zbek tilining o‘z imkoniyatlari, ya’ni shevadan so‘z olish yoki turli usullar bilan yangi so‘z yasash orqali ham soha leksikasi boyib bormoqda.

Kulolchilik mahsulotlarining nomlarini yaratishdagi ikkinchi manba o‘zga tillardan so‘z olishdir. O‘zbek tili kulolchilik leksikasi tizimidagi leksik birliklarning aksariyati turkiy millatga mansub bo‘lmagan arab, fors-tojik, rus va boshqa tillardan o‘tgan so‘z-terminlardan tashkil topgan. Soha leksikasi tarkibidagi bu o‘zlashmalarning ko‘pchiligi o‘zbek tilining lug‘at tarkibida xalq ommasining o‘z so‘zi sifatida qo‘llanilishini kuzatish mumkin.

Lingvistik adabiyotlarda so‘z va atamalarning qaysi til birligi ekanligiga ko‘ra sohaga oid etimologik qatlam quyidagicha tasnif etiladi va bu kulolchilik leksikasi uchun ham xos xususiyat sanaladi:

1. O‘z qatlamga kiruvchi leksik birliklar.
2. O‘zlashma qatlamga kiruvchi leksik birliklar.

Bu ikki qatlamning o‘zi ham ichki bo‘linishlarga ega. Masalan, o‘z qatlamga kiruvchi leksemalar yoki atamalar umumturkiy va o‘zbekcha so‘z va atamalar singari ikkiga ajratilsa, o‘zlashma qatlamga kiruvchi til birliklari esa fors-tojikcha, arabcha, ruscha va boshqa xorijiy tillardan o‘zlashgan birliklar sifatida kichik guruhlarga ajratib o‘rganiladi.

Kulolchilik leksikasining o‘zlashma qatlami tarkibida fors-tojik tilidan o‘zlashgan birliklar sermahsulligi kuzatiladi. Hatto respublikamizning yetakchi kulolchilik maktabi sanalgan Rishtonda kulolchilik leksikasinig katta qismini fors-tojikcha so‘zlar tashkil etadi. Buning sababini ushbu tumanda ikki tilli aholi birgalikda, yonma-yon istiqomat qilib kelayotgani, hunarmand kulollar orasida tojik millatiga mansub kishilar katta qismni tashkil etishi bilan izohlash mumkin. Quyida kulolchilik leksikasi har ikki qatlami til birliklari xususida qisqacha to‘xtalib o‘tamiz.

Kulolchilik terminologiyasining o‘z qatlami

Kulolchilik leksikasining ma’lum bir qismi turg‘un (barqaror) bo‘lib, kelib chiqishi tarixi ko‘ra juda qadim zamonalarga borib taqaladi. Eramizdan avvalgi davrlardayoq turkiy millatga mansub aholining ma’lum bir qismi kulolchilik bilan shug‘ullangani tarixiy manbalarda zikr etilgan. Bundan tashqari, Mahmud Kog‘ariyning “Devonu lug‘atit turk” (XI asr) asarida kulolchilikka oid ayrim

so‘zlar izohlanganini ko‘ramiz. Devonda arg‘ular tilida leksemaning ko‘zajak fonetik shakli qo‘llanishi haqida ma’lumot bor. Bundan tashqari devonda kuzas, ko‘rka/ko‘rga, olma/alma/ulma singari leksemalar ko‘za, ko‘zacha singari ma’nolarni ifodalashi qayd etilgan¹.

Rabg‘uziyning “Qissasi Rabg‘uziy” (XIII asr) asarida ayoq (may quyiladigan sopol idish), kub (xum), oshich (sopol ko‘zacha)² singari kulolchilikka oid nomlar uchraydi.

XII asrda turkiy qabilalar ittifoqlari uyushib, xalq shakliga kirgan qoraxoniylar davrida madaniyat, kasb-hunar, san’at rivoj topadi. Bu davrda kulollar yasaydigan buyum turlari ancha ko‘payadi. Tilda esa bu buyumlarning yangi nomlari yuzaga keladi. Soha leksikasi boyidi.

XV asrninggina emas, balki hozirgi zamonamizning ham buyuk shoiri sanalgan Alisher Navoiy asarlari tilida ham kulolchilikka oid qator til birliklari keltirilganki, bu davr leksikasi tizimining shakllanishida ular katta o‘rin tutadi, Shoir may quyib ichiladigan sopol idish, ya’ni ko‘zachani balbala tarzida qo‘llaydi. Navoiyning nazmiy asrlari tilida ayoq lesemasi ham qo‘llanilgan.

Yuqorida keldirilgan yozma manbalarda qayd etilgan til birliklarining barchasi tilmizning tarixiy qatlamiga tegishli va ular kulolchilik leksikasining umumiurkiy qatlamini tashkil etadi.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da berilgan til birliklarining asosiy qismini o‘zbekcha so‘zlar tashkil etadi. Bu tabiiy hol, albatta. Biz o‘zbekcha nom sifatida o‘rganayotgan birliklarning ma’lum qismi umumturkiy xarakterga ega bo‘lsa, ma’lum qismi o‘zbek tilining ichki imkoniyatlari orqali hosil qilingan so‘zlardan tashkil topgan. Lug‘atdan o‘rin olgan kulolchilikka oid quyidagi leksemalarni shu guruhga kiritish mumkin: *kosa, tovoq, lagan, ko‘zacha, xumcha, chopiya, tuvak, to‘rsimon naqsh, rombsimon naqsh, uchburchakli shakl, uchburchak naqsh, doirasimon shakl, doirasimon naqsh, zanjirsimon naqsh, zanjirsimon shakllar, nuqtali naqsh, kvadratchali qora naqsh, kvadratchali og*

¹ Koshg’ariy M. Devonu lug‘atit turk. Uch tomli 1-3 tomlar. –T.: Fan, 1960-1963.

² Rabg‘uziy B. Qissasi Rabg‘uziy. Ikki jildli. 1-2-jildlar. –T.: Yozuvchi/

shaqsh, egri chiziq, to‘g‘ri chiziq, doiracha, doirachali naqsh, tupbarggul shaklli naqsh, anor guli, bodom guli, qalampirgul, nokgul, munchoqgul, doira, pistagul, qovoqgul, anorgul, bodomgul, pistagul, sodda gul, qirq og‘ayni, karnaygul, qiyiq o‘t, lolagul, buragul, g‘unchagul, g‘o‘za guli, qo‘chqaroq, baliq dumi, tovus qanoti, o‘rdak qanoti, tovus qanoti, kapalak qanoti, chumchuq dumi, xo‘roz dumi, burgut dumi,, boyqush qanoti, oltin qo‘ng‘iz, narvon, tumorcha, jiydagul, o‘ngu chap, tumorcha barg, tumor zanjira, xat, qo‘shxat, uch xat, to‘rt xat, kesma xat, uch ilon izi, se ilon izi, qo‘sh ilon izi, ilon izi, egri xat, ikki egri xat, bir tortar, xarsang tosh, jibilajibon, chumchuqqanot, chetan, tumorcha zanjira, jingalak xat, qarg‘atirnoq, tumor yo‘l, qo‘shirnoq, sambit bargi, qanot zanjira, kariz zanjira, zuluk zanjira, bo‘ston naqshi, oshiq zanjira, jingalak zanjira, g‘alvirak hoshiya, tumorcha nuxat, vov zanjira, gilosbarg, halqa zanjira, egar zanjira, pistagul, bosma parparak, davra, parrak bosma, yulduz bosma, tolbarg, zarpoja, bodom, rayhon bargi, koptok zanjira, kulcha zanjira, dolchin bargi, nokbarg, qovoqbarg, xapalak, qushqanot, ilmoq zanjira, otosharava, g‘ildirak zanjira, jingala, behi guli, ponis naqshi, olu guli, gajakgul, uzum guli, anorgul, tosh taroq, qo‘chqaroq zanjira, anjirgul, bodring zanjirasi, tarvuz zanjirasi, kapalak zanjira, gajakbarg, tug‘barg, zanjobil bargi, nayzabarg, bargi nayza, gajak barg, choybarg, tarvuz gul, nok guli, norinj guli, oddiy gul, gulxayri, qush dumi, boyqush qanoti, chinnimuhr, yalpizgul, to‘pmunchoq, qo‘y tuyog‘i, qora ilon, ho‘kiz shoxi, ho‘kiz ko‘zi, qush ko‘zi, oq rang, yashil rang, moviy rang, sariq rang, havo rang, bo‘y, mo‘yqalam tutqazish, suv ichirish, uy bezatish, oq yo‘l, qurbanlik o‘tkazish, xudoyi qilish, is chiqarish, mola, katta mola, kichkina mola, sim, naqshin qolip, lagan qolip, tappa, taroq, kulol, bobo, oqsoqollar kengashi, oqsoqol, elamoq, qorimoq, loy tayyorlamoq, tepmoq, mushtlamoq, pishitmoq, nam sholcha bilan o‘ramoq, quritmoq, xumdonga solmoq, olovda pishirmoq, sovutmoq, ishlov bermoq, gul solmoq, shakl bermoq, sirlamoq, kichik g‘ildirak, katta g‘ildirak, o‘q.

Shuningdek, kulolchilik terminologiyasida qo‘llaniladigan *bolg‘a*, *bo‘yov*, *bo‘yoq*, *bo‘yoqchi*, *bo‘yoqli*, *bo‘yoq-suyoq*, *bo‘yoqxona*, *bo‘yoqdor*, *bo‘yoq-*

chilik, bo ‘yoqdorlik, bo ‘tana, bo ‘tanoq, bo ‘yagich, bo ‘yama, bo ‘yamoq, bo ‘yashmoq, guvala, alanga kabi so‘zlar ham o‘z qatlamga oid terminlardir.

Kulolchilik terminologiyasining o‘zlashgan qatlami

Hech qanday xalq o‘z taraqqiyoti yo‘lida boshqa xalqlar bilan aloqa qilmasdan, ayrim holda xo‘jalik yuritishi mumkin bo‘lmaganidek, qanday bo‘lmasin birorta xalqning ajralgan holda til ishlab chiqarishi mumkin emasdir.

O‘zbek tili o‘z tarixiy taraqqiyoti davomida bir qancha tillar bilan munosabatda bo‘lgan. Tarixdan ma’lumki, o‘zbeklarning qadimgi ajdodlari sug‘dlar bilan yonma-yon yashashi, turmush tarzi va kasb-korida ko‘p jihatdan umumiylig bo‘lganidan, bir-birlarining tillariga leksik va morfologik elementlar o‘tib turgan.

Fors-tojikcha terminlar

Hozirgi o‘zbek adabiy tili lug‘at tarkibida ko‘plab eroniy tillarga oid so‘zlarni uchratish, birinchidan, o‘zbek va tojik xalqlarining uzoq yillik qarindoshlik munosabatlari ta’sirida, ikkinchidan, badiiy adabiyotning ta’sirida yuz bergan deb qaraladi. Fors-tojikcha so‘zlarning o‘zbek adabiy tiliga o‘zlashishida har ikki holat ham samarali ta’sir etgan deb aytish mumkin.

Kulolchilik leksikasida fors-tojik tilidan o‘zlashgan so‘zlar ancha sermahsul. Xalq jonli tilida bunday so‘zlar salmog‘i ortiqligi ma’lum. Tojik tilli shevalar bilan yonma-yon bo‘lgan o‘zbek shevalarida bu ta’sir yanada kuchli. O‘zbekistonning ko‘pgina hududlaridagi qishloqlarda ikki tilli aholi aralash holda yashaydi. Aralash tilli shevalarida so‘z o‘zlashtirish hodisasi ikki tilda ham yaqqol ko‘rinadi.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da ham kulolchilikka oid fors-tojik tilidan o‘zlashgan so‘zlar salmog‘i kattaligi kuzatildi. Kulolchilikka bag‘ishlangan boshqa ishlarda g‘am shu holatni kuzatish mumkin. Xullas soha leksikasida quyidagi so‘zlar fors-tojik tilidan o‘zlashgan deb aytish mumkin: *arvohi pir, bandi rumi, bargi gajak, bargi gulnor, bargi dolchin, bargi zanjabil, bargi zanjira, bargi islimi rixak, bargi kobuzbon, bargi madohil, bargi mustai, bargi*

mushki anbar, bargi nayza, bargi rayhon, bargi sambit, bargi tumorcha, bargi tug‘, bargi chingalaki xudus, bargi shijora, behi daraxti poyox, behi sarun, bosma parparak, bosmanoxot, buragul, gajakbarg, gandum zanjira, gandumgul, girdobi parra, guli azhar, guli akvoxun, guli angur, guli anor, guli ansur, guli behi, guli binafsha, guli binafshai doira, guli bodomi ninachi, guli gajak, guli zarvaraq, guli madoxil, guli mujgon, guli mug‘ilon, guli nok, guli norinj, guli odmi, guli olubolu, guli rumi, guli talxa, guli tarbuz, guli tupsar, guli chong‘ora, guli o‘sma, gulxayri, davra zulma, davra noxot, davra, davrai xurshid, dandana, daraxti xurmo, doira, du gajagi marg‘ula, du egri xat, dumি baliq, dumি burgut, dumি kabutar, dumি murg‘, dumি xo‘roz, jingala, jingalak zanjira, zanjira islimi olxo‘ri, zanjirai bodiring, zanjirai vov, zanjirai islimi chor yaproq, zanjirai nim davra, zanjirai raftor, zanjirai tarbuz, zanjirai taroq, zanjirai chashma, zarpoya, zulma zanjira, islimi ansur, islimi baizai anqo, islimi zuluk, islimi pechakgul, islimi taroq, islimi qalampir, islimi hoshiya, kamar basta, kamar, katta mola, kichkina mola, kojkord, koptok zanjira, kulcha zanjira, ko‘za, ko‘hiqof, labgir, sim, lagan qolip, madoxili islimi, madoxili sodda, madohilcha, mehrobi oba, mehrobi qalam, mola, moragi duqator, moragi naxo‘d, mori siyoh, narvon, naqshi bo‘stoni, naqshi girdobi, naqshi kojkord, naqshi morob, naqshi obi, naqshi ponis, naqshi sitora, naqshi xashhosh, naqshi shamdon, naqshi halila, naqshi humoyun, naqshin qolip, noxot (nuxat), noxoti tumorcha, noxoti xonagi, nohoti halqa, oba, obdasta, obi rahmat, obtoba/optova/obtova, otosharava, oftobi, panjagi bosma, pargar, parparak, parpashsha / patpashsha, parra xarroj, parrak bosma, pechalak, piyola, pirpirak, poykor, rishtai pisorig‘, rohi zanjira, se ilon izi, se egri xat, sebi hoshiya, sopalak, sopol, tagi qalam, tagi hoshiya, taroq, taroqi sang, taroqi xarroj, tikanak, tuyog‘i gusfand, tumori roh, tumorcha xonagi, tuppa, usta, ustakor, xalfa-usta, xapalak, xat, sexat, xatti jingalak, xatti islimi, xatti kesma, xatti mehrobi, xatti naxo‘di zulma, xum, xumdon, chapu rost, charx, charxi parrak, charxpak, chashma, chashmi bulbul, chashmi gov, chashmi ushtur, chetan bo‘yrugi zanjira, chetan, chinni, chor hashm, chor hashm, chorbarg, chormag‘iz, chorxat, chorxonai terma,

shabaki, shamdoni xashtagi, shogird, shokasa, shoxi gov, yaktarafa zanjira, qanoti boyqush, qanoti boyqush, qanoti kapalak, qanoti murg‘, qanoti tovus, qanoti o‘rdak, qanoti qushi movi, qafasi bedana, qo‘r sambusagi, qo‘r chorxona, qo‘chqaroq zanjira, qo‘chqaroq, qo‘sh bargi bodomi shijor, g‘ildirak zanjira, g‘ildirak. g‘ujmak, g‘unchagul, g‘o‘zanagi terma, havzagi zanjira, halqa zanjira, hashti havzagi, nilufariy, nil rang, nilgun, niliy/ nilin (ko‘k), nilin qadah (zangori rang qadah), nigoranda (rassom), nigorish (rasm tushirish), nigorxona (rasmxona), ojir/ ojur(g‘isht), ogin (naqshli), oyinagun (oyinarang), oyinafom, otas, otashangez, otashboz, otashgoh, otashgun, otashdon, otashdonlig‘ (yondirish), otashin, rang, rang etmoq, rangiun, ranginlig‘, rangomiz, rangomizliq, rangrez, rangrezliq, rummoniy, rangrezliq, rummoniy (anorrang), avzor (asbob), andoza (qolip), afzor (ish quroli), arg‘ovongun (qizil), arg‘ovoniy (to‘q qizil), barg (bezak), binafsh/binafsha (sapsar rang), binafshafom, boda kishtisi (qayiqchaga o‘xshagan mayda idish), gabrakiy (may idish), gil (loy), gulgaz (ko‘kimtir), gul-gul, gulgun (gulrang), gulnorgul (qizil), gulnoriy, gulrang, gunogun (rang-barang), dastgoh, dastkor, dosh (xumdon), doshxona, do‘lob (charx), yashil, jom (qadah), zangor, zarnigor (oltin suvi yuritilgan), zarrina rang (oltin rang), zok (qora), zumrad (yashil, sabz rang), zumradgun, zumradfom, kabud (ko‘k), kalog‘/kuloq (ola qora), kayohiy qadah (bezalgan qadah), kahrobovash (qahrobo rang), kahrobogun, kovish (kovlash), kov/kav (kovlash), kosagar(kulol), kofurgun (oq tusli), kulux (kesak), ko‘k, lemu (sariq), lojuvardiy (moviy), lolavor (loladay qizil), lolagun, miyno/miynoyi/mino/miyno/minu (ko‘k), jom miynu (ko‘kimtir jom), paymona (may piyolasi), pardaraxt (ziynat), pari koh (saman parchasi), pesha (hunar), peshavar (hunarmand), peshavarliq, piroya (bezak), piroyaliq, sabza (yashil), sabzagun, sabzavor, sabu (kuvacha), sabsani (sabsan rang), safid (oq), safol, safol cho‘chak (sopol idish), siyoh/siyah/siyohi (qora), siymgun (oq), sozu barg (asbob-uskuna), somon, sog‘ar (may idishi), surx(qizil), surmagiy/surmagun (qora), tabarxun (qizil), tasht (lagan), tos (jom), to‘tagiy (zangor), firuza rang, xazoniy (sariq), xalob (loy), xisht (g‘isht), xok (tuproq), xokistariy (kulrang),

xom (pishmagan), xoma (qalam), xorapardoz (tosh yo 'nuvchi), xudrang (asl rang), xuniy (qizil), xurshidfom (quyosh rang), chavuk (rang qora), qora chavuk (qora rang), charda (to 'riq rang), charx (g 'ildirak), cho 'chak (safol obdasta), shabgun (qop-qora), shingarf (qizil), shingarfiy (qizg 'ish), shustmon (suvash), qiyrgun (qora), hunarvar, hunarkor kabi.

Arabcha terminlar

O'zbek tiliga arab tilidan o'zlashgan so'zlar mavjud, lekin kulolchilik leksikasida bu salmoq unchalik katta emas. Kulolchilik buyumlariga chizilgan naqsh va shakllar, gul va chizmalar arabiylar nom bilan atalganini kuzatamiz. Unga quyidagilarni kiritish mumkin: *anqo, bayt, kabira, kosib, musavvada, marg 'ula, munabbat, muraqqa', obida, tavq, tarh, sharifa, hal, naqsh, naqshi chin, naqqosh, naqqoshi chin, naqqoshliq, nigor, nigor aylamoq, ol (qizil), rayhoni, kimsan (oltin rang bronza), ablaq (ola-bula), avoniy (idishlar), abyaz (oq), ayoq/ayog' (kosa), ayoqchiliq (kosagullik), azraq (yashil), al-kosib, alocha (ola-bula), asfar (sap-sariq), adavot (asbob), alvon (rang), axzar (ko 'm-ko 'k), axzariy (yashil), aqdoh (qadahlar), ahmar (qip-qizil), billur (oq shaffof), billurin/biluriy, doy (loy paxsa), doygar (paxsachi), jihoz, zarf/zarfu ino (idishlar, idish oyog'i), zibak (simob), zuruf (idish), ibriq (obdasta), ina (xumcha), kos/ka's (kosa), kosib (hunarmand), la'liy (qizil), manqush (naqshlangan), marsum (chizilgan), mijara (siyohdon), moviy, mou tin (suv va loy), munaqqash (naqshlangan), murakkab (siyoh), murtasim (rasm soluvchi), muhallo (naqshlangan), sabbog' (bo 'yoqchi), sayqal, sayqal qilmoq, san'at, sandaliy, sarig', safro (sariq), tanqir (kovlash), tanqir aylamoq (kovlamoq), tarroh (naqsh soluvchi), tarrohlig', tasvir, tag'or, tiroziy (naqshli), tuzluq (tuzdon), turba/turbat (tuproq), unnob rang (chilonjiyda rang), xizob (bo 'yoq), xazro/xuzro (yashil), shamit/shamat (qora naqsh), qadah (piyola), qaliy (qalay), qaro/qara (qora rang), qirmiz (qizil), hiraf/hirfa (hunar), hummat (qizillik) kabilar.*

Arab-forscha terminlar

Kulolchilik terminologiyasida ikki tarkibli terminlar ham uchraydi. Bu kabi terminlar o‘zga tillarda yasalgan va shu holida o‘zbek tiliga ko‘chgan. Soha terminologiyasidagi bunday terminlar arab-forscha terminlardan iboratdir. Ularga quyidagilarni kiritish mumkin: *naqshband*, *naqshbandlig'*, *naqshbin*, *naqshgir*, *naqshpayvand (naqqosh)*, *naqshsoz*, *raqamkor (chizilgan)*, *axzarvash (yashil top)*, *axzargun*, *juradon (suv idish)*, *la'lgun (qizil)*, *la'lgom*, *sahargun (oq rang)*, *shafaqvash (shafaqday qizil)*, *shafaqgun*, *hirfavar (hunarmand)*.¹

Boshqa tillardan o‘zlashgan atamalar

Kulolchilik leksikasida boshqa xorijiy tillardan o‘zlashgan so‘zlar salmoq jihatdan eng oxirgi o‘rinda turadi. Shuning uchun ham rus va boshqa xorijiy tillardan o‘zlashgan birliklarni umumiy holda keltirish bilan chegaralanamiz: *keramika* (*grek.*), *farfor*, *cheripitsiya*, *alfresco*, *inkrustatsiya* (*rus*), *koler*, *kompozitsiya*, *kapitel*, *medalyon* (*lot.*), *kompanovka*, *masshtab*, *maket*, *material*, *ornament*, *palmetta*, *ritm*, *ruta*, *stilizatsiya*, *seluet*, *simmetriya*, *skalpel*, *smalta*, *friz*, *fayans* (*ital.*), *abraziv* (*lot.*), *guash* (*ital.*), *gurunt* (*nemis.*), *avtoportret* (*fran.*), *alizarin* (*fr.*), *amalgama* (*lot.*), *amfora* (*lot.*), *antratsit* (*yunon.*) va boshqalar.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, o‘zbek tili kulolchilik leksikasining etimologik qatlamlari turkiy (o‘zbek), fors-tojik, arab, rus, grek, lotin, italyan va boshqa tillardan o‘zlashgan so‘z hamda atamalardan tashkil topgan bo‘lib, bu holat o‘zbek tilining boshqa tillar bilan juda qadimdayoq siyosiy, iqtisodiy, madaniy, tarixiy aloqalari borligini ko‘rsatadi. Ana shu aloqalar natijasida tilimizga bir qator so‘z va atamalar o‘zlashgan. Jumladan, kulolchilikka oid birliklar ham bundan mustasno emas.

1.3. Kulolchilik terminologiyasining tematik tasnifi

Inson o‘zining ovqatlanishga bo‘lgan ehtiyojini qondirishda maxsus buyumlardan foydalangan. Bu ehtiyojni o‘tovchi buyumlar majmuining umumiy nomi o‘zbek adabiy tilida kosa-tovoq juft so‘zi bilan ifodalanadi. O‘zbek tilida

¹ Navoiy asarlari lug‘ati. Tuzuvchilar Shamsiyev P. , Ibrohimov S . – Toshkent: Fan, 1978.

bu so‘z umumiyligini bildirib, uning tarkibiga bir kator til birliklari birlashadi. Eng kadimgi davrlarda kosa yoki tovok vazifasini kulolchilik buyumlari egallagan. Hatto o‘tmishda qozonlar ham dastlab sopoldan yasalganligi haqida ma’lumotlar bor. Shunday ekan kulolchilik leksikasi tizimiga kiruvchi birliklarini mavzuiy jihatdan tasnif etish, shu asosda sohaga oid so‘z va boshqa birliklarni kompleks o‘rganish imkoniyati mavjud.

Kulolchilik bilan shug‘ullangan kasb egalari sopol buyularini yasash an’analariga ko‘ra buyumlarni ikki tur (guruh) ga ajratganlar: kosagarchilik va ko‘zagarchilik kabi.

Birinchi turdagi buyumlarning ko‘rinishi, asosan, yapaloq shaklda yasalgan. Bu xil idishlarning ko‘pchiliginini turli xil hajmdagi kundalik turmushda ovqatlanish va ichish uchun foydalaniladigan tovoq, lagan, katta kosa, kosa, piyola, sut mahsulotlariga mo‘ljallangan og‘iz qismi katta bo‘lgan idishlar, shakar, don, tuz singari mahsulotlarni solish uchun maxsus yasalgan sopol idishlar kiritilgan.

Ikkinchi turga ko‘za, ko‘zacha, xum kabi sopol idishlar kiritilgan.

Bunday bo‘linish biz tahlil qilayotgan kulolchilik terminlarining barchasini mavzuviy guruhga ajratish s\uchun asos bo‘la olmaydi. Sohaning tematik guruhini shakllantirishda bundan boshqa yana ko‘plab lisoniy va nolisoniy omillarga e’tibor qaratishga to‘g‘ri keladi. Shuni e’tiborga olib kulolchilik terminlarining quyidagi tematik tasnifi ishlab chiqildi.

1. Kulolchilik kasbini egallagan shaxs nomlari. Kulolchilik buyumlari dastlab qo‘lda, keyinchalik kulolchilik charxi ixtiro etilgandan so‘ng charx yordamida shu kasb egalari tomonidan yaratilgan. Kasb ma’nosini bildiruvchi so‘z va terminlar esa bir nechta. Shuni ham aytish kerakki, bu mavzuiy guruhga kiruvchi birliklar qadimdayoq paydo bo‘lgan va hozirgi kungacha shakllanib kelgan. Shaxsni ifodalovchi birliklarga quyidagilarni misol qilib keltirishimiz mumkin: *shogird, usta, katta usta, ustakalon, ustazoda, yordamchi usta, xalfa, kulol, oqsoqol. kosagar, tandirchi,*

ko'zagar, koshinchi, xumdonchi, chegachi, o'ymakor, rassom. Rasmchi, naqqosh, chizmakash, charxchi, xumdonchi, kulol, dastgohsoz, gilkor, bo'yoqchi kabilar.

2. Kulolchilik buyumlari nomlari. Kulolchilik terminlarining, shubhasiz, katta qismini sopol buyumlari nomidan iboratdir. Ularga: *sopol, piyola, kosa, nimkosa, kosacha, shokasa, choynak, ko'za, ko'zacha, tovoq, charx tovoq, miyona tovoq, chuqur tovoq ma'rakat tovoq, langari tovoq, nim tovoq, to'y tovoq, xarchagi tovoq, bosh tovoq, katta tovoq, la'li tovoq, ta'ziya tovoq, lagan, katta lagan, o'rta lagan, kichik lagan, to'y lagan, ta'ziya lagan, ma'raka lagan, tandir, xurmacha, xum, obdasta, bodiya, chanoq bodiya, ko'kanak, chapiya, tarkash, qulqulcha, koshin, o'yinchoq, hushtak, qo'chqorchcha, ang, kub, ayoq, oshich, yom, keramika, mo'ndi, olma / alma / ulma, ko'rka / ko'rga, balbala va boshqalar.* Bu buyumlar qanday mahsulot solishga mo'ljallangani, shaklidagi farqlar va boshqa belgilari asosida alohida nomlangani kuzatiladi. Shuning uchun bu mavzuiy guruhgaga kiruvchi birliklarni yana kichik guruhlarga ajratib o'rganish mumkin:

1) Suv va sut mahsulotlari uchun foydalilaniladigan ko'za nomlari: *qo'shqulqcha (Toshkent), xurmacha (Toshkent), ko'kanak (Rishton), chapiya (Rishton), suv ko'za (Rishton), balbala.*

2) Tovoq turlari nomlari: *charx tovoq (Rishton), tovoqi langari (Samarqand), naqshin tovoq (G'ijduvon), la'li tovoq (Samarqand), chuqur tovoq (Rishton), miyona tovoq (G'ijduvon), miyona tovoq, chuqur tovoq, ma'raka tovoq, langari tovoq, to'y tovoq, nim tovoq, xarchagi tovoq, bosh tovoq, la'li tovoq, lagan, katta lagan, o'rta lagan, kichik lagan, to'y lagan, ma'raka lagan* kabi.

3) Kosa va lagan turlari nomlari: *do'g'obi kosa (Samarqand), qaymoq kosa (Rishton), labigardon kosa (G'ijduvon), dukki kosa (G'ijduvon), yumaloq (Rishton), naqshin kosa (Rishton),*

tarkash (Rishton), kosa (Rishton), nimkosa, shokosa, miyona kosa, yumaloq, mashadi kosa, shokosa, qatiq kosa, don kosa, suv kosa, sharbat kosa, nisholdo kosa, shinni kosa, sopol kosa, naqshin kosa, lagan, katta lagan, o‘rta lagan, kichik lagan, ta’ziya lagan, ma’raka lagan va boshqalar.

4) Ko‘za, xum, tuvak va boshqa buyum nomlari: *qulqulcha (Samarqand), qatiq ko‘za (Samarqand), obdasta karshagi (Qarshi), suv ko‘za, yog‘ ko‘za, xum, xumcha, chapiya, ho‘qacha, tuvak, gultuvak, oftoba, piyola, ayoq, nog‘ora, moy ko‘za, yog‘ ko‘za, chorog‘i, chortagi, katta ko‘za, qulqulcha, quloba, quvocha, ponsari ko‘zacha, chuvati ko‘za, suzma ko‘za, xurma, xurmacha, katta xurma, qo‘kanak, non xurma, mashrafa, qo‘shqulqocha kabilar.*

5) Bodiya nomlari: *bodiya, chanoq bodiya, mashadi bodiya.*

6) Tog‘ora nomlari. Xamir qilinadigan tog‘ora nomlari: xamir tog‘ora, uchtalik tog‘ora (G‘ijduvon), miyona tog‘ora (G‘ijduvon), nim tog‘ora (Samarqand), tog‘oracha (Kattaqo‘rg‘on); kir yuvishda ishlatiladigan tog‘ora: kir tog‘ora; qopqoq yoki palov damlashda ishlatiladigan tog‘ora: tog‘oracha, damgir tog‘oracha, miyona tog‘ora, tulum tog‘ora, nim tog‘ora.¹

3. Kulolchilikda qo‘llaniladigan tuproq va boshqa xomashyo nomlari. Tuproq va loy turlari nomi: *sof tuproq/sog‘ tuproq, qora tuproq, ko‘kimitir tuproq, qizil loy tuproq, guldon loy, chinni loy, koshin loy, kosagar loy, ko‘zagar loy, tuproq, sho‘rto‘proq/sho‘rxok, ohak, ohaki oqsil, lo‘mboz, loyqa, loy, kesak, guvalak, gil, gilmoya, gilvata, bo‘tana.* Kulolchilikda asosiy xom ashyo tuproq sanaladi. Bundan tashqari *gil, oqtosh, oq qum, oq tosh* singari materiallar ham xomashyo sifatida ishlatiladi. Kulolchilikda ishlatiladigan loy o‘zining xususiyati va ishlatiladigan buyumiga qarab bir necha nomlar bilan ataladi: *loyi guldon, chinni loy, oq loy, koshin loy, kesma koshin loy, jusha loyi, pat loy, tovoq loy, shirachli loy, sershira loy, kosagar loy, ko‘zagar loy plastik*

¹ Raximov. M.K. “Художественная керамика Узбекистана”. – Toshkent. 1951, 16- bet

loy, yog'li loy, plastik yog'li loy singari. Quyida ularning ayrimlariga izoh keltiramiz.

Loyi guldon - Sershiralı loy, bu loydan juda nozik guldonlar yasalgan. U elastik xususiyatga ega bo‘lib, jusha loyi qo‘shilgan bo‘ladi.

Chinni loy yoki oq loy – yarimfayans bo‘lib, qoramtiloy oqtosh va ishqor qo‘shilib tayyorlanadi.

Kesma koshin loy – o‘tga chidamli qoramtiloydan, ya’ni gilvataga oq tosh yoki oq qum qo‘shib tayyorlanadi. Undan har xil mozaikli koshinlar tayyorlanadi.

Koshin loy – shirachli loyga kivars qumi qo‘shib undan har xil koshinlar tayyorlanadi.

Kosagar loy – patloy yoki tovoq loy deb ham yuritiladi. Bu loy sog‘ tuproqqa qamish qog‘ozini aralashtirib tayyorlanadi. Undan yassi yuzali idishlar tayyorlanadi.

Ko`zagar loy – ko‘p miqdorda plastik yog‘li loy va oz miqdorda sog‘ tuproqdan qilingan loy. Undan xum, guldon, ko‘za va boshqalar tayyorlanadi.¹

4. Kulolchilik mahsulotlariga ishlatilgan bezak, naqsh va gul nomlari. Kulolchilik leksikasida bu tematik guruhga kiruvchi nomlar juda ko‘p. Har bir kulol o‘z mahsulotini go‘zal bo‘lishi uchun harakat qilgan. Bundan tashqari, buyumlarning sirti, ichi, chetida ishlangan shakllar, bezak va naqshlar alohida nomlarga ega. Demak ushbu mavzuiy guruhni bir nechta kichik guruhlarga bo‘lib o‘rganish mumkin. Shuni ham aytish kerakki, o‘zbek va tojiklar yonma yon yashaydigan hudud aholisi nutqida ikki tilli birliklar qo‘llanishda ekanini kuzatish mumkin. Quyida ana shu guruhga kiruvchi so‘z va birikmalarni keltiramiz.

1) Sopol idishlar chetiga ishlanadigan ingichka yo‘l ichidagi naqsh turi nomlari: *dandana, halqa zanjira, narvon, chashmi bulbul, oba, tumorcha, jiydagul, bandi rumi, parpashsha (yoki patpashsha), moragi duqator, nohoti halqa, taroqi xarroj, madoxili islumi, chorxonai terma, chapu rost, o‘ngu chap, qo‘r chorxona, qo‘r sambusagi, parra xarroj, bargi tumorcha, tumorcha*

¹ Bulatov S. O‘zbek xalq amaliy bezak san’ati.- Toshkent. “Mehnat” 1991, 290-bet

barg, tumor zanjira, g'isht zanjira, moragi naxo 'd, g'o 'zanagi terma, zanjirai nim davra.

2) Sodda elementlar va geometrik naqsh elementlarini atovchi nomlar: *xat, qo 'shxat, sexat, uch xat, chorxat, to 'rt xat. xatti kesma, kesma xat, xatti naxo 'di zulma, uch ilon izi, se ilon izi, qo 'sh ilon izi, ilon izi, egri xat, ikki egri xat, du egri xat, se egri xat, bir tortar, xarsang tosh, kamar, jibilajibon, chumchuqqanot, rohi zanjira, chetan, tumorcha zanjira, dandana, tagi hoshiya, xatti jingalak, jingalak xat, qarg 'atirnoq, tumoryo 'l, tumori roh, guli mug 'ilon, qo 'shtirnoq, sambit bargi, bargi sambit, zulma zanjira, qanot zanjira, kariz zanjira, zuluk zanjira, bo 'ston naqshi, naqshi bo 'stoni.*

3) Ingichka va yirik yo'l ichidagi naqsh turi nomlari: *dandana, oshiq zanjira, yaktarafa zanjira, zanjirai raftor, jingalak zanjira, pechalak, madohilcha, obi rahmat, zanjirai chashma, g'alvirak hoshiya, tikanak, chetan bo 'yrugi zanjira, tumorcha nuxat, noxoti tumorcha, vov zanjira, zanjirai vov, gilosbarg, halqa zanjira, havzagi zanjira, egar zanjira.*

4) Bosma naqsh turi nomlari: *noxot (nuxat), chashma, bosmanoxot, pistagul, davra noxot, parparak, bosma parparak, charxpalak, davra zulma, davra, naqshi sitora, parrak bosma, yulduzbosma, tolbarg, panjagi bosma, zarpoya, g'o 'zanagi terma, bodom, qanoti murg', naqshi shamdon, naqshi girdobi.*

5) Buyumlarning o'rta va chet qismiga ishlanadigan yo'l ichidagi naqsh turi nomlari: *xatti mehrobi, rayhon bargi, bargi rayhon, koptok zanjira, kulcha zanjira, gandum zanjira, dolchin bargi, bargi dolchin, ko 'hiqof, noxoti xonagi, nokbarg, qovoqbarg, sebi hoshiya, jingalak zanjira, xapalak, qushqanot, ilmoq zanjira, tumorcha xonagi, otosharava, g 'ildirak zanjira.*

6) Kosa va likopchalarining markaziga ishlanadigan naqsh elementlari nomlari: *jingala, qalampirgul, nokgul, bargi gulnor, behi guli, guli behi, bargi tug', madoxili sodda, naqshi humoyun, pinis*

naqshi. naqshi ponis, guli madoxil, olu guli. guli olubolu, binafshagul, guli binafsha, parpashsha, munchoqgul, doira, charxi parrak.

7) Buyumlarning o‘rta va yaxlit qismiga ishlanadigan naqsh elementlari nomlari: *pistagul, bargi mustai, guli talxa, qafasi bedana, bargi islimi rixak, guli akvoxun, gajakgul, guli gajak, qovoqgul, bargi chingalaki xudus, guli mujgon, uzum guli, guli angur, guli azhar, daraxti xurmo, naqshi morob, guli rumi, guli anor, anorgul, binafsha gul, guli binafsha, guli tupsar.*

8) Buyumlarning o‘rta va yaxlit qismiga ishlanadigan yo‘l ichidagi naqsh turi nomlari: *bargi zanjira, zanjirai taroq, islimi hoshiya, tosh taroq, taroqi sang, ishkomi hoshiya, mehrobi oba, qo‘chqaroq zanjira, anjirgul, chashmi ushtur, islimi taroq, naqshi halila, bodring zanjirasi, zanjirai bodiring, tarvuz zanjirasi. zanjirai tarbuz, kapalak zanjira, mehrobi qalam, zanjirai islimi chor yaproq, zanjira islimi olxo ‘ri, islimi pechakgul, islimi baizai anqo.*

9) Buyumlarning o‘rta chuqur qismiga ishlanadigan naqsh elementlari nomlari: *du gajagi marg‘ula, gajakbarg, tug‘barg, bargi kobuzbon, zanjobil bargi, bargi zanjabil, nayzabarg, bargi nayza, bargi shijora, bargi madohil, bargi mushki anbar, chorbarg, gandumgul, gajak barg, bargi gajak, choybarg, rishtai pisorig‘, behi sarun, naqshi xashhosh, behi daraxti poyox.*

10) Kompozitsiyalarda qo‘llanadigan o‘simliksimon naqsh elementlari nomlari: *guli bodomi ninachi, bodomgul, islimi qalampir, tarvuz guli, guli tarbuz, nok guli, guli nok, pistagul, islimi ansur, norij guli, guli norinj, sodda gul, qirq og‘ayni, karnaygul, qiyog o‘t, guli chong‘ora, lolagul, buragul, g‘unchagul, guli zarvaraq, oddiy gul, guli odmi, gulxayri, o‘sma gul, guli o‘sma, guli ansur, g‘o‘za gul, naqshi obi.*

11) Kompozitsiyalarda qo‘llanadigan boshqa naqsh elementlari nomlari: *qo‘chqaroq, islimi zuluk, chor chashm, qo‘sh bargi bodomi shijor, baliq dumi, dumi baliq, tovus qanoti, qanoti tovus,*

o'rdak qanoti, qanoti o'rdak, kaptar dumi, dumi kabutar, tovus qanoti, qanoti tovus, kapalak qanoti, qanoti kapalak, qush dumi, dumi murg', xo'roz dumi, dumi xo'roz, burgut dumi, dumi burgut, boyqush qanoti, qanoti boyqush, oltin qo'ng'iz.

12) Buyumlarning o'rta qismini bezashda ishlatiladigan naqsh turi nomlari: *chinnimuhr, shamdoni xashtagi, yalpizgul, oftobi, pirpirak, to pmunchoq, girdobi parra, palakgul, shabaki, chig'iriq, davrai xurshid, hashti havzagi, chormag'iz, qo'y tuyog'i, tuyog'i gusfand, qora ilon, mori siyoh, xatti islimi, ho'kiz shoxi, shoxi gov, naqshi kojkord, ho'kiz ko'zi, chashmi gov, qanoti qushi movi, qush ko'zi.*

5. Kulolchilikda ishlatiladigan buyoq va rang nomlari: *oq rang, yashil rang, moviy rang, sariq rang, havo rang* kabilar. Kulolchilikka xos bo'yoqlar tayyorlash o'ziga xos texnologiyaga ega bo'lib, ularni tayyorlash usullarini qisqacha izohlaymiz.

Oq rang oq tuproq, gilvata va oz miqdorda oq toshning mayda qumi qo'shib tayyorlanadigan rang.

Yashil rang mis kuyundisi, ya'ni kukuniga qo'rg'oshin, sir va o'tga chidamli tuproq, ya'ni gilvata qo'shib tayyorlanadigan rang.

Sariq rang gilvata, marganets oksidi, lazur va qo'rg'oshin sirlari qo'shib tayyorlanadigan rang.

Havo rang lojuvard, oq tosh yoki oq qum va gilvata qo'shib tayyorlanadigan rang.

6. Kulolchilikda bajariladigan an'ana va urf-odat nomlari: *bo'y, mo'yqalam tutqazish, suv ichirish, uy bezatish, oq yo'l, fotiha, arvoxi pir, kamar basta, qurbanlik o'tkazish, xudoyi qilish, is chiqarish kabilar.*

7. Kulolchilik asboblari nomlari: *mola, katta mola, kichkina mola, labgir, sim, naqshin qolip, lagan qolip, g'ujmak, tappa, tagi qalam,*

taroq, kojkord, pargar, charx, mo'yqalam, chega, miqroz (qaychi), kovlagich, otashkurak, dastgoh, bo'yagich, andoza, bolg'a, sim, labgir, pargar qalam, g'ujmak, tappa..

8. Kulolchilik uyushmasining tarkibiy tuzulmasi nomlari: *bobo, usta bobo, oqsoqollar kengashi, oqsoqol, poykor, xalfa-usta, ustakor, usta, shogird.*

Bobo – hunurmandchilik uyushmasi rahbari sanalgan. U ustaxona kengashiga boshchilik qilgan, shogirdlarning ustachilikka bag'ishlangan barcha tadbirlarga bosh-qosh bo'lgan. *Bobo* ixtiyorida usta oqsoqollar kengashi faoliyat ko'rsatgan. Kengash a'zolari shogirdga mustaqil faoliyat ko'rsatish uchun beriladigan ijozat tadbirlarida qatnashganlar, ustaxonaning umumiy ishlarida ishtirok etganlar va zarur bo'lgan hollarda jiddiy muammolarni hal qilish uchun taklif qilganlar.

Yirik ustaxonalarda usta boboning yordamchilari oqsoqol va poykorlar deb atalgan. Oqsoqol keksalar orasidan saylangan. U bozorni idora qilgan, soliq yig'ishda qatnashgan, mahsulot sifatini nazorat qilgan, mahsulotning barqaror bahosini aniqlagan. Uning ishtirokida ustalarning buyurtmachi bilan shartnomalari tuzilgan.

Paykorlarni esa *usta bobo* e'tiqodli yoshlar orasidan saylangan. Ular dastyorlik vazifasini, ya'ni ular yollangan hunarmandlarni kerak bo'lган ustaxonalarga olib borish, ustalarga buyurtmalar qidirib topish va shu kabi ishlarni bajarishgan.

O'rta Osiyoning ba'zi bir shaharlarida ustaxona jamoasida oqsoqol va paykorlarga nisbatan mavqeい nisbatan pastroq bo'lган shaxslar xalfa-usta deb atilib, ular o'z ishlab chiqarish vositalariga ega bo'lмаган. Usta unvonini olishga bag'ishlangan marosimdan o'tgan shogird xalfa bo'la olgan. Chizmadan ko'rinib turibdiki, eng pastki o'rinda shogird va ustazodalar joy olgan. Shogird atamasi kulolning qarindoshi sanalmagan shaxslarning farzandiga nisbatan qo'llanilgan bo'lsa, ustanning o'z farzandlariga nisbatan esa ustazoda atamasi ishlatilgan.

9. Kulollar piri va homiysi nomlari. Qadimgi e’tiqodlarga ko‘ra har bir hunarning homiysi – piri bor deb tushunilgan. Hunarmandlar o‘z homiyulari - pirlariga sig‘inganlar. Uning nomiga duo o‘qitganlar. Bu odat hozirda ham saqlanib qolgan. Masalan, temirchilik xunarining, cho‘yan quyuvchilarning homiysi va himoyachisi Dovud payg‘ambar bo‘lgan, ammo uni ganchkorlar, novvoylar ham ezozlashgan. Igna bilan ishlovchi barcha hunarmandlarning (tikuvchi, etikdo‘z, zardo‘z va shu kabilar) homiysi Boboi Parado‘z, kullolarning homiysi esa Buxoro shayxlari Saidi Amir Kulol (yoki Kalon) va Bahovuddin Naqshbandiy hisoblangan. Rivoyatlarga qara-ganda kulolchilik hunari Odam Atodan Said Amir Kulolga, undan esa Bahovuddin Naqshbandiy orqali barcha kulollarga o‘tgan. Bahovuddin Naqshbandiy ayniqsa, naqshlangan buyumlar ishlab chiqaruvchi ustalar tomonidan e’zozlangan. Ular buyumlarga naqsh solish Bahovuddindan qolganligi tufayli uni naqshbandiy, ya’ni tojikcha naqsh – rasm, bezak va band – bog‘lamoq (chizmoq) ma’nodan kelib chiqqan holda pir sifatida bilganlar.

10. Kulolchilik buyumlarini tayyorlash jarayonida bajariladigan xatti harakat va holat nomlari. Kulolchilikda ustalar loyni har xil texnologiya asosida tayyorlaydilar. Bu jarayon bilan bog‘liq tushunchalar, xatti-harakatlar nomlari mavjud bo‘lib, ularni alohida mavzuiy guruhga birlashtirish mumkin: *elamoq, qorimoq, loy tayyorlamoq, tepmoq, mushtlamoq, pishitmoq, nam sholcha bilan o‘ramoq, quritmoq, xumdonga solmoq, olovda pishirmoq, sovutmoq, ishlov bermoq, gul solmoq, shakl bermoq, sirlamoq* va boshqalar.

11. Kulolchilik charxi va uning qismlari nomi: *charx, g‘ildirak, kichik g‘ildirak, katta g‘ildirak, o‘q, yog‘och o‘q.*

12. Kulollarga beriladigan ish haqi nomlari. Avvalom bor shogird yugurdaklik qilgan, hovli va ustaxonani tozaligini saqlash, yarim mahsulotlar tayyorlash va shu kabi yumushlarni bajargan, faqat 2-3 yilgi qora ishdan so‘ng usta mustaqil ravishda bajarish uchun unga biror bir ish qilishga

ruxsat bergen. Kulolchilikda shogirdlikning birinchi yillarida bolalar ustadan ovqat va kiyim-bosh, ba’zi paytlarda bir yoki ikkita posra deb ataluvchi tayyor mahsulot olganlar, ularni sotib, o‘z ehtiyojlari uchun ishlatganlar. Agar usta shogirdga posra emas pul bersa, bu pul choy puli, osh puli deb atalgan. Shogird ustaga sezilarli darajada yordam ko‘rsata boshlaganida, usta har bir kulolchilik pechidan chiqqan mahsulotlardan ularga sovg‘a sifatida bir yoki ikki buyumni bergen. Shu bilan birga, o‘spirin o‘lg‘aygan sari va uning ustaxonadagi o‘rni sezilarli bo‘lib qolganda, ustaxona egasi unga tez-tez va katta miqdorda posra bera boshlagan.

Shogird usta maqomiga erishgach, arvohi pir o‘tkazgan. Ya’ni qo‘y so‘yib, ziyofat bergen, ustozlariga *to ‘n, sarpo, kiyim-bosh* kiydirgan.

13. Kulolchilikda ishlatiladigan modda-ma’dan nomlari: *gilvata, kvars, malg‘ash, ishqor, oq tosh, oq qum, qil, jun kabi.*

14. Kulollar ishlaydigan joy (bino) nomlari: *do‘kon, do‘konxona, ustoxona, pirkona, otashxona, otashdon, olovdon, o‘txona, ko‘mirxona, bo‘yoqxona.*

15. Sopol o‘yinchoq nomlari: *hushtak, xushpalak* (G‘ijduvon va Rishton), *churchurak* (Shahrisabz), *xushtak* (Samarqand, Kattaqo‘rg‘on va Toshkent), *shivalak* (Xorazm) kabilar.

Shuni aytish kerakki, XV asr manbalarida ham kulolchilikka oid ko‘plab terminlar uchraydi. Masalan, buyuk o‘zbek shoiri Alisher Navoiy asarlarining IV tomlik izohli lug‘atida bir qancha kulolchilik terminologiyasiga oid terminlarni uchratish mumkin. Lug‘at materiallari asosida soha terminlarini quyidagicha tematik guruhlarga ajratish, ya’ni tasniflash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

1. Lug‘atda kulolchilik sohasida ishlatiladigan quyidagi modda-madan nomlari izohlangan: *qir (mum), xok, xoki, xokiy, tufroq/tufrog‘ (tuproq), xora (tosh), tiyra tufroq/tiyra xok (qora tuproq), sang (tosh), sang pora (tosh parchasi), sadaf, sadafpora/sadafreza (oqtosh bo‘laklari), loy, gil, lavn*

(ranglar), *ko‘mur, qah/qoh (somon)*, *kahgil (somonli loy)*, *gaj (ganch)*, *xisht (g‘isht) kabi*.

2. Sohada ishlatiladigan asbob-anjom nomlari: *burron (keskir), barg (bezak asbob), ashyo, afzor (ish quroq), asbob, andoza, anbur (ombir), do‘lob (charx), kusav (cho‘g‘ kovlagich), sangbur (toshkesar)* kabi atamalarni ko‘rish mumkin.

3. Sopol buyumlarini pishirishda ishlatiladigan pech nomlari: *otashxonan, otashkada, otashgoh, dosh, doshxona, xishtxona, nigorxona, nigoriston*.

4. Faoliyat-jarayon anglatuvchi nomlar: *qizar, qizart, qizit, xuzob (bo‘yash), xom (pishmagan), xishtmolik (g‘isht, loy qo‘yish), teshavarlik, teshil, tzayin, tazhib, suva, suval, soti (yarqirovchi, yarqiratmoq), sarg‘art, sayqal, andozalig‘ (qolipli), rangrezlik (bo‘yoqchilik), korparodozlik, peshavarlik (kosiblik), otashdonlig‘ (yondirish), nigorish (rasm tushirish), naqqoshlik, naqshbandliq / naqshbandlig‘ (naqshli, naqsh tushirish), naqshin, munaqqash (naqshli), menokorlig / miynokorlig (naqsh solish), kosagarlik, zarkorlig, doshgarlik, gajkorliq / gajkorlig‘ (ganchlamoq), bila (charxlamoq), volash (loyni ochib-yorib tozalash), gavak (qurilgan tandirning yuzida paydo bo‘lgan yoriq teshiklar), tarash (loyni tozalash), zulma ochish, qabza ochish.¹*

5. Kasb-hunar egalarini ifodalovchi terminlar: *hunarvar, hunarkor, hunarmand, kosagar, herfavar (kosib), xorabur (tosh kesuvchi), xorakov (tosh qazuvchi), xorapardozi (toshga pardozi beruvchi), xorapaymoy (tog‘-toshlarni qazuvchi), xoravez (tosh maydalovchi), teshavar (yunuvchi), suratgar (sur‘at soluvchi), sohibhunar (hunarmand), san‘atgar, san‘atfosh, san‘atsozi (san‘atkor), sanno (hunarmand), sayqaldo‘z, sabbog‘ (bo‘yoqchi), rangomez (naqqosh), peshakor, peshavar (ustakor), otashangez, otashangezlig‘ (o‘t yoquvchi), novakash (suvoqchi), nigoranda, musavvir, naqqosh, naqshpardozi, naqshsozi, naqshband (naqqosh), kosibzarkor, dastkor, banno (usta) kabi.*

6. Sopol idish nomlari: *ang (sopol), qalamdon, qadah, shamdon, cho‘chak (safol, obdasta), xum, xokdon, xazaf (sopol), toba (tova), tanur (tandir), tabaq*

¹ Mualliflar jamoasi. ”O‘zbek tili leksikologiyasi” – Toshkent. ”Fan” nashriyoti 1981, 33-bet.

(*idish, lagan*), *surmadon, sanam* (*but, haykalcha*), *saloya* (*yorg ‘ichoq*), *sabuh* (*may qadah*), *sabu* (*ko ‘zacha*), *ratl* (*qadah idish*), *piyola, paymona(qadah)*, *oftoba, chovgun, kurga* (*may idish*), *ko ‘za, kub/kup* (*xum, katta sopol qadahlar solib qo ‘yiladigan idish*), *kos/ka’s, kosa, qayl* (*g‘alla o ‘lchaydigan idish*), *idish, ibrik* (*suv soladigan idish*), *jomachoq* (*ko ‘zacha*), *bo ‘ta* (*idish*), *bulbula, balbala* (*may ko ‘za*), *avoni* (*idish*), *tuvoq, batqaldoq, gavdo ‘sha, do ‘g ‘ob, xo ‘qacha, daska kabi*.¹

7. Naqsh nomlari: *shamt, shamsa, nuquush* (*naqsh*), *zarkash, bisyormaqsh, suvar* (*rasmli*), *tirozlig ‘(naqshli)* kabi.

8. Kulolchilik buyularida qo‘llaniladigan rang nomlari: *abrash* (*oq-qizil rang*), *ablaq* (*oq-qora rang*), *axmar, axmariy* (*qizil*), *axzar* (*ko ‘k*), *arg ‘uvoniy, arg ‘uvongun* (*qizil*), *ola-bula, azraq* (*ko ‘k*), *nuqrafom* (*kumushrang*), *la ’lgun, la ’ligun* (*qizil*), *ko ‘k, zok* (*qora*), *zafaroniy, zangor, zangori, zangorgun, gulgun, bayoz* (*oq*), *bayoziy* (*oqish*), *hamrang, qirmiz, qiyrgun, qiyrpayvand* (*qora rang tusli*), *qizil, yashil, shangarf* (*qizil*), *shangarfgun* (*qizg‘ish*), *shabgun, shabahrang, shabahgun* (*qora*), *xokistariy* (*kulrang*), *xazro* (*ko ‘k*), *xazrorang* (*yashil*), *firuzafom, firuxarang, firuzagun* (*havorang*), *surmagey, surmagun* (*surmarang qora*), *simobiy, siymgun* (*kumushrang*), *siyoh, siyohiy, safid* (*oq*), *sarg‘ar, sariq, sap-sariq, sadafgun, sandalgun, moviy, meno, menu, miyno, muynu* (*ko ‘k*), *savsaniy, savod* (*qora*), *sabz, sabzaliq, sabzorang* (*yashil*), *oq, otashrang, otashin, otashnok* (*olov rang*), *ol* (*qizil*), *obgun* (*ko ‘kimitir*) kabi.

16. Kulolchilik terminlari asosida yaralgan toponomilar. Bizga ma’lumki. O‘zbek xalqi azaldan hunarmand xalq sanaladi. Ayniqsa, hunarmand-chilik – shahar aholisining asosiy mashg‘uloti, yashash manbai sanalgan. Yirik qishloqlarda, shaharlarning tevaraklaridagi aholi yashash maskanlarida hunarmandchilik taraqqiy etgan. Ayrim qisholoqlar, mahallalar, ovullar, guzarlar ma’lum bir hunar, kosiblik turi bilan mashhur bo‘lishgan. Hunar egalarining yashagan hududi, mahallasi, guzari, qishlog‘i ularning kasb-kori nomi bilan atalgan. Shu tariqa hasb-hunarga oid apellyatik leksika atoqli otga, ya’ni

¹ Mualliflar jamoasi. O‘zbek tili leksikologiyasi. – Toshkent. ”Fan” nashriyoti 1981, 18,33-betlar

onomastikaga ko‘chgan. Tilshunoslikning onomastika sohasida bunday ko‘chish, boshqa so‘z turkumiga oid so‘zlar, birinchi galda turdosh otlarning atoqli otga o‘tishi nomlashuv asosida yasalish deb qaraladi.

Respublikamiz hududida yana shunday yasalish orqali nomlangan toponimlar juda ko‘p. Bu xususda taniqli toponimist olim To‘ra Nafasov o‘zining bir qator tadqiqotlarida fikr yuritgan. Olimning bir maqolasida ko‘rsatilishicha, Ko‘kchi/Ko‘kcha nomi bo‘yoqchilar kasbini ifoda etuvchi ko‘kchi so‘zidan yasalgan. Ushbu maqolada Alachobof (Koson), Galabaytal (Yakkabog‘), So‘zangaron (Samarqand va Buxoro), Bo‘yrachi, Bo‘yrabof, Bo‘yrapo‘sht (Qumqo‘rg‘on, Shahrisabz, Sariosiyo), Hullabof, Etikchi, Kosa-garon, Ayoqchi singari qishloq, ovul, mahalla va guzar nomlari bevosita kasb-hunar bilan bog‘liqligi qayd etiladi.¹ Zargar, Zargaron, Degrez, Degrezi, Charxchi, Charmgar, Kulol, Kulolon kabi mahallalar respublikamizning Toshkent, Samarqand, Qarshi, Qo‘qon, Marg‘ilon, Xiva, Termiz, Karmana kabi shaharlarida mavjudligi xususida yuqoridagi maqolada ma’lumot beriladi.

Professor T. Nafasov respublikamizda kasb-hunar, kosiblik nomlari asosida yasalgan toponimlarning eng muhimlarini 41 ta tematik guruhga bo‘lib o‘rgangan. Ushbu guruhlар тarkibida bevosita kulolchilik kasbiga aloqador toponimlar 3 ta tematik guruhga bo‘lib berilganini ko‘ramiz. Ular quyidagilar:

1. Kulollik kasbi asosida yasalgan toponimlar: Kulol, Kuloli, Kulolchi, Kulolchilik, Kulolon, Kuloltepa, Kulolariq, Kuloltuproq, Kulolqo‘rg‘on.
2. Kosa, tovoq yashash hunari asosida yasalgan toponimlar: Kosagar, Kosagaron, Kosagari, Kosatarosh, Kosagarlik, Ayoqchi.
3. G‘isht pishirish, sopol idishlar tayyorlash kasbi asosida yasalgan toponimlar: Xumdon, Xumdonak, Qumqishloq, Qumqo‘rg‘on (xum so‘zining o‘zgargani qum), Sarixumdon.²

¹ Nafasov T. O‘zbek hunarmandchiligi va o‘zbek toponimiysi // Nafasov T., Tursunov Sh. Qarshi shahri mahalla va ko‘cha nomlari. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. -16-bet.

² Nafasov T. O‘zbek hunarmandchiligi va o‘zbek toponimiysi // Nafasov T., Tursunov Sh. Qarshi shahri mahalla va ko‘cha nomlari. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. -17-18-betlar.

T. Nafasov va Sh. Tursunovlarning “Qarshi shahri mahalla va ko‘cha nomlari” kitobida aynan shahrimizda kulolchilik kasbi bilan bog‘liq bir qator toponimlar berilgan. Quyida ana shu xususda qisqacha to‘xtalamiz.

Qarshi shahrining Eskishahar qismida sobiq Pushkin mahallasi nomi istiqloldan so‘ng Kulol deya o‘zgartirilgan. Mualliflar ma’lumotiga ko‘ra bu mahallada qadimdan kulolchilik kasbi bilan shug‘ullangan aholi yashab keladi¹.

Xumdon – kulollar loydan yasagan idishlar yoki g‘isht pishiriladigan ulkan o‘yma o‘choq. Viloyat ko‘z kasalliklari shofoxonasi va Qumqishloq ko‘-chasi atrofida qadimda xumdonlar bo‘lgan, bu yerda g‘isht pishirilgan. Hunarmandchilikning kulolchilik turi hozirgi Kulol mahallasi hududida rivoj topgan, aholi zich yashaydigan joylarda kulollar yashagan va ishlagan. Xumdonlar esa shahar chetida bo‘lgan.²

Qarshi shahrining Sobir Rahimov mahallasidagi joy nomi Shaytonxumdon deb ataladi. Kitob mualliflarining bergan ma’lumotlariga ko‘ra bu nomdan tashqari Shaytonqishloq, Shaytonariq, Shaytonmozor, Shaytontepa singari joy nomlari turli hududlarda uchraydi. Shaytonxumdon toponimining birinchi morfemasi shayton so‘zi shohidon so‘zining o‘zgargan shakli, deya izohlanadi kitobda. Mualliflarning ma’lumotiga ko‘ra bir yoki bir necha odam shahid qilingan, ya’ni o‘ldirilgan joydagi xumdon – Shaytonxumdon deyilgan.³

To‘ra Nafasov, Shuhrat Tursunovlarning yozishicha, Qumzor (mahalla), Qumravot (mahalal), Qumqishloq (qishloq), Qumqo‘rg‘on (ko‘cha) toponimlari ham kulolchilik kasbi bilan bevosita bog‘liqdir. Yuqoridagi toponimlarning birinchi komponenti qum aslida xum so‘zining o‘zgargan shakli⁴. Shunday qaraladigan bo‘lsa, Qumzor – Xumzor, ya’ni xum yasaladigan joy, Qumravot – Xumravot, ya’ni g‘isht pishiriladigan joydagi ravot (qal’a), Qumqishloq – Xumqishloq, ya’ni sopol buyumlari tayyorlanadigan qishloq, Qumqo‘rg‘on –

¹ Nafasov T., Tursunov Sh. Qarshi shahri mahalla va ko‘cha nomlari. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. -56-bet.

² Nafasov T., Tursunov Sh. Qarshi shahri mahalla va ko‘cha nomlari. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. -99-100-betlar.

³ Nafasov T., Tursunov Sh. Qarshi shahri mahalla va ko‘cha nomlari. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. -111-bet.

⁴ Nafasov T., Tursunov Sh. Qarshi shahri mahalla va ko‘cha nomlari. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. -127-128-betlar.

Xumqo‘rg‘on, ya’ni xumdonlar mavjud bo‘lgan hududagi qo‘rg‘on ma’nolari ifoda etadi.

BOB BO‘YICHA QISQA XULOSA

1. Badiiy kulolchilik sharqning eng qadimiy va navqiron san’atlardan biridir. O‘lkamizda amalga oshirilgan arxeologik ishlar, tarixiy yozma manbalarda keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra neolit va enolit davridayoq kulolchilik paydo bo‘lgan san’at sifatida rivojlangan. VII-XII asrlarda O‘rta Osiyoda bu san’at keng taraqqiy etgan. XIV asrda Sohibqiron bobomiz Amir Temur madaniy obidalar qurdirar ekan, shubhasiz, kulollarning xizmatiga murojaat etadi. O‘lkada kulolchilikni san’at darajasiga ko‘targan hunarmandlar avlodi yetishib chiqadi.

2. Inson o‘zining ovqatlanishga bo‘lgan ehtiyojini qondirishda maxsus buyumlardan foydalangan. Bu ehtiyojni o‘tovchi buyumlar majmuining umumiyy nomi o‘zbek tilida kosa-tovoq juft so‘zi bilan ifodalanadi. O‘zbek tilida bu so‘z umumiyligini bildirib, uning tarkibiga bir qator til birliklari birlashadi. Shunday ekan kulolchilik leksikasi tizimiga kiruvchi birliklarini mavzuiy jihatdan tasnif etish, shu asosda sohaga oid so‘z va boshqa birliklarni kompleks o‘rganish imkoniyati mavjud.

3. Har bir xalqning iqtisodiy va madaniy hayotida yuz bergan yangiliklar, yaratilgan moddiy ne’matlarni ifodalovchi so‘zlar, birinchi navbatda, o‘sha xalq tilining ichki imkoniyatlaridan foydalanib tuziladi va ular o‘sha til lug‘at fondini tashkil etadi. O‘zbek xalqining idish-tovoq buyumlariga ehtiyojini o‘tovchi kulolchilik mahsulotlari va bu mahsulotlarni tayyorlash jarayonida qo‘llaniladigan leksik birliklarning ma’lum qismini turkiy (o‘zbekcha) so‘zlar tashkil etadi. Bundan tashqari o‘zbek tilining o‘z imkoniyatlari, ya’ni shevadan so‘z olish yoki turli usullar bilan yangi so‘z yasash orqali ham soha leksikasi boyib bormoqda.

4. Lingvistik adabiyotlarda so‘z va atamalarning qaysi til birligi ekanligiga ko‘ra sohaga oid etimologik qatlam quyidagicha tasnif etiladi va bu kulolchilik leksikasi uchun ham xos xususiyat sanaladi: 1.O‘z qatlamga kiruvchi leksik birliklar. 2.O‘zlashma qatlamga kiruvchi leksik birliklar.

IKKINCHI BOB. O'ZBEK TILI KULOLCHILIK TERMINLARINING STRUKTURAL VA DERIVATSION XUSUSIYATLARI

2.1. Kulolchilik terminlarining struktural xususiyatlari

Lingvistik adabiyotlarda so‘zlar tuzilishiga ko‘ra sodda, qo‘shma, juft va takroriy singari turlarga ajratib o‘rganiladi. Terminologiya sohasida esa til birliklari birikma shaklida ham qo‘llanilishi ta’kidlanadi. O‘zbek tilining kulolchilik leksikasi bo‘yicha olib borgan kuzatishlarimiz ham o‘zbek tilshunosligida qayd etilgan nazariy fikrlarni to‘la isbotlaydi.

Sohaga oid leksik birliklarni tuzilishiga ko‘ra sodda, qo‘shma va birikmali birliklar sifatida o‘rganish mumkin. Quyida ularning har biriga alohida to‘xtalishga harakat qilamiz.

Sodda terminlar

O‘zbek tilining kulolchilik leksikasida sodda tuzilishga ega bo‘lgan til birliklari ma’lum miqdorni tashkil etadi. Ular quyidgilarni kiritish mumkin: *kasa, kasacha, xum, xumdon, piyola, bodiya, kulol, kosib, tovoq, sopol, loy, gil, chinni, ko‘za, ko‘zagira, lagan, nog‘ara, tuvak, keramika, koshin, koshinkor, ko‘zagir, tandirchi, parpashsha* (*yoki patpashsha*), *noxot (nuxat), chashma, mola, labgir, sim, qolip, g‘ujmak, tappa, qalam, taroq, kojkord, pargar, charx, bobo, oqsoqol, poykor, xalfa, ustakor, usta, shogird, elamoq, qorimoq, tepmoq, mushtlamoq, pishitmoq, quritmoq, xumdon, pishirmoq, sovutmoq, siriamoq, charx, g‘ildirak, o‘q va boshqalar*.

Qo‘shma terminlar

Kulolchilik leksikasining atta qismini qo‘shma so‘zlar tashkil etadi. Ayniqsa, kulolchilik buyumlarida qo‘llanilgan naqshlar, bezaklar, chizmalar nomi qo‘shma shaklga ega ekanligini kuzatish mumkin: *anorgul, bodomgul, qalampirgul, nokgul, pistagul, qovoqgul, karnaygul, qiyogo‘t, lolagul, buragul, g‘unchagul, gulxayri, gulqo‘chqaroq, jiydagul, qo‘shxat, uchxat, to‘rtxat, jibilajibon, chumchuqqanot, qarg‘atirnoq, gilosbarg, pistagul, parparak,*

charxpalak, tumoryo'l, oqsoqol, ustaboshi, najjorboshi, oqtosh, oqqum, yulduzbosma, tolbarg, ko'hiqof, nokbarg, qovoqbarg, otasharava, binafshagul, munchoqgul, pistagul, gajakgul, toshtaroq, anjirgul, gajakbarg, tug'barg, nayzabarg, chorbarg, gandumgul, choybarg, g'unchagul, o'smagul, kaptardumi, to'pmunchoq, palakgul, chormag'iz, qushko'zi, oq rang, yashil rang, moviy rang, sariq rang, havo rang, oq yo'l va boshqalar.

Birikmali terminlar

Kulolchilik leksikasida birikmali nomlar eng sermahuldir. Birikma tarkibida kelgan nomlarni turkiy (o'zbekcha) birikmali va forsiy izofali birikmalar sifatida ikkiga ajratish mumkin.

Turkiy (o'zbekcha) birikmalarga quyidagilarni kiritish mumkin: *to'rsimon naqsh, rombsimon naqsh, uchburchakli shakl, uchburchak naqsh, doirasimon shakl, doirasimon naqsh, zanjirsimon naqsh, zanjirsimon shakl, nuqtali naqsh, kvadratchali qora naqsh, kvadratchali oq shaqsh, egri chiziq, to'g'ri chiziq, doirachali naqsh, tupbarggul shaklli naqsh, anor guli, bodom guli, sodda gul, baliq dumi, tovus qanoti, o'rdak qanoti, kaptar dumi, kapalak qanoti, chumchuq dumi, xo'roz dumi, burgut dumi, boyqush qanoti, oltin qo'ng'iz, halqa zanjira, tumorcha barg, tumor zanjira, g'isht zanjira, kesma xat, uch ilon izi, qo'sh ilon izi, ilon izi, egri xat, ikki egri xat, bir tortar, xarsang tosh, tumorcha zanjira, jingalak xat, tumor yo'l, sambit bargi, zulma zanjira, qanot zanjira, kariz zanjira, zuluk zanjira, bo'ston naqshi, oshiq zanjira, jingalak zanjira, g'alvirak hoshiya, tumorcha nuxat, vov zanjira, halqa zanjira, egar zanjira, bosma parparak, parrak bosma, yulduz bosma, rayhon bargi, koptok zanjira, kulcha zanjira, dolchin bargi, jingalak zanjira, ilmoq zanjira, g'ildirak zanjira, behi guli, ponis naqshi, olu guli, uzum guli, binafsha gul, qo'chqaroq zanjira, islumi taroq, bodring zanjirasi, tarvuz zanjirasi. kapalak zanjira, gajak barg, tarvuz guli, nok guli, pistagul, norij guli, oddiy gul, qush dumi, qo'y tuyog'i, qora ilon, ho'kiz shoxi, ho'kiz ko'zi, qush ko'zi, mo'yqalam tutqazish, suv ichirish, uy bezatish, qurbanlik o'tkazish, xudoyi qilish, is chiqarish, katta mola, kichkina mola, naqshin qolip, lagan qolip, oqsoqollar kengashi, loy tayyorlamoq, nam*

sholcha bilan o'ramoq, xumdonga solmoq, olovda pishirmoq, ishlov bermoq, gul solmoq, shakl bermoq, kichik g'ildirak, katta g'ildirak, yog'och o'q va boshqalar.

Forsiy izofali birikmalarga esa quyidagilarni ko'rsatish mumkin: *bargi gulnor, guli behi, bargi tug', guli madoxil, guli olubolu, guli binafsha, bargi mustai, guli talxa, guli angur, daraxti xurmo, guli anor, guli binafsha, guli tupsar, guli bodomi ninachi, islimi qalampir, guli tarbuz, guli nok, islimi ansur, guli norinj, guli chong'ora, guli zarvaraq, guli odmi, guli o'sma, islimi zuluk, chor chashm, dumi baliq, qanoti tovus, qanoti o'rdak, dumi kabutar, qanoti kapalak, dumi murg', dumi xo'roz, dumi burgut, qanoti boyqush, chashmi bulbul, bandi rumi, moragi duqator, nohoti halqa, taroqi xarroj, madoxili islimi, chorxonai terma, qo'r chorxona, qo'r sambusagi, parra xarroj, bargi tumorcha, moragi naxo'd, g'o'zanagi terma, zanjirai nim davra, xatti kesma, xatti naxo'di zulma. se ilon izi, du egri xat, se egri xat, rohi zanjira, tagi hoshiya, xatti jingalak, tumori roh, guli mug'ilon, bargi sambit, naqshi bo'stoni. yaktarafa zanjira, zanjirai raftor, obi rahmat, zanjirai chashma, chetan bo'yrugi zanjira, noxoti tumorcha, zanjirai vov, havzagi zanjira, davra zulma, naqshi sitora, panjagi bosma, g'o'zanagi terma, qanoti murg', naqshi shamdon, naqshi girdobi, xatti mehrobi, bargi rayhon, bargi dolchin, ko'hi qof, noxoti xonagi, sebi hoshiya, tumorcha xonagi, madoxili sodda, naqshi humoyun, naqshi ponis, guli madoxil, guli olubolu, guli binafsha, charxi parrak, bargi mustai, guli talxa, qafasi bedana, bargi islimi rixak, guli akvoxun, guli gajak, bargi chingalaki xudus, guli mujgon, guli angur, guli azhar, daraxti xurmo, naqshi morob, guli rumi, guli anor, guli binafsha, guli tupsar, bargi zanjira, zanjirai taroq, islimi hoshiya, taroqi sang, ishkomi hoshiya, mehrobi oba, chashmi ushtur, islimi taroq, naqshi halila, zanjirai bodiring, zanjirai tarbuz, mehrobi qalam, zanjirai islimi chor yaproq, zanjira islimi olxo'ri, islimi pechakgul, islimi baizai anqo, du gajagi*

marg‘ula, bargi kobuzbon, bargi zanjabil, bargi nayza, bargi shijora, bargi madohil, bargi mushki anbar, bargi gajak, rishtai pisorig‘, behi sarun, naqshi xashhosh, behi daraxti poyox, guli bodomi ninachi, islimi qalampir, guli tarbuz, guli nok, islimi ansur, guli norinj, guli chong‘ora, guli zarvaraq, guli odmi, guli o‘sma, guli ansur, naqshi obi, islimi zuluk, chor chashm, qo‘s sh bargi bodomi shijor, dumi baliq, qanoti tovus, qanoti o‘rdak, dumi kabutar, qanoti kapalak, shamdoni xashtagi, girdobi parra, davrai xurshid, hashti havzagi, tuyog‘i gusfand, mori siyoh, xatti islimi, shoxi gov, naqshi kojkord, chashmi gov, qanoti qushi movi, arvoxi pir, kamar basta va boshqalar.

2.2. Morfologik usul bilan yasalgan kulolchilik terminlari

O‘zbek tilining kulolchilik leksikasi tarkibidagi yasama so‘z va atamalar umumtil so‘z yasalish sistemasi qoidalari va prinsiplari asosida yuz bergen. Kulolchilik buyumlari, bu buyumlarda ishlangan chizma, shakl va bezak nomlari, kulolchilik kasbi bilan shug‘ullanuvchi shaxs nomlari so‘z yasalishining quyidagi usullari asosida yuz bergen va shakllangan:

1. O‘zakka qo‘s Shimcha qo‘s shish (morphologik usul) orqali.
2. So‘zlarni qo‘s shish (sintaktik usul) orqali.

Affiksatsiya usulida so‘z yasash hozirgi o‘zbek adabiy tilida bo‘lgani singari kulolchilik leksikasida ham yangi so‘z yasashda faol usullardan biri sanaladi. Umumo‘zbek tili doirasida mavjud bo‘lgan so‘z yasovchi qo‘s Shimchalarining aksariyati ushbu leksika so‘z va atamalarini yasashda qatnashadi. Bu qo‘s Shimchalarining eng muhimlari sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin: *-chi, -gir, -xona, -kash, -kor, -don, -lik, -chilik, -li, -simon, -soz, -furush, -shunos, -paz, -xo`r, -boz* va boshqalar.

Bu qo‘s Shimchalar vositasida kulolchilik leksikasiga oid turli so‘z va terminlar yasalishini kuzatamiz. Quyida ularning ayrimlarini ko‘rib chiqamiz.

-chi qo‘s Shimchasi yordamida faoliyat, kasb-hunar, mashg‘ulotning umumiy nomini, soha nomini bildiruvchi so‘zlardan shu sohada faoliyat

ko‘rsatuvchi shaxs ma’noli otlar *yasaladi*. –chi affiksi faoliyatning ma’lum sohasiga mansub shaxsni bildirish bilan birga *buyoq+chi*, *naqsh+chi*, *rasm+chi*, *tandir+chi*, *xumdon+chi*, *charx+chi*, *haykal+chi*, *chega+chi* kabi kulolchilikka oid terminlarda, shuningdek, qo‘shiqchi, musiqachi, tanburchi, kurashchi, shaxmatchi, bokschi kabi boshqa soha terminlarida esa faoliyat sohasining, kasb-hunarning turlarini bildiruvchi so‘zlarga qo‘shilib, sohaning, kasbkorning shu turdagи faoliyat ko‘rsatuvchi shaxs ma’noli otni yasaydi. Bunday shaxs otlarining yasalish asosi ma’lum bir kasb-hunar, o‘yinga oid asbob-qurol, narsa-predmetni bildiruvchi so‘zlardan bo‘ladi.¹

Demak, -chi sermahsul affiksi yordamida biz yuqorida kulolchilik terminologiyasiga oid terminlarning ikki yo‘nalishda, ya’ni faoliyat, kasb-hunar, mashg‘ulotning umumiyligi nomi va shu sohada faoliyat ko‘rsatuvchi shaxs ma’noli ot hamda faoliyat sohasining, kasb-hunarning turlarini bildiruvchi otlar sifatida yasalganligiga guvoh bo‘ldik.

-shunos qo‘shimchasi. O‘zbek tilida aslida tojik tilidan o‘zlashgan bo‘lib, asosan, ikki xil ma’noli so‘z yasashi ilmiy adabiyotlarda qayd etiladi: so‘z yasalish asosi anglatgan ilm-fan bilan shug‘ullanuvchi (shaxs ilm kishisi, olim) ma’noli ot (tilshunos, adabiyotshunos, tarixshunos va b.) hamda so‘z yasalish asosidan anglashilgan narsani o‘rganish bilan shug‘ullanuvchi shaxs ma’noli ot (gruntshunos, tuproqshunos, o‘lkashunos, tabiatshunos, giyohshunos) yasashi qayd etib o‘tiladi. Ikkinci ma’noli ot yasashiga kulolchilik sohasiga oid terminlarni ham kiritish mumkin: **grunt+shunos**, **tuproq+shunos**, o‘lkashunos, tabiatshunos, giyohshunos kabi.²

Ana shu ikki xil ma’noli shaxs otlarida keltirilgan misollardan kulolchilik sohasiga doir terminlarida ko‘rinib turibdiki, (**gruntshunos**, **tuproqshunos**) haqiqatdan ham so‘z asosi (**grunt**, **tuproq**)dan anglashilgan narsani o‘rganuvchi, shug‘illanuvchi shaxs ma’nosida tushuniladi.

¹ A..Hojiyev-O’zbek tili so‘z yasalish tizimi, 2007

² A..Hojiyev-O’zbek tili so‘z yasalish tizimi, 2007

-soz qo'shimchasi. “Quruvchi”, “tayyorlovchi”, “yasovchi” degan ma’no-larni ifodalab ana shu xususiyati bilan barcha shaxs oti yasovchi qo’shimcha-lardan farqlanadi.

—soz va uning yordamida yasaluvchi so‘zlarda hamma vaqt shaxs tushunchasi mavjud bo‘ladi, shu tufayli ularning barchasi shaxs otlari bo‘ladi. Kulolchilik sohasiga tegishli bo‘lgan **dastgoh+soz**, **chinni+soz**, **charx+soz** kabi terminlarda ham asosdan anglashilgan narsa (dastgoh, chinni, charx)ni quruvchi, yasovchi shaxs oti ma’nosi anglashiladi: dastgohsoz-dastgoh yasovchi, tayyorlovchi ma’nosida qo‘llaniladi.

-furush qo'shimchasi. Tojikcha furo‘xtan - “sotmoq” ma’noli affiksi odatda, so‘z yasalish asosidan anglashilgan narsani sotuvchi, shu narsa bilan savdo qiluvchi ma’noli qo’shma otlar yasaydi. **Chinni+furush**, **idish+furush**, **ko‘za+furush** kabi soha terminlarida ham asosdan anglashilgan narsa (chinni, idish, ko‘za)ni sotuvchi, shu narsa bilan savdo qiluvchi shaxs ma’nosi ifodalanadi..

-kor qo'shimchasi. Bu qo’shimcha ham aslida fors-tojik tilidan o’zlashgan so‘zlar tarkibida bo‘lib, asosan ikki ma’noda qo‘llaniladi:

1. Qishloq xo‘jaligida yetishtiriladigan asosiy mahsulotlarni bildiradigan so‘zlarga qo’shib, asosdan anglashilgan mahsulotlarni yetishtiruvchi shaxs ma’noli otlarini yasaydi: sholikor, polizkor, paxtakor, g‘allakor.

2. Mazmunida harakat-holat tushunchasi bo‘lgan ba’zi (sanoqli) so‘zlardan asos bildirgan harakat-holatni amalga oshiruvchi (qiluvchi) shaxs ot yasaydi: qasoskor, xaloskor, tajribakor.¹

Shuningdek, belgi ifodalashi bilan -kor qismli so‘zlarning ko‘pchiligi sifat turkumiga mansub so‘zlardir. Bunday so‘zlarning anchaginasi o‘zbek tilida ham sifat hisoblanadi: mo‘jizakor, fidokor, shiddatkor kabi so‘zlar shular jumlasidir. Demak, -kor affiksi shaxs yoki predmetning asosdan anglashilgan narsa, xususiyatga kuchli moyilligi (egaligi) faoliyati, hatti-harakati, xususiyati ana shu narsa belgi bilan xarakterli ekanligini ifodalaydi. Matndan tashqari holatda

¹ A..Hojiyev-O’zbek tili so‘z yasalish tizimi, 2007

ularning ot yoki sifat ekanligi aniq bo‘lmaydi: havaskor, tashabbuskor, gunohkor kabi.¹ Bu affiks yordamida yasalgan kulolchilik soha terminiga tegishli bo‘lgan *o‘ymakor* so‘zida ham –kor affiksi narsaning belgisini bildiruvchi ma’noni hamda shaxs oti yasovchi ma’noni ham ifodalaydi. Sababi atamaning matndan tashqari holatda ot yoki sifat maqomida ekanligini aytish mushkul. Akademik Azim Hojiyev ham bejizga, “Hozirgi o‘zbek adabiy tilida –kor affiksini ot va sifat yasovchi qo‘srimcha deyish mumkin”, - deb ta’kidlamagan.

Demak, *-kor* qo‘srimchasi ot asosga qo‘silib, o‘z sohasining ustasi ma’nosini anglatuvchi so‘z yasaydi: usta+kor. Bezak, naqsh, kulolchilik mahsulotlari nomlariga qo‘silib ham sohaga oid so‘zlar yasaydi: ***koshin+kor, gil+kor, o‘yma+kor kabi***.

-ma qo‘srimchasi. Bu qo‘srimcha fe’ldan ot va sifat yasash uchun xizmat qiladi. Ot yasovchi sifatida ham, sifat yasovchi vazifasida ham hozirgi o‘zbek adabiy tilida mahsulli affiks hisoblanadi. Tilshunos olim A. Hojiyev –ma affiksi yordamida hozirgi o‘zbek adabiy tilida quyidagi ma’noli otlar yasalishini ta’kidlaydi:

1.Fe’ldan anglashilgan ish-harakat uchun mo‘ljallangan, shunga belgilangan narsani bildiruvchi otlar: qoplama, tirkama, qo‘llanma, to‘sama kabi

2.Fe’ldan anglashilgan ish-harakat natijasida yuzaga keladigan, uning mahsuli sifatidagi narsani bildiruvchi otlar: qurilma, eritma, qatlama kabi. Xuddi shunday so‘zlar jumlasiga kulolchilik soha terminiga oid bo‘lgan ***bo`yama, qazil+ma, qazish+ma, qotir+ma, qorish+ma*** kabilarni ham kirgizsak bo‘ladi. Sababi buyama -buyash, rang berish ish-harakatining natijasi, qazilma – qazish, izlash harakatining natijasi, qorishma – qorish, aralashtirishning mahsuli va boshqalar.

-ma affiksi yordamida yasaluvchi so‘zlar ko‘pchilikni tashkil qiladi, lekin biz faqat kulolchilik sohasiga tegishli bo‘lgan tiplarini misol qilib keltirdik xalos.

¹ A..Hojiyev-O‘zbek tili so‘z yasalish tizimi, 2007

-gich qo'shimchasi. Ushbu affiks hozirgi kunda asosan, asbob-qurol nomini bildiruvchi ot yasovchi sifatida juda faollahsgan. **Qizdir+gich, kovla+gich, bo'ya+gich** kabi soha terminlarida ham –gich affiksi asbob-qurol nomini bildirib, so‘z yasalish asosidan anglashilgan ish-harakat uchun qo‘llaniladigan narsa ma’noli ot yasagan. Masalan, ariq (zovur) kovlaydigan mashinani atash uchun *kavlagich* (*ariq kavlagich*) so‘zi qo‘llanilib keladi. Kulolchilik sohasida esa kovlagich terminini tuproqni kavlab olish ma’nosida qo‘llash mumkin bo‘ladi.

-xona qo'shimchasi. Ma’lumki, bu affiks asli lug‘aviy ma’nosи xona so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, joy nomini bildiruvchi ot yasovchidir. Odatda, xona atrofi, usti berk joy bo‘ladi. Xuddi shu belgi-xususiyat ta’sirida –xona qo‘shimchasi biror narsaga mo‘ljallangan har qanday joyni emas, balki asosdan anglashilgan narsa amalga oshiriladigan xonani bildiruvchi otlar yasaydi. Bu affiks so‘z yasalish asosidan anglashilgan narsa bilan bog‘liq holda amalga oshiriladigan ish-faoliyat joyini bildiruvchi otlar yasaydi: **bo`yoq+xona, ko‘mir+xona, loy+xona, otash+xona, usta+xona, tandir+xona, pir+xona, o‘t+xona** kabi. Ushbu soha terminlaridan buyoqxonada buyash, rang berish ishlari, ko‘mirxonada ko‘mir bilan bog‘liq ishlар, loyxonada loy va uning uning elementlari va turli xil loy xillari bilan amalga oshiriladigan ishlар, otashxonada esa olov va issiqlik bilan bog‘liq ishlар bajariladi.

-lik qo'shimchasi. Mavhum ot yasovchilar tarkibiga kiruvchi bu qo‘shimcha ot, sifat va ravish turkumiga oid so‘zlar yasaydi. Ot turkumiga oid so‘zlardan so‘z yasalish asosi anglatgan shaxs, narsa-predmetning xususiyati bilan bog‘liq holda tug‘ishganlik, qarindoshlik munosabatini bildiruvchi, shaxs hayotining davri (bosqichi)ni bildiruvchi, amal, unvon nomini bildiruvchi kabi shaxs otlarini yashashda xizmat qiladi. Shuningdek, kasb egasini bildiruvchi (kulol, naqqosh, dastgohsoz, rassom, o‘ymakor, haykaltarosh, hunarmand kabi) so‘zlarga qo‘shilib, kasb-hunar nomini bildiruvchi ot yasaydi: **dastgohsoz+lik, kulol+lik, rassom+lik, naqqosh+lik, tuproqshunos+lik, o‘ymakor+lik,**

haykaltarosh+lik, hunarmand+lik, tandirchi+lik, xumchi+lik, ko'zachi+lik, chizmakash+lik, charxchi+lik, tandirchi+lik, dastgohsoz+lik kabi.

Ko‘rinib turibdiki, turmush tarzida kasb-hunarning turi hamda ularni bajaruvchi shaxsni bildiruvchi so‘zlar ko‘p.

Bundan tashqari –lik affiksi kasb egasini bildiruvchi so‘zlarga qo‘shilib, shu kasb-hunar egalari faoliyat ko‘rsatadigan (shu kasb-hunarga oid) joy (hudud) ma’nosini bildiruvchi ot yasaydi: *gilkor+lik, kandakor+lik, sangtarosh+lik, chizmakash+lik* kabi. Hozirgi vaqtida –lik affiksi yordamida bu tipdagi yangi so‘z yasalishi deyarli yo‘q darajada.¹

Qolaversa, -lik affiksi sifat va ravishlarga (belgi bildiruvchi so‘zlarga) qo‘shilib belgi oti yasaydi. *Qizil+lik, tasviriy+lik, olovbardosh+lik*, kabi soha terminlarida ham asos (qizil, tasviriy, olovbardosh)ga, ya’ni belgi bildiruvchi sifatlarga –lik affiksi qo‘shilishi natijasida belgi otlari yasalgan va natijada belgi otlarning ma’nosini yanada aniqlashgan.

Bu murakkab qo‘shimcha kulol otiga qo‘shilib soha nomini yasaydi: *kulol+chilik, rassom+chilik, chizma+chilik, hunarmand+chilik, sopol+chilik* kabi terminlar asos (kulol, rassom, chizma, hunarmand)dan anglashilgan narsa bilan shug‘illanuvchi soha, tarmoq ma’nosini ifodalovchi affiks sifatida qo‘llaniladi.

-gir qo‘shimchasi. Bu qo‘shimcha ko‘za, kosa va boshqa ayrim so‘zlarga qo‘shilib yangi so‘z yasaydi: *ko‘za+gir, kosa+gir, lab+gir* kabi.

-don qo‘shimchasi. Bu qo‘shimcha kulolchilik mahsulotlari nomiga qo‘shilib yangi so‘zlar yasaydi: *xum+don*. Bundan tashqari kulolchilik mahsulotlari nimaga mo‘ljallanganini anglatuvchi so‘zlar yasaydi: *gul+don, otash+don, olov+don* singari yaslmlar ham mavjud.

-simon qo‘shimchasi. Bu qo‘shimcha kulolchilik buyumlariga ishlangan bezak va naqsh nomlarini bildiruvchi so‘zlar yasaydi: *o‘simlik + simon, hayvon + simon, zanjir + simon, doira + simon, parranda + simon, hashorot + simon* kabi.

¹ A..Hojiyev-O’zbek tili so‘z yasalish tizimi, 2007

-li qo'shimchasi. Bu qo'shimcha o'zbek tilida faol sifat yasovchi sanaladi. Kulolchilik leksikasida buyumlarning sirti va ichida yasalgan naqsh va bezaklarning qanday shakldaligini anglatuvchi so'zlar yasaydi: ***uchburchak+li, to'rtburchak+li, nuqta+li, kvadratcha+li, romb+li, zanjir+li kabi.***

2.3. Sintaktik usul bilan yasalgan terminlar

Sintaktik usul bilan so'z yasalishi kulolchilik leksikasida eng sermahsul ekanligi kuzatiladi. Soha leksikasi tarkibiga kiruvchi qo'shma so'zlarining yasalish qoliplarini va yasovchi biriklar orasidagi munosabatni quyidagicha belgilash mumkin:

1. Sifatlovchi-sifatlanmish sintagmasini eslatadigan qo'shma so'zlar. Qo'shma so'zlarining bu qolip asosida yuzaga kelishi ularning aslida sifatlovchi-sifatlanmish munosabatini bildiruvchi so'z birikmalaridan o'sib chiqqanligini ko'rsatadi. Kulolchilik leksikasida bu qolip asosida yasalgan nomlar bir talay: *karnaygul, qiyoko't, lolagul, buragul, g'unchagul, qo'shxat, uchxat, to'rttxat, munchoqgul, gajakgul, toshtarog, gajakbarg, tug'barg, nayzabarg, chorbarg, binafshagul, gandumgul, to'pmunchoq, palakgul, oqsoqol, oqtosh, oq rang, yashil rang, moviy rang, sariq rang, havo rang, oq yo'l kabi.*

2. Qaratqich-qaralmish sintagmasini eslatadigan qo'shma so'zlar. Bu tipda yaralgan so'zlar bir nechta bo'lib, ularning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Qaratqich-qaralmish munosabatidagi so'z birikmalari qo'shma so'zga aylangach, birinchi komponent tarkabidagi qaratqich ko'rsatkichi, ikkinchi komponentdagi egalik (III shaxs) ko'rsatkichi qisqaradi: *najjorboshi, ustaboshi, anorgul, bodomgul, qalampirgul, nokgul, pistagul, qovoqgul, gulqo'chqaroq, jiydagul, chumchuqqanot, qarg'atirnoq, gilosbarg, pistagul, tolbarg, nokbarg, qovoqbarg, qalampirgul, pistagul, qovoqgul, anjirgul, choybarg, o'smagul, kaptardumi, palakgul, qushko'zi kabi.*

Qo'shma so'zlarni takribiy tuzilishiga ko'ra ham alohida tiplarga ajratish mumkin: Bu tiplar tadqiqotlarda qayd etilgan. Qo'shma o'yin nomlarini tarkibiy tuzilishiga ko'ra quyidagi tiplarga bo'lish mumkin:

1. Sifatlovchi - sifatlanmish sintagmasi asosida tuzilsa:

OT+OT: *karnaygul, qiyoko't, lolagul, buragul, g'unchagul, munchoqgul, tosharoq, tug'barg, nayzabarg, binafshagul, gandumgul, to'pmunchoq, palakgul.*

SIFAT+OT: *gajakgul, gajakbarg, oq rang, yashil rang, moviy rang, sariq rang, havo rang, oq yo'l.*

SON+OT: *qo'shxat, uchxat, to'rttxat, chorbarg kabi.*

2. Qaratqich-qaralmish sintagmasini eslatadigan qo'shma so'zlarining tarkibiy tuzilishi quyidagicha:

OT+OT: *ustaboshi, najjorboshi, anorgul, bodomgul, qalampirgul, nokgul, pistagul, qovoqgul, gulqo'chqaroq, jiydagul, chumchuqqanot, qarg'atirnoq, gilosbarg, pistagul, tolbarg, nokbarg, qovoqbarg, qalampirgul, pistagul, qovoqgul, anjirgul, choybarg, o'smagul, palakgul kabi.*

BOB BO‘YICHA QISQA XULOSA

1. Lingvistik adabiyotlarda so‘zlar tuzilishiga ko‘ra sodda, qo‘shma, juft va takroriy singari turlarga ajratib o‘rganiladi. Terminologiya sohasida esa til birliklari birikma shaklida ham qo‘llanilishi ta’kidlanadi. O‘zbek tilining kulolchilik leksikasi bo‘yicha olib borgan kuzatishlarimiz ham o‘zbek tilshunosligida qayd etilgan nazariy fikrlarni to‘la isbotlaydi. Sohaga oid leksik birliklarni tuzilishiga ko‘ra sodda, qo‘shma va birikmali terminlar sifatida o‘rganish mumkin.

2. O‘zbek tilining kulolchilik leksikasi tarkibidagi yasama so‘z va atamalar umumtil so‘z yasalish sistemasi qoidalari va prinsiplari asosida yuz bergen. Kulolchilik buyumlari, bu buyumlarda ishlangan chizma, shakl va bezak nomlari, kulolchilik kasbi bilan shug‘ullanuvchi shaxs nomlari so‘z yasalishining quyidagi usullari asosida yuz bergen va shakllangan.

3. O‘zbek tilining kulolchilik terminologiyasida affiksatsiya usulida yasalish eng sermahsul usullardan sanaladi. Soha terminologiyasini yasashda *-chi*, *-gir*, *-xona*, *-kash*, *-kor*, *-don*, *-lik*, *-chilik*, *-simon* singari affikslar faol ishtirok etishi kuzatildi. Ularning yasash unumдорлиги турличадир.

4. So‘zlarni qo‘shish yoki sintaktik usul bilan yasalish ham soha terminologiyasi uchun xos xususiyatdir. Bunday yasalishning quyidagi qoliplari mavjudligi kuzatildi: OT+OT, SIFAT+OT, SON+OT.

UCHINCHI BOB. O'ZBEK TILI KULOLCHILIK TERMINLARINING SEMASIOLOGIK XUSUSIYATLARI

3.1. KULOLCHILIK TERMINLARINING KO'P MA'NOLILIKKA MUNOSABATI

Bizga ma'lumki, terminlar fan, texnika, adabiyot, san'at va boshqa sohalarga ixtisoslashgan, qo'llanishi muayyan soha bilan chegaralangan tushunchalarni ifodalovchi nominativ birliklar sanaladi. Termin ham aslida so'z, ammo u oddiy so'zlardan o'zining bir ma'noliligi, ixchamligi, neytiralligi kabi bir qator belgilari bilan ajralib turadi. Shuningdek, termin oddiy so'zdan farqli o'laroq ma'nosi konteksga bog'liq bo'lmaydi. Qo'llanishi esa ma'lum nazorat ostida bo'ladi. Ayrim tadqiqotlarda bu xususiyatlar terminning xususiyati emas, balki unga qo'yilgan talab sifatida talqin etilmoqda. Qo'yilgan talablarga hamisha ham erishilavermasligi oqibatida shunday xulosa chiqarilmoqda. Shu boisdan terminlarda ham ko'p ma'nolilik, omonimlik, sinonimlik, variantlilik singari hodisalar mavjudligi qayd etilyapti va bir qator tadqiqotlarda ushbu masala keng yoritilmoqda.

Shuni ham e'tirof etish kerakki, terminologiyada adabiy tildan farqli ravishda ko'p ma'nolilik, variantdorlik, omonimiya va sinonimiya hodisalari salbiy hodisa sifatida baholanadi va iloji boricha ularga yo'l qo'ymaslikka harakat qilinadi. Quyida kulolchilik terminlarining ko'p ma'nolilik hodisasiga munosabati xususida to'xtalamiz.

Bittadan ortiq ma'no anglatish (ifodalash) hodisasi ko'p ma'nolilik sifatida talqin etiladi. Olimlarimizning e'tirofiga ko'ra hozirgi o'zbek tilidagi so'zlarning deyarli yarmi bir ma'nolidir. Yangi yaratilgan so'z boshlang'ich ishlatilish davrida bitta ma'no ifodalashga xizmat qiladi. Keyinchalik uning mazmun jihatida turli-tuman o'zgarishlar yuz beradi, shunday o'zgarishlarning ma'lum bir qismi natijasida bir ma'noli so'z yangi leksik ma'no kashf etib, ko'p ma'noliga aylanadi. Termin esa odatda bir ma'noli bo'ladi. Lekin so'z kabi

terminlarda ham hosila ma’no natijasida ko‘p ma’nolilik holati ro‘y berishini kuzatish mumkin.

Leksik ko‘p ma’nolilik – ko‘p qirrali va murakkab hodisa sanaladi. Buning ustiga deyarli har bir so‘z yoki terminning leksik ma’no taraqqiyotiga alohida-alohida yondashishni, izohlashni talab qiladi. Shu sababli ularning leksik ma’nolarini aniqlash va tartibga solish juda qiyin kechadi. Lingvistik adabiyotlarda so‘zlearning ko‘p ma’noliligi haqida bildiriladigan fikrlar o‘ta mavhum bo‘lib, leksik ma’no taraqqiyoti haqida umumiylasavvur hosil etishga xizmat qiladi.

Leksik ma’no odatda bir predmet, belgi, harakatning nomini boshqa bir predmet, belgi, harakatga ko‘chirish yo‘li bilan rivojlanadi. Bunday ko‘chirishning tabiatini, mavqeini har bir tilning o‘zidagi semantik qonuniyatlar belgilaydi.

Ko‘chirishlar asosan quyidagilar: metafora yo‘li bilan ko‘chirish, funksional ko‘chirish, metonimiya yo‘li bilan ko‘chirish, sinekdoxa yo‘li bilan ko‘chirish kabi. O‘zbek tilining kulolchilik terminologiyasidagi ko‘p ma’nolilik hodisasi ham ana shu yo‘llar bilan ko‘chgani tadqiqotlarimiz natijasida ayonlashdi. Tahlil uchun besh jildi “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”dan o‘rin olgan kulolchilikka oid so‘z va terminlarni tanladik.

O‘zbek tiliga fors tilidan o‘zlashgan va bugungi kunda eskirgan va kitobiy so‘z sifatida talqin etilayotgan abr so‘zining bosh ma’nosini bulut. Kasb-hunar terminologiyasida ushbu o‘zlashma so‘z bulutga o‘xshash amaliy bezak turi ma’nosini ifoda etadi. Lug‘atda abr ko‘p ma’noli so‘z sifatida berilgan va ikki ma’nosini izohlangan:

ABR [f. — bulut] **1** *esk. kt. ayn. bulut* **1.** *Abr ichiga berkinib, motamsaro bo ‘lsin quyosh.* E. Vohidov.

Abri nayson Bahorgi seryomg‘ir bulut. **Abri navbahor** Erta bahorning yomg‘irli buluti. **Chun abri navbahor** Xuddi erta bahor bulutidek. **Zor-zor chun abri navbahor yig‘lab.** G‘. G‘ulom. **Abri balo** Balo, ofat buluti. Ayollar

xonadonlari uzra yopirilib kelayotgan abri baloni erlaridan avvalroq sezadilar.

T. Malik, Shaytanat.

2 To‘qimachilik, me’morlik, kulollikda uchraydigan, tarxi bulutsimon amaliy bezak turi¹.

Ko ‘rinadiki, so ‘zning birinchi ma’ nosi eskirgan va kitobiy so ‘z bo ‘lsa-da, bosh ma’ noni ifoda etadi. Ikkinchi ma’ nosi o ‘xshashlik asosida yuzaga kelgan hosila ma’ nodir.

O ‘zbek tilida qo ‘llanishda bo ‘lган bog ‘dodi so ‘zi so ‘zi ham ko ‘p ma’ noli bo ‘lib, uning dastlabki bosh ma’ nosi “yaxlit taxtalardan yasalib, geometrik shaklli naqshlar bilan bezatiladigan ikki tabaqali eng qadimgi eshik turi” ma’ nosini ifodalasa, uning hosila ma’ nosi esa “yog ‘ochsozlik va kulolchilik mahsulotlariga geometrik shaklli naqshlar solish usullaridan biri” ni bildiradi².

O ‘zbek tilidagi bosma so ‘z ham ko ‘p ma’ nolilik xususiyatiga ega. Izohli lug ‘atda so ‘zning to ‘qqizta ma’ nosi izohlangan bo ‘lib, ular ichida kulolchilik sohasi bilan bog ‘liq bo ‘lган ma’ noni ifoda etishi ham qayd etilgan:

BOSMA 1 Bosmaxonada bosilgan, chop qilingan, nashr etilgan. *Qo‘lyozma va bosma asarlar. Mustaqillik davrida bosma mahsulotlar yanada ko‘payadi.* Gazetadan. **Bosma list q. bosma taboq. Turob akaning hamma yozgan asarlari 150 bosma listga yaqin to‘plamni tashkil etadi.** Nazarmat, Jo ‘rlar baland sayraydi. **Bosma mashina** Kitob, gazeta, jurnal, risola, plakat va b. matbaa mahsulotlari chop etiladigan mashina; bosmaxona mashinasi. **Bosma taboq** Nashrning haqiqiy

¹ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Besh jildli. 1-jild. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti. 2006. – 27- bet.

² O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Besh jildli. 1-jild. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti. 2006. – 190-bet.

(amaldagi) hajmi o ‘lchov birligi bo ‘lib, bichimi 60 x 90 sm bo ‘lgan qog ‘oz varag ‘ining bir tomonidagi nusxani tashkil etadi. **Bosma harf** 1) bosmaxona harfi; 2) bosma asarlarda qo ‘llanadigan harf.

2 ot. esk. ayn. nashr. *Ehson stol ustida yotgan bir kitobchani Saidiyning oldiga surdi: - Buni ko ‘rdingizmi ? Ikkinchি bosmasi.* A. Qahhor, Sarob. *Adabiy xodimning asosiy vazifalaridan biri — materialni tahrir qilib, bosmaga tushirish.* F. Musajonov, Himmat. - «*Iste’dod*» nima degani-a? *Hech tushunmadim-da shu gapga, — dedi Husniddin. Musa yaqindagina bosmadan chiqqan, hech qo ‘lidan tushirmaydigan lug‘atni oldi-da, tez varaqlab topdi:* - «*Talant*» — dedi. P. Tursun, O ‘qituvchi. **Bosmaga tayyorlash** Qo ‘lyozmani bosish, nashr etish uchun tayyorlash.

3 ayn. bosmaxona. *U Xevada bosma ochib (1874 yil), ko ‘p kitoblar bostirgan.* J. Sharipov, Xorazm.

4 Nashriyot, noshir, nashrchi. ..*Sen Otajon bosma bilan bir so ‘llash. Toshbosmada Avazning she’rlarini chop etib, nusxasini ko ‘paytirsin.* S. Siyoyev, Avaz.

5 Kashtachilikda keng tarqalgan yaxlit gul-choklardan biri. *Ayvonda bosma guli bo ‘z ko ‘rpa yopilgan pastakkina tanchada qizlar o ‘tirardi.* Oybek, Ulug ‘yo ‘l. *Bosma tikkan botir qiz, Jamalay tikkan chevar qiz.* «Boychechak».

6 Jundan tayyorlangan, tikilgan (mato yoki ust kiyim haqida). *Bosma chakmon. Bosma kigiz. tsh Bosma chakmonni yechib, sandalga oyog ‘ini tiqdi.* M. Hazratqulov, Jur’ at.

7 Kulolchilikda sopol idishlarni bezashda qo ‘llanadigan gul nusxalari.

8 Siyohni shimib quritadigan qog ‘oz va shunday qog ‘oz o ‘rnatilgan asbob. *Jalg‘ash Nurimbetov g‘azab bilan kirib, Poshshoxon Madrahimovaning boshiga siyohdon yonidagi so‘loqmondek bosma tosh bilan tushirdi.* «Mushtum».

9 Bosqin, bosqinchilik. *Hamma o‘g‘ri, kallakesar, yalangoyoqlarning boshida Akbarali o‘zi turadi! Kechalari yigitlari bilan bosma qiladi!* Cho ‘lpon, Kecha va kunduz.¹

Lug‘at izohlaridan ko‘rinib turibdiki, so‘zning 5- va 7-ma’nolari kasb-hunar leksikasiga tegishlidir. 7-ma’nosini biz tadqiq etayotgan kulolchilikda “sopol buyumlarini bezashda qo‘llaniladigan gul nusxalari”ni bildiradi.

O‘zbek tiliga fors tilidan o‘zlashgan bulbulak so‘zi ham ko‘p ma’nolidir. So‘zning birinchi ma’nosini “Torli musiqa asboblari dastasining yuqori qismidagi, yog‘och yoki suyakdan yasalgan xarak” ma’nosini bildirsa, ikkinchi ma’nosini (hosila ma’no) “Loydan qush shaklida yasalgan va olovda qizdirib pishirilgan, bolalar puflab chaladigan hushtak (o ‘yinchoq)” ma’ nosini ifoda etadi².

O‘zbek tiliga arab tilidan ko‘chgan do‘kon so‘zi ham ko‘p ma’nolilik xususiyatiga ega. Avvalo ushbu so‘z “biror narsa sotish uchun maxsus jihozlangan savdo-sotiq xonasi, korxonasi; magazincha” singari ma’nolarni bildirsa, uning hosila ma’nolari “hunarmandlarning ishxonasi”, “hunarmandlar foydalanadigan dastgoh; stanok”³ ma’ nolarini anglatadi. Keyingi ikki ma’ no bevosita kasb-hunar leksikasiga tegishli bo‘lib, kulolchilik sohasida ham keng qo‘llaniladi.

Kulolchilik terminologiyasidagi ko‘p ma’nolilik hodisasisiga munosabati masalasidagi kuzatishlarimiz shuni

¹ Ўзбек тилининг изохли лугати. Беш жилдли. 1-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти. 2006. – 321-бет.

² O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Besh jildli. 1-jild. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti. 2006. – 369-370-bet.

³ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Besh jildli. 1-jild. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti. 2006. – 672-bet.

ko ‘rsatmoqdaki, sohaviy so ‘z va terminlardagi buyum nomlari, gul nomlari, buyumlarni ishlab chiqarishda qo ‘llaniladigan mahsulot nomlari va boshqalarda ko ‘p ma’ nolilik hodisasi mavjud. Masalan, keramika, kosa, lagan, tovoq, tuvak, hushtak singari kulolchilik mahsulotlarini ifoda etuvchi so ‘z-terminlar ana shunda ko ‘p ma’ nolilik xususiyatiga ega. Buni izohli lug ‘at materiallari ham tasdiqlaydi:

KERAMIKA [yun. keramike (techne) - kulolchilik (san’ati) < keramos - loy, tuproq] 1 Tabiiy loylarni yuqori haroratda pishirish yo‘li bilan sopol, chini idishlar, naqshli nafis buyumlar ishlab chiqarish va shunday ish san’ati. *Keramika zavodi. Rishton keramika zavodining mahsulotlari yil sayin keng shuhrat qozonmoqda.* Gazetadan.

2 Tabiiy loyni pishirish yo‘li bilan yasalgan buyumlar. *Keramika buyumlari*¹.

KOSA [f.] 1 Piyoladan kattaroq, asosan suyuqlik va turli ovqatlar solib ichish uchun ishlatiladigan idish. *Bir kosa sut. Ikki kosa qatiq. [Yo‘lchi].. mehmonlar uchun dam yasog‘liq patnuslar, dam choy.. dam kosalarda sho‘rvalar tashishdi.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Juvon bo‘shagan chini kosalarni yig‘ishtirib, oshxonaga chiqib ketdi.* S. Anorboyev, Oqsoy. *Ovqat pishdi. Qozonning zangi chiqib qoraygan go‘jaga qatiq ham rang kirgiza olmadi.* Turobjon ikki kosa ichdi, xotin esa hanuz bir kosani yarimlata olmas edi. A. Qahhor, Anor.

2 O ‘z po ‘chog ‘i ustida ko ‘ndalangiga kesib qo ‘yilgan qovun, tarvuz yoki handalak bo ‘lagi, pallasi. *Qovunni kosa qilib so‘ymoq.* *Patnus ko‘kcha va shakarpalak kosalari bilan to‘lik edi.* M. Ismoiliy, Farg ‘ona t. o. *Qo‘qonning qaymoqqa yo‘g‘rilgan poygir*

¹ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Besh jildli. 1-jild. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti. 2006. – ...-bet.

patirlari, ok po 'st shaftolisi-yu hafsala bilan kosa qilingan umurvoqi qovunlari..

K. Yashin¹.

LAGAN [f. — tog‘ora, idish; shamdon] **1** Quyuq taomlar solish uchun mo‘ljallangan, tarelkadan katta yassi idish. *Mis lagan. Sopol lagan. Chinni lagan. Anvar o‘rtaga dasturxon yozib, ikki lagan mantii chiqarib qo‘ydi.* A. Qodiriy, Mehrobdan chayon.

2 shv. Kosadan katta, ichi chuqur sopol idish; tovoq. *Boshlarida qatiq ivitiladigan lagan.. bilan yalangoyoq, kir, juldur kiyimli bolalar shipillab o‘tadi.* M. Ismoiliy, Farg‘ona t. o. **O‘zini laganga solmoq** O‘z qadrini, "baho" sini oshirishga qaratilgan xatti-harakat, qiliq qilmoq. ..*Xomtamalik bilan o‘zini laganga sola boshlagan bu betayin odamdan ixlosi qaytib jo‘nayotgan edi, Bo‘riboy yo‘lini to‘sdi.* H. Nazir, O‘tlar tutashganda².

TOVOQ 1 Yuzi yoyiq, bir oz yalpoq, kosa shaklidagi chuqurroq idish (turli o ‘lchamda sopol, chinni, metall, ba’ zan marmardan tayyorlanadi). *Sopol tovoq. Chinni tovoq. Tunuka tovoq. Komil tovoqlarda qaymoq, likoplarda uzum ko‘tarib kirdi.* H. G ‘ulom, Mash’ al. *Buvi, yuzini suzib turgan sutli tovoqni yerga qo‘yib, «nima deyapsan?» degaday Murodga qaradilar.* A. Mirahmedov, Kulgan chechaklar.

Norin tovoq Norin suziladigan katta kosa yoki tovoq. *Otabek shoshib tokchadan xitoyi norin tovoqni oldi.* A. Qodiriy, 0 ‘tgan kunlar.

2 shv. Lagan. [Vahob] *Bir tovoq xushbo‘y palovni keltirib, oldimizga qo‘ydi.* M. Muhamedov, Qahramon izidan.

3 s.t. Plastinka (patefon, radiola plastinkasi). *Ertalab hosilotning xotini patefon tovog‘ini so‘rab chiqibdi.* S. Ahmad, Qadrdon dalalar³.

¹ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Besh jildli. 2-jild. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti. 2006. – 410-bet.

² O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Besh jildli. 2-jild. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti. 2006 – 438-bet.

³ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Besh jildli. 4-jild. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti. 2008 – 130-bet.

TUVAK 1 Beshikka belangan bolaning siyidik va axlati tushadigan beshik asbobi.

2 Konus shaklidagi sopol idish. *Gul tuvak. Deraza yonidagi katta tuvakda sambitgul ko‘m-ko‘k bo‘lib yashnab turibdi.* S. Zunnunova, Yangi direktor.

3 Itga ovqat beriladigan idish¹.

HUSHTAK 1 Havoni puflab chiqarish yo‘li bilan chalinadigan asbob, moslama. *Sopol hushtak. Militsioner hushtagi. Yo‘lchi uni [bolani] ovutish uchun, toldan bir novda kesib olib, kichkina hushtak yasadi.* Oybek, Tanlangan asarlar.

2 Ana shunday asbob, moslama yordamida yoqilab va tishlar orasidan havo chiqarib hosil qilingan tovush. *Ko‘cha qorovuli hushtagini eshitib to‘xtadi. Odamlar norozilik bilan qarsak chalishar, zalning chekka-chekkalaridan hushtak ovozlari eshitilib qolardi.* O‘. Hoshimov, Qalbingga quloq sol. *Tursunboy ikki barmog‘ini og‘ziga tiqib, hushtak chaldi.* S. Ahmad, Ufq.

3 Biror ta’ sir, tabiiy hodisa tufayli hosil bo‘ladigan, hushtakka o‘xshash tovush. *To‘satdan devordagi radiokarnay hushtak chalib, keyin xirillay boshladi.* «Mushtum». *Qaldirg‘ochning tashlandiq uyasidan.. ingichka hushtak ovozi chiqardi: izg‘irin berkinib olib, sho‘xlik qilayotganga o‘xshaydi.* Cho ‘1pon, Kecha va kunduz. *Kuchli shamol daraxt shoxlarini bir-biriga qasir-qusur urib, hushtak chaldi.* Y. Muqimov, Matonatli kishilar².

Bir qator kulolchilik mahsulotlarini tayyorlashda qo‘y juni, echki qili, otning dumi yoki yolidan olingan qil singari imahsultlar qo‘shildai. Ular ayniqsa

¹ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Besh jildli. 4-jild. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti. 2008 – 174-bet.

² O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Besh jildli. 5-jild. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti. 2008 – ...-bet.

tandir tayyorlashda ko‘proq ishladiladi. Izohli lug‘tada jun va qil so‘zлari ham ko‘p ma’noli so‘z sifatida izohlangan:

JUN 1 Hayvon yoki kimsa badanini qoplagan qalin tuk, mo ‘y, yung. *Juni mayin qo‘i. Qo‘ylarning junini olmoq. Ot ag‘nagan yerda jun qolar.* Maqol. *U qo‘raga kirib ketdida, junlari o‘sinq, orig bir echkini yetaklab chiqdi.* S. Siyoyev, Yorug ‘lik. *Xon bo‘ksasini ko‘tardi, tuya junidan qilingan yumshoq bolishga suyandi.* S. Siyoyev, Avaz.

2 Asosan qo ‘y, echki, tuyadan qirqib olingan shunday yung, mo ‘y. *Titilgan, savalgan jun. tsh Professorning har bir so‘zi uning uchun tilladay qimmatbaho.. Yo‘q, ipakday mayin g‘aram-g‘aram jun olish kaliti edi.* S. Anorboyev, Oqsoy.

3 Jundan tayyorlangan uy-ro ‘zg ‘or buyumi. *Xotin boshidagi jun ro‘molini oldi-da, bir-ikki qoqib, yana o‘radi.* M. Ismoilov, Farg ‘ona t. o. **Bola-chaqa po‘stakning junini yeydimi?** *dag‘l.* «Oila a’ zolari ta’ minotini ham o ‘ylash kerak» degan ma’ noda ishlatiladigan ibora. *Kasal bo‘lib qolsam, nima bo‘ladi? Biron ofat kelib qolsa, nima bo‘ladi? Bola-chaqa po‘stakning junini yeydimi? ..Akam bo‘lmasa, ukam bo‘lmasa.* A. Qahhor, Qo ‘shchinor chiroklari¹.

QIL 1 Ot va ba’ zi boshqa hayvonlar dumi yoki yolining har bir tolasi; umuman, jun, soch, mo ‘y va sh. k. ning tolasi. *Ot dumining qili. Qil elak. Qil tuzoq. Arg‘amchiga qil quvvat.* Maqol. *Ochilning ot qiliday qaysar, qo‘ng‘irtob sochlari do‘ppi chetidan qayrilib chiqib turar.. edi.* P. Qodirov, Uch ildiz.

2 s.t. esk. Musiqa asboblarining tebranganda ovoz chiqaradigan ipi; tor. [Gulandomning] *Barmoqlari dutor qillarida mohir o‘ynadi.* Oybek, Tanlangan asarlar. **Oralaridan qil (ham) o‘tmaydi** 0 ‘ta sirdosh, juda

¹ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Besh jildli. 2-jild. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti. 2006 – 113-bet.

yaqin do ‘st. *Ikkalalari oralaridan qil o’tmaydigan do’st edilar.* SH. Rashidov, Bo ‘rondan kuchli. **Xamirdan qil sug‘urganday q. xamir.** **Yuragiga (yoki ko‘ngliga) qil sig‘maydi** Ko ‘ngli g ‘ash, xafa, diqqat. [Xolisxon:] *Qichqirma, yuragimga qsh ham sig‘may qoldi.* Hamza, Paranjı sirlari. **Qil(ning) ustida** Jiddiy xavf ostida; jar, halokat yoqasida. *Operatsiya og‘ir bo‘ldi. Bemorning hayoti qil ustida.* J. Sarimsoqov, Shifokor. **Qildan qiyiq axtarmoq q. qiyiq I 5. Qilni qirq yormoq (yoki ayirmoq)** 1) sinchkovlik bilan tekshirmoq; yo ‘lini, tadbirini, sababi va sh. k. ni topmoq. *Bu ishga butun shahar hayron. Qilni qirqa yoradigan donolar ham bir narsa to‘qiy olmaydilar.* A. Qodiriy, 0 ‘tgan kunlar; 2) turlicha yoki o ‘zi xohlaganicha talqin qila olmoq (shariat haqida). *Shariat qilni qirqa ayiradi, degan so‘z to‘g‘riga o‘xshaydi, do‘stim.* Oybek, Tanlangan asarlar¹.

Soha leksikasidagi kulollik, kulolchilik, hunar, hunarmand singari so‘z-terminlar ham ko‘p ma’nolilik xususiyatiga egadir:

KULOLLIK 1 Kulol ishi, kasbi; kulolchilik.

2 Kulollar ishlaydigan joy. *Kulollik orqali kappinga yo‘l soldim.* «Mushtum»².

KULOLCHILIK 1 ayn. **kulollik** *Kulolchilikka havas qo‘ymoq. Oma-bobolari kulolchilik bilan shug‘ullangan. Ma’lumki, tandir kulolchilik boshlangan davrlarda kelib chiqqan.* K. Mahmudov, 0 ‘zbek tansiq taomlari.

2 Kasb-xunarning loydan turli idish va b. narsalar yasash bilan bogliq sohasi. *Qadim zamonlarda ham bu muhim xomashyo kulolchilikda, g‘isht pishirishda shilatilgan.* Gazetadan¹.

¹ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Besh jildli. 5-jild. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti. 2006 – 113-bet.

² O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Besh jildli. ...jild. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti. 200 – 426-bet.

HUNAR [a. - san' at; bilim, ko 'nikma, mahorat, ustalik; kasb] **1** Muayyan ko 'nikma, mahorat talab qiladigan, tirikchilikning asosiy manbai hisoblanuvchi ish, mashg 'ulot; kasb. *Hunar, hunardan unar.* Maqol. *Yigit kishiga yetmish hunar oz.* Maqol. *Onam ham o'qituvchi, Bir hunari — to'quvchi, Menchi a'lo o'quvchi..* Q. Muhammadiy. *Yigitning qo'lida gulday hunari bor.* Oybek, Tanlangan asarlar. *Otasining hunarini yaxshi egallab olgan bu yigitcha uchun qishloqda ish ko 'p edi.* S. Ahmad, Hukm. - *Boshqa bir hunarga bersak bo 'lmaydimi? — dadamning sartaroshlikka hech ko 'ngillari yo 'q edi.* E. Raimov, Ajab qishloq.

2 Biror ishdagi mahorat, san' at; mohirlik, ustalik talab etuvchi ish, xatti-harakat .. *Hunarining borin unda bildirgan, Kungurasin po 'latdan qip endirgan.* «Murodxon». Konferansye «ikkinchis nomerda xohlagan kishi xohlagan hunarini ko 'rsatishi mumkin», deb hammani kuldirdi.. A. Qahhor, Tanlangan asarlar. *Chekinish uchun ham hunar kerak.. bu ham san'at talab qiladi..* Oybek, Quyosh qoraymas.

3 Odat tusidagi ish, harakat. *Ammo eski hunaringizni qilib, otamga chaqsangiz, Menden shafqat kutmang!* Mirmuhsin, Me' mor. *Uyda qovog 'ini osiltirib, ko 'chada begona ayolni ko 'rganda iljayadigan, tirjayadigan hunarga o 'rgandi.* «Mushtum». *Kesatiq hunaring esingdan chiqdimi, deb turgan edim. Harnechuk yodingda ekan..* A. Qodiriy, Mehrobdan chayon.

4 Bo 'limg 'ur, kelishmagan xatti-harakat, qiliq, odat. *Abdishukur, ovozni bunchalik boshqacha qilishni kimdan o 'rganding?* *Hunaringga balliye..* Oybek, Tanlangan asarlar. *G'aroyib kuchdan «sher» bo 'lib ketgan bolalar tarbiyachilarini ko 'rib xijolat tortish, izza bo 'lish o 'rniga*

¹ O'zbek tilining izohli lug'ati. Besh jildli ...jild. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti. 200 – 426-bet.

g‘ilaylashgan ko‘zlarini suzib, o‘z «hunar»larini davom ettiraverishdi.
Gazetadan.

Hunar ko‘rsatmoq 1) biror ishga bo ‘lган махоратини намойиш qilmoq. *Lekin endigi ko‘rgazmaga tomosha qilgani emas, hunarimni ko‘rsatgani boraman. G‘alati payvandlar qilganman.* A. Qahhor, Tanlangan asarlar; 2) bo ‘lмаг ‘ур, kelish maydigan ish, harakat, qiliq namoyish qilmoq. *Meyorini bilganlar shirin o ‘tirib, hordiq chiqardi, xurmachasiga sig ‘maganlar hunar ko ‘rsatdi. Shirin oshga pashsha tushdi..* Y. Rajabiy, To ‘ылар haqida o ‘ылар. **Hunar chiqarmoq** Bo ‘lмаг ‘ур, yoqimsiz ish, harakat, qiliq qiladigan bo ‘lмоq ; shunday ish, xatti-harakat, qiliqni odat qilmoq. *Maktabda endi yig ‘ilish bo ‘lib qolsa, uni bo ‘lar-bo ‘lmasga maqtaydigan xunar chiqardi.* «Guldasta». *Bosh-ko‘zimni aylantirib, qo‘lga oldingiz, endi hunar chiqaryapsizmi?* S. Karomatov, Bir tomchi qon. **Hunar qilmoq** 1) biror kasb-hunarni egallamoq. *Bo‘lmagay inson aziz, yaxshi hunar qilmasa. Yoki o‘qib, ilm ila o‘zni guhar qilmasa.* Habibiy; 2) biror bo ‘lмаг ‘ур ish, xatti-harakat, qiliqni kasb qilmoq, odat qilmoq. *SHe‘r yozib, xonu xonzodalar zardasini qaynatmoqni o‘ziga xunar qilib olgan.* S. Siyoyev, Yorug ‘lik¹.

HUNARMAND [f. - san’ at arbobi; mohir, yuksak mahoratli; iste’ dodli, qobiliyatli] 1 Uyida yoki o ‘з do ‘konida mahsulot ishlab chiqarish bilan shu g ‘ullanuvchi kasb-hunar egasi; kosib. *Davr taqozosi bilan xunarmandchilikning yangi-yangi turlari vujudga keldi. Hunarmandlar ham turli maxsulotlar tayyorlash bo‘yicha ixtisoslasha bordilar.* “О ‘зМЕ” . *Rastalari turli kasbdagi hunarmandlar — temirchilar, mis cho‘kichlab, naqshli barkash, choydish, chilobchin, xilma-xil buyumlar*

¹ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Besh jildli. 5-jild. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti. 2008 – ...-bet.

yasovchi misgarlar.. taqachilar, kulol, baqqol va kosiblar bilan obod edi. K. Yashin, Hamza. *Yig‘ildi turli kosib, turli dehqon, Hunarmandu shakarpaz, turli bog‘bon.* Habibiy.

20 ‘z ish-kasbining mohir ustasi. ..bu yigitning kelishgan va harakatchan qomati odamlarning ko‘z oldiga kelib turadi. –Ko‘p hunarmand yigit ekan, azamat! - deydilar. P. Tursun, 0 ‘qituvchi. *Turli xil ranglarning mutanosibligi, oltin qo‘lli hunarmandlar sehrli joziba bag‘ishlagan shisha buyumlarni ko‘rib, ko‘zingiz to‘ymaydi.* Gazetadan¹.

Kulolchilik buyumlaridagi naqsh va gul nomlarining aksariyatida ko‘p ma’ nolilik xususiyati mavjud.

3.2. Kulolchilik terminologiyasida omonimiya va sinonimiya hodisalari

O‘zbek tilida shakli bir xil, ammo ma’nolari turlicha bo‘lgan so‘z va terminlarga nisbatan omonim (shakldosh) sifatida qaraladi. O‘zbek tilida sohalararo omonimiya me’yoriy holat sanaladi va salbiy hodisa sifatida qaralmaydi, baholanmaydi. Ammo o‘zbek tilshunosligida ushbu hodisaga nisbatan boshqacha qaraydigan mutaxassislar ham bor. Jumladan, Sh. Rahmatullayevning ishlarida shu holatni kuzatish mumkin².

Aslida ushbu hodisa bartaraf qilib bo‘lmaydigan yoki bartaraf qilinishi shart bo‘lmagan hodisa hisoblanadi. Zero bir termin turli fan sohalarida ishlatilganidan qat’iy nazar, har sohada o‘ziga xos turli ma’nolarni ifodalaydi. Masalan, “bandak” o‘zbek tiliga fors tilidan o‘zlashgan termin bo‘lib, kiyim-kechak, ya’ni paranjining bir qismini ifodalaydi. Terminning ikkinchi mustaqil ma’nosi kulolchilik terminologiyasiga tegishlidir. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da terminning ana shu mustaqil ma’nosi zikr etilgan:

BANDAK I [f. – kichkina band] *etn.* Paranjining yelkadan yon tomonga osiltirib tikilgan ikkita yengsimon qismi, soxta yeng.

¹ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Besh jildli. 5-jild. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti. 2008 – ...-bet.

² Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent, 2006. -48-bet.

Quyoshdan va changdan oqarib ketgan, bandagiga katta yamoq tushgan paranjisi bu issiq havoda uni nihoyatda qiyab qo'ygani bilinib turardi. A. Muxtor, Opa-singillar. *Bir kun tannoz.. paranji yopinib, oldimdan o'tib qoldi.. bandagi loy ham bo'libdi.* «Mushtum».

BANDAK II Loydan yasalgan xom idishlarni kulollar charxida tekislash va silliqlash uchun ishlatiladigan charm, latta yoki kigiz¹.

Ko'rinib turibdiki, bu ikki termin har ikki soha terminologiyasida o'z ma'nosiga ega va kulolchilik terminologiyasida “bandak” atamasi qo'llanilganda kiyim-kechak sohasidagi termini nazarga tutilmaydi.

Terminologiyada omonimiya hodisasi turli xil sabablarga ko'ra yuzaga kelishi mumkin. Quyida ana shu holatlar xususida fikr yuritishga harakat qilamiz.

Bizga ma'lumki, o'zbek tili terminologiyasi turli sohalarning minglab terminlarining jamlanmasidan iborat. Jamiyatimiz taraqqiy etar ekan kasbhunarning yangicha turlari maydonga keladi. Yoxud boshqa tillardan termin o'zlashishi yuz beradi. Yangicha munasabatlar yuzaga chiqayotgan hozirgi jarayonda yangi tushunchalarni nomlash uchun tilimizning imkoniyatlari yetarli bo'lmasligi mumkin. Shunday holatlarda omonimiya orqali ma'lum bir terminlar til va nutqda qo'llana boshlashi mumkin.

O'zbek tili terminlari haqidagi ayrim tadqiqotlarning ko'rsatishicha, nolinguistik hodisalardan sanalgan metafora va vazifadoshlik asosida omonimiya hodisasi ro'y berishi mumkin. Masalan, kulolchilik terminologiyasida qo'llanishda bo'lgan “bulbul” termini aynan metafora yo'li bilan sodir bo'lgan deb qarash mumkin. Buni izohli lug'atda berilgan maqolalar orqali sharhlashga harakat qilamiz. Lug'atda fors tilidan o'zlashgan ushbu so'zning shakldosh so'z sifatidagi ikki ma'nosi berilgan:

¹ O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti. Besh jildli. 1-jild. 2006. -....-bet.

BULBUL I [f. - bulbul] **1** Chumchuqsimonlar turkumining qorayaloqlar oilasiga mansub sayroqi qush. *Bulbul chamanni sevar, Odam — Vatanni. Maqol. Qush yo‘q joyda qurbaqa — bulbul.* Maqol. *Ey dilrabo, ishqing bilan devona bo‘ldim sog‘inib, Bulbul kabi tun kechalar giryona bo‘ldim sog‘inib.* Hamza. *Hammayoq jimjit. Faqat onda-sonda bulbullar nolasi eshitiladi.* I. Rahim, Chin muhabbat.

2 ko‘chma Xushovoz xonanda; mohir notiq. *Zo‘rg‘a-zo‘rg‘a qayrilib, yoniga qaradi: sevimli bulbuli, sochlarini to‘zg‘itib, shirin uyquda rohat qilmoqda edi.* Cho ‘lpon, Kecha va kunduz. *Ergash ota haqiqatan ham xalq ko‘nglini xonish qiluvchi shoir, xalq dardini, tilak-orzusini kuylovchi bulbul edi.* «О ‘ТА».

3 ko‘chma Oshiq, xushtor. *Gul shoxiga bulbul qo‘nsa, bir qo‘nsin, Ikki bulbul qo‘nsa, sira qo‘nmasin.* «Qo ‘shiqlar». *Qaytayin, so‘lgandi chamanda gulim, Qo‘limdan uchdi-ku mening bulbulim.* «Nurali». *Qiz qizil gul bo‘lganda, yigit — bulbul, Gulni izlab bulbul bog‘da tunamasmi ?!* «Qo ‘shiqlar».

BULBUL II о ‘zbek xalq amaliy san’ atining ko ‘p sohalarida qo ‘llanadigan, о ‘yma va quyma usullarda bajariladigan naqsh¹.

Lug‘at so‘zligidan ko‘rinib turibdiki, **BULBUL I, 1** bilan **BULBUL II** o‘rtasida shakliy o‘xshashlik mavjud. Fors tilidan o‘zlashgan bulbul termini avvalo “chumchuqsimonlar turkumining qorayaloqlar oilasiga mansub sayroqi qush” ma’nosiga ega. **BULBUL I, 2, 3** lar esa asosiy birlik asosda hosil bo‘lgan ko‘chma ma’nolardir, ya’ni: “xushovoz xonanda; mohir notiq”, “oshiq, xushtor”. **BULBUL II** da “о ‘zbek xalq amaliy san’ atining ko ‘p sohalarida”, shuningdek, kulolchilikda “qo ‘llaniladigan, о ‘yma va quyma usullarda bajariladigan naqsh” ma’ nosi

¹ О‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti. Besh jildli. 1-jild. 2006. -369-bet.

zuhurlangan. Shubhasiz ushbu naqsh bulbul shakliga o ‘xshatib chizilgan.

Xuddi shunday holatni to ‘qimachilik va kulolchilikda aynash bir xil shakl asosida qo ‘llanilgan, ammo ma’ nolari turlicha bo ‘lgan **QALAMI I** ba **QALAMI II** terminlari misolida ham kuzatish mumkin. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da ushbu shakldosh terminlar quyidagicha izohlangan:

QALAMI I [a. + f. - qalamga aloqador; qalamga o ‘xhash; qalamda bajarilgan] Qo ‘lda to ‘qilgan, tagi oq yo ‘l-yo ‘l gulli ip mato. *Bir ko‘ylaklik qalami. Oyog‘iga ko‘n etik, egniga chiy alakdan yaktak to ‘n, qalami ishton berdi.* M. Ismoilov, Farg ‘ona t. o.

Qalami do‘kon Qalami to ‘qiladigan do ‘kon, dastgoh. *Normal parang o‘zi kosib, lekin uni qalami do‘kondan emas, ko‘knoridan boyigan deyishadi.* A. Muxtor, Opa-singillar.

QALAMI II Sopol buyumlarga qalam yordamida chizib, bezak ishslash usuli hamda shu usulda yaratilgan bezak, naqsh¹.

Qalam so‘zi o‘zbek tiliga arab tilidan o‘zlashgan. O‘zlashma so‘z asosiga – i affiksi (forcha) qo‘shish orqali yasama so‘z (termin) yasalgan. Ushbu yasalma o‘zbek tilida to‘qimachilik va kulolchilik sohalariga oid, bir-biridan tubdan farq qiladigan tushunchalarni anglatadigan mustaqil termin sifatida qo‘llanishda. To‘qimachilik sohasida u: “qo‘lda to‘qilgan, tagi oq yo‘l-yo‘l gulli ip mato” ma’nosini anglatsa, kulolchilikda: “sopol buyumlarga qalam yordamida chizib, bezak ishslash usuli hamda shu usulda yaratilgan bezak, naqsh” ma’nosini bildiradi. Ko‘rinadiki, har ikki holatda ham shakliy o‘xhashlik mavjud.

O ‘zbek tili terminologiyasida bo ‘lgani singari kulolchilik terminolo-giyasida ham omonimiya hodisasi mavjuddir.

¹ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti. Besh jildli. 5-jild. 2008.-bet.

Lekin bu hodisa unchalik ko ‘p emas. Soha terminologiyasidagi shakldoshlik asosan ma’ no ko ‘chishning metafora usulida sodir bo ‘lgan.

Kulolchilik terminologiyasida shakldoshlikdan tashqari ma’nodoshlik hodisasi ham mavjud. O’zbek tilida shaklan har xil, ammo bir tushunchani turli bo‘yoq va ottenka tusi bilan ifodalaydigan so‘z va terminlarga sinonim sifatida qaraladi. Sinonim grekcha *synonymos* so‘zidan olingan bo‘lib, “bir nomli” degan ma’nosni anglatadi.

Darslik va qo‘llanmalarda “sinonim leksemalar sememalaridagi atash va vazifa semasi aynan bir xil bo‘lib, ifoda semasi farqlanadi”, deya qayd etiladi va ko‘pincha “misol sifatida *yuz – bet – aft – bashara – turq* sinonimik qatorini keltirishni maqsadga muvofiq”, deb ta’kidlanadi. “Ma’nodoshlik qatoridagi mazkur leksemalarning barchasida atash semalari bir xil: “*odam boshi old tomoni*”, “*peshonadan yakkacha*”. Ammo ifoda semalari har bir leksemada o‘ziga xos. Aniqrog‘i, “shaxsiy munosabat” har bir leksemada boshqa-boshqa namoyon bo‘lgan. U yuz leksemasida “shaxsiy betaraf munosabat” ko‘rinishida bo‘lsa, turq leksemasida “o‘ta kuchli shaxsiy salbiy munosabat” tarzida.

Ma’nodoshlik qatoridagi leksemalarning ifoda semasi turli-tuman. Ulardan ayrimlari quyidagilar:

- 1) ijobiy yoki salbiy baho yoxud munosabat semasi;
- 2) leksemaning qo‘llanish davrini ko‘rsatuvchi sema: “eskirgan”, “yangi”, “o‘ta yangi”, “arxaik”, “tarixiy”;
- 3) leksemaning qo‘llanilish doirasini ko‘rsatuvchi sema: “shevaga xos”, “so‘zlashuvga xos”, “kitobiy”, “ko‘tarinkilik” va h.k.

Ma’nodoshlik qatoridagi leksemaning bittasi dominanta (bosh) leksema bo‘lib, boshqalari shu leksema atrofida birlashadi, ma’nodoshlik qurshovi hosil qiladi. Dominanta leksemaning yuqorida sanalgan barcha ifoda semasi neytral, betaraf. Masalan, katta – ulkan – bahaybat sinonimik qatori “kitobiylilik”, “ko‘tarinkilik” ifoda semalari asosida tashkil topgan. Qatordagi katta

leksemasida bu sema belgilanmagan (neytral), ulkan va katta leksemalarida ifodalangan, oydinlashtirilgan.

Ma'nodoshlik paradigmasi doimo ochiq. Jamiyat, davr talabi asosida keraksizi iste'moldan chiqib, qator yangilari bilan boyib boraveradi. Nutqda ma'nodoshlik qatorlari nutqning atash birliklari, iboralar, mustaqil leksema sememalarining turi, yasama so'z, so'z birikmasi, nutqiy ko'chma so'z bilan to'lib, kengayib boradi. Bular kontekstual sinonim sifatida nutqning go'zalligi va boyligini ta'minlovchi vosita sanaladi¹.

O'zbek tilidagi so'zlar kabi terminologiyada, shu jumladan, kulolchilik terminologiyasida ham sinonimiya hodisasi mavjuddir. Quyida ana shu hodisa va uning xususiyatlari haqida fikr yuritishga harakat qilamiz.

O'zbek tilining kulolchilik sohachida bulbulak termini qo'llanilib, ushbu termin orqali: “loydan qush shaklida yasalgan va olovda qizdirib pishirilgan, bolalar puflab chaladigan hushtak-o'yinchoq”² ma' nosini ifodalaydi. Bulbulak tilimizga fors tilidan o 'zlashgan bo 'lib, tojik tilli yoki ikki tilli shevalarda bu termin qo 'llanishda. O 'zbek shevalarida bulbulcha deya nomlanadi.

Kulolchilik terminologiyasida kulolchilik buyumlaridan birining nomi *ho 'qacha - ko 'zacha - kichik ko 'za* nomlari bilan atalib, ular aynan bir ma' noni bildirib keladi. Xurmacha termini o 'zbek shevalarida chapya deya nomlanadi. Bu ikki termin ham o 'zaro sinonimik munosabtga ega. “O 'zbek tilining izohli lug ‘ati” da xo 'qacha termini quyidagicha izohlangan:

¹ Mengliyev B. va boshq. Hozirgi o'zbek adabiy tili. O'quv qo'llanma. – Toshkent,

² O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti. Besh jildli. 1-jild. 2006. – 269-270-betlar.

XO‘QACHA Kichik ko ‘za; ko ‘zacha. [Oyimtila] Xo‘qachadagi zig‘ir yog‘idan qozonga ozgina solib, piyozdog‘ qildi. H. Nu’ mon va A. Shoraxmedov, Ota. Cho‘pon xo‘qachaga syv to‘ldirdi. N. Yoqubov, Jon¹.

Kulolchilik buyumlaridan birining nomi *nimkosa*, deya atalib, termin fors tilidan o‘zbek tiliga o‘zlashgan. Tilimizda ushbu o‘zlashma so‘z bilan birga *kosacha – kichik kosa – kichkina kosa* so‘z va birikmalari ham qo‘llanilib, ular o‘zaro sinonimik munosabatga ega.

Kulolchilikda qo‘llaniladigan xom ashyo nomlari orasida ham o‘zaro sinonimik munosabatni kuzatish mumkin. Masalan, “yumshoq, kulrang tog‘ jinsi” ma’nosiga ega bo‘lgan *gilvata* termini soha terminologiyasida xom ashyo nomni anglatadi. Fors tilidan o‘zbek tiliga o‘zlashgan ushbu termin bilan bir qatorda tilimizda sinonim sifatida *gilmoya – guluta* singari til birliklari ham kўllaniladi. Ushbu terminlar “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da quyidagicha izohlangan:

GILVATA [f. - o ‘tga chidamli loy] *geol.* Yumshoq, kulrang tog‘ jinsi, gilmoya (xalq tabobatida tomoq og ‘rig ‘i, og ‘iz yelikishi kabi kasallikkarga qarshi dori sifatida ishlatilgan). *Mayda savdogarlar saqich, gilvata sotishardi.* I. Rahim, Ixlos. *Halogina quyosh yog‘dusida olmossimon yaltirab turgan tog‘ yonbag‘irlari tezda gilvata tusiga kirdi.* H. Nazir, So ‘nmas chaqmoqlar.

GILMOYA *ayn. gilvata.* *Gilmoya tabiatda har xil: oq, kulrang, qo‘ng‘ir va boshqa ranglarda uchraydi.* M. Zokirov, Bebaho xazinalar².

GULUTA *shv.* Gilvata. *Xotin turayotib, baralla yig‘lab yubordi: -Bu yer yutkur qanday balo ekan!.. Odamlarday gulutaga, tuzga, kesakka boshqorong‘i bo‘lsam-chi.* A. Qahhor, Anor³.

¹ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti. Besh jildli. ...jild. 200.... – 438-bet.

² O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti. Besh jildli. 1-jild. 2006 – 501-bet.

³ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti. Besh jildli. 1-jild. 2006 –-bet.

O‘zbek tilidagi so‘z va terminlar orasidagi sinonimik munosabat turlicha yuz beradi:

1) bir tilning o‘z leksemalari orasida bo‘ladi. Bu – har bir tilning o‘z ichki taraqqiyoti bilan yuzaga keladigan holat. Masalan, sohaga oid *ho ‘qacha* – *ko ‘zacha* – *kichik ko ‘za* kabi sinonimlar o‘zbek tilining o‘z imkoniyati asosida yuzaga kelgan;

2) o‘z leksema bilan o‘zlashma leksema orasida bo‘ladi. Masalan, sohaga oid *nimkosa(f)* - *kosacha (o')* – *kichik kosa (o')* – *kichkina kosa(o')*; *gilvata (f)* – *gilmoya(o')* – *guluta(o')* kabi;

3) o‘zlashma leksemalar orasida ham voqe bo‘ladi. Biz tadqiq etayotgan soha terminologiyasida bu holat kuzatilmadi.

Yuqoridagi tahlillar asosida sinonimik munosabat avvalo o‘zbek tili lug‘at boyligidagi o‘z qatlam leksemalari orasida voqe bo‘ladi, shu bilan birga, boshqa tildan leksema o‘zlashtirish oqibatida ham sinonimik munosabat yuzaga kelishi mukin, deya xulosa chiqarish mumkin.

Sinonimlar – tilning boy ekanini, taraqqiyot darajasini ko‘rsatib turuvchi hodisalardan biri. Sinonimlar yordamida nozik ma’no qirralari anglatiladi, voqelikka turlicha baho, munosabat ifodalanadi. Sinonimlardan birini tanlab ishlatish bilan voqelikning ma’lum bir qirrasi bo‘rttirib anglatiladi, ifodalanadi. Sinonimlarni ishlatishda har gal ular orasidagi ayirmalar bilan hisoblashishga to‘g‘ri keladi. O‘z fikrini anglatishda, voqelikka o‘z munosabatini ifodalashda yagona o‘rinli leksemani sinonimlari orasidan tanlab ola bilish kerak.

Sinonimlardan yana nutqni ixcham, ravon tuzishda, shuningdek, talaffuzni qulaylashtirishda ham foydalilanadi.

3.3. Kulolchilik terminologiyasida variantdoshlik hodisasi

Tilshunoslarimizning tadqiqotlarida qayd etilishicha, o‘zbek tili boshqa tillar kabi variantlarga boy til sanaladi. Tilda variantlarning vujudga kelishi ko‘plab tashqi va ichki omillarga bog‘liq. Ayrim tadqiqotlarda ichki omil

sifatida quyidagilar qayd etiladi: analogiya qonuniyatining amal qilishi; tilda formal-semantik asimmetriya qonuniyatining mavjudligi; turli nutq uslublarining mavjudligi; tilning tarixiy taraqqiyoti; nutqiy tejam; tilning “egiluvchanligi” (moslashuvchanligi); nutqning individualligi; tilda tanlash imkoniyati mavjudligi. Bu omillar ichki omil sanaladi.

Variantlar vujudga kelishining tashqi omillari sifatida quyidagilarni sanash mumkin: boshqa tillarning ta’siri; tilning sotsial farqlanushi; jamiyat hayotida yuz bergan ijtimoiy o‘zgarishlar; imlo islohoti; tilda ayrim gender omillar.

Tilning tadrijiy taraqqiyoti nuqtai nazaridan munosabatda bo‘linsa, variantlarning yashovchanligi, qo‘llanuvchanlik darajasi turlichadir. Iste’moldan chiqib ketgan imlo qoidalari va an’analarining izlari saqlanib qolishi ham varintdorlikni keltirib chiqaradi. Shuning uchun variantlilikning ijtimoiy va individual turini farqlash mumkin bo‘ladi.

Tilda variant tushunchasi ikki xil yondashuv asosida talqin qilinganligini ko‘rish mumkin: a) etimologik jihatdan bir fonetik yoki shakliy genetik asosdan kelib chiqqan va ayni paytda birdan ortiq yoziladigan yoki talaffuz qilinadigan til birliklari (so‘z, qo‘sishimcha, ibora, maqol, matal); b) lison-nutq dixotomiyasi nuqtai nazaridan bir lisoniy invariant asosidagi nutqiy birliklar.

V.V.Vinogradov va A.I.Smirnitskiy tomonidan amalga oshirilgan variantlarning nazariy tahlili bo‘yicha tadqiqot ulami tasniflash mezonlarini belgilash borasida amalga oshirilgan dastlabki nazariy ishlardan sanaladi. Xususan, V.V.Vinogradov fikricha, leksik-semantik o‘zak tushunchasi asosida so‘zning yagonaligi tasnif mezonlarini belgilashning ibtidosi bo‘lmog‘i lozim. Olim bir o‘zakli, ammo morfologik, fonetik tarkibi, urg‘usi va fonomorfologik variantlarni ajratar ekan, ularning ayricha uslubiy vazifalarni bajarishini ta’kidlaydi va uslub omilini variantlilikning yashash va amal qilish qonuniyatini sifatida qaraydi¹.

¹ Виноградов В.В. О формах слова // Вопросы языкоznания. – 1955. - № 4. – С. 12-17.

A.I.Smirnitskiy tomonidan variantlarni aynanlashtirishning ikki mezoni ilgari suriladi: 1) farqlarga qaramasdan, umumiy o‘zak qismga egalik, yaqin fonetik qobiqda leksik-semantik umumiylilikning ifodalanishi; 2) bir vaqtning o‘zida ularda moddiy ifoda va leksik-semantik farqlararo muvofiqliqning bo‘lishi shart emasligi¹.

Akademik A.Hojiyev tomonidan tartib berilgan “Tilshunoslik terminlarning izohli lug‘ati” da variant atamasining lingvistik tabiatini bayon etilgan: “VARIANT (lot. *varians*, *variants* - o‘zgaruvchi). Til birligining turli-tuman o‘zgarishlar natijasida hosil bo‘lgan shakli. Masalan, affiksning varianti, so‘zning varianti”².

“AFFIKSNING VARIANTI. Affiksning fonetik (tovush) tarkibi jihatidan turi. Mas., *obro ‘yi* – *obro ‘si*, *uyga* – *terakka* – *buloqqa*, *kuzgi* – *kechki*, *kelguncha* – *birikkuncha* – *chiqquncha kabi*”³.

“SO‘ZNING VARIANTLARI. So‘zning biror jihatdan o‘zgachalikka ega bo‘lgan ko‘rinishlari. So‘z turli jihatdan variantlarga (fonetik, orfoepik, morfologik va b.variantlarga) ega bo‘lishi mumkin. Mas., *dumaloq* – *yumaloq* (*fonetik variant*), *gulday-guldek* (*morfologik variant*), *izla-ista* (*dialektal variant*) v. b.”⁴.

Umuman olganda, variantlarning mavjudligi masalasiga qarashlar turlicha bo‘lib, ko‘pincha ziddiyatliligi bilan xarakterlanadi. Ayrimlar variantlarning mavjudligi imloda murakkabliklarni keltirib chiqarishini ta’kidlashsa, boshqalar ulardan voz kechish tilni qashshoqlashtirishga olib kelishini uqtiradi. Albatta, adabiy tilni barqarorlashtirish va silliqlashtirish undagi barcha tur variantlilikka barham berish amaliyoti asosida bo‘lmasi lozim.

O‘zbek tili terminologik tizimida, shu jumladan kulolchilik terminologiyasida so‘z va qo‘sishchali variantlilik hodisasi kuzatiladi. Masalan,

¹Смирнищий А.И. Лексикология английского языка. – М.: Изд.лит. на иностр.яз., 1956. -260 с. –С.24.

²Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati / Mas’ul muharrir: A.Madvaliyev. – T.: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2002. – 168 b. –B.27.

³Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati / Mas’ul muharrir: A.Madvaliyev. – T.: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2002. – 168 b. –B.20.

⁴Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati / Mas’ul muharrir: A.Madvaliyev. – T.: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2002. – 168 b. –B.96.

“kulolchilik, naqqoshlik va kashtado ‘zlikda ishlatiladigan naqsh tur”laridan biri *binafshagul*, deya nomlanadi. Ushbu lisoniy birlik bilan bir qatorda *gunafshagul* termini ham ishlatiladi. Bu ikkalasi so‘z variantidir.

Kulolchilik terminologiyasida o‘zlashma so‘z bilan tub so‘zlar variantlilikni yuzaga chiqarishini ko‘rish mumkin. Masalan, “naqsh solingan, naqsh bilan bezatilgan, naqshlangan” ma’nolarini ifoda etish uchun xizmat qilgan *naqshdor* o‘zlashma til birligi o‘zbek tilida yasalgan *naqshli*, *naqshinkor* birliklari bilan variantdoshdir: *naqshdor-naqshli-naqshinkor*. Ular ayni paytda qo ‘shimchali variantdosh birliklar ham sanaladi.

Kulolchilik terminologiyasida rang bildiruvchi ayrim til birliklari variantdoshlikni hosil qiladi. Fors tilidan o ‘zlashgan nilgun so ‘zi soha leksikasida keng qo ‘llanishda. Ayni paytda niliy fors tilidan o ‘zlashgan rang bildiruvchi niliy so ‘zi ham ishlatiladi. Bundan tashqari nilrang so ‘zi ham ishlatiladi. Demak, *nilgun-nilrang-niliy* so ‘zlari o ‘zaro variantdosh birliklar sanaladi. Ushbu variantdosh birliklar o ‘z va o ‘zlashma qatlamga oiddir. Ikki til birligi variantlilikni hosil qilgan.

“Bolalarining bir qancha o ‘yinlarida ishlatiladigan yassi sopol yoki tosh”¹ parchasi sopalak o ‘zlashma so ‘z orqali ifodalanadi. Ushbu so ‘z bilan birga o ‘zbek tilida mavjud bo ‘lgan sopolcha so ‘zi ham qo ‘llaniladi. O ‘zlashma sopalak so ‘zi bilan o ‘z tilimizda mavjud bo ‘lgan sopolcha o ‘zaro variantdosh birliklardir.

¹ O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti. Besh jildli. ...jild. 200.. –-bet.

Balalarining sopoldn yasalgan o‘yinchoqlari nomi turli shevalarda turli fonetik variantlarda qo‘llanganini ko‘ramiz: *hushtak*, *xushpalak* (G‘ijduvon va Rishton), *churchurak* (Shahrisabz), *xushtak* (Samarqand, Kattaqo‘rg‘on va Toshkent), *shivalak* (Xorazm) kabilar.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, kulolchilik terminologiyasida o‘z va o‘zlashma qatlamga mansub til birliklari o‘zaro variantdoshlikni vujudga keltiradi. Bundan tashqari variantdosh birliklar so‘z va qo‘shimcha maqomida ham bo‘lishi mumkin.

BOB BO‘YICHA XULOSA

1. Bittadan ortiq ma’no anglatish (ifodalash) hodisasi ko‘p ma’nolilik sifatida talqin etiladi. Olimlarimizning e’tirofiga ko‘ra hozirgi o‘zbek tilidagi so‘zlarning deyarli yarmi bir ma’nolidir. Yangi yaratilgan so‘z boshlang‘ich ishlatilish davrida bitta ma’no ifodalashga xizmat qiladi. Keyinchalik uning mazmun jihatida turli-tuman o‘zgarishlar yuz beradi, shunday o‘zgarishlarning ma’lum bir qismi natijasida bir ma’noli so‘z yangi leksik ma’no kashf etib, ko‘p ma’noliga aylanadi. Termin esa odatda bir ma’noli bo‘ladi. Lekin so‘z kabi terminlarda ham hosila ma’no natijasida ko‘p ma’nolilik holati ro‘y berishini kuzatish mumkin.

2. O‘zbek tilida shakli bir xil, ammo ma’nolari turlicha bo‘lgan so‘z va terminlarga nisbatan omonim (shakldosh) sifatida qaraladi. O‘zbek tilida sohalararo omonimiya meyoriy holat sanaladi va salbiy hodisa sifatida

qaralmaydi, baholanmaydi. Zero bir termin turli fan sohalarida ishlatilganidan qat’iy nazar, har sohada o‘ziga xos turli ma’nolarni ifodalaydi. Masalan, “bandak” o‘zbek tiliga fors tilidan o‘zlashgan termin bo‘lib, kiyim-kechak, ya’ni paranjining bir qismini ifodalaydi. Terminning ikkinchi mustaqil ma’nosи kulolchilik terminologiyasiga tegishlidir.

3. O‘zbek tili terminlari haqidagi ayrim tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, nolingvistik hodisalardan sanalgan metafora va vazifadoshlik asosida omonimiya hodisasi ro‘y berishi mumkin. Masalan, kulolchilik terminologiyasida qo‘llanishda bo‘lgan “bulbul” termini aynan metafora yo‘li bilan sodir bo‘lgan deb qarash mumkin.

4. Variantlarning mavjudligi masalasiga qarashlar turlicha bo‘lib, ko‘pincha ziddiyatliligi bilan xarakterlanadi. Ayrimlar variantlarning mavjudligi imloda murakkabliklarni keltirib chiqarishini ta’kidlashsa, boshqalar ulardan voz kechish tilni qashshoqlashtirishga olib kelishini uqtiradi. Albatta, adabiy tilni barqarorlashtirish va silliqlashtirish undagi barcha tur variantlilikka barham berish amaliyoti asosida bo‘lmasligi lozim.

O‘zbek tili terminologik tizimida, shu jumladan kulolchilik terminologiyasida so‘z va qo‘shimchali variantlilik hodisasi kuzatiladi.

X U L O S A

1. O‘lkamizda amalga oshirilgan arxeologik ishlar, tarixiy yozma manbalarda keltirilgan ma’lumotlarga kura neolit va enolit davridayoq kulolchilik paydo bo‘lgan va san’at sifatida rivojlangan. VII-XII asrlarda O‘rta Osiyoda bu san’at keng taraqqiy etgan. XIV asrda Sohibqiron bobomiz Amir Temur madaniy obidalar qurdirar ekan, shubhasiz, kulollarning xizmatiga murojaat etadi. O‘lkada kulolchilikni san’at darajasiga ko‘targan hunarmandlar avlodi yetishib chiqadi. XIX asrda Samarqand, Buxoro, G‘ijduvon, Shahrисabz, Toshkent, Rishton kabi joylarda kulolchilik markazlari paydo bo‘ladi. Hozirgi kunda esa kulolchilik san’at darajasiga ko‘tarildi.

2. Kulolchilik qora loydan mo‘jizakor go‘zallik yaratish demakdir. Kulolchilik bilan dunyodagi barcha xalqlar shug‘ullanadi. Ular o‘ziga xos tomonlari bilan bir-biridan farq qiladi. Badiiy hunarmandchilikda kulolchilik san’ati o‘zining jozibakorligi va o‘ziga xos texnikasi bilan ajralib turadi. Kulolchilik Sharqning eng qadimiy hamda navqiron san’atidir. Insoniyat hayotida qora loy saxovat, halollik, ezgulik timsoli sanalgan. Tuproq insonlarning barcha ehtiyojini o‘z zimmasiga olgan farovonlik, to‘kinlik, rizq-ro‘z, go‘zallikning eng oliy ko‘rinishi - san’atning paydo bo‘lishi uchun zamin yaratgan.

3. Har bir xalqning iqtisodiy va madaniy hayotida yuz bergen yangiliklar, yaratilgan moddiy ne’ matlarni ifodalovchi so ‘zlar, birinchi navbatda, o ‘sha xalq tilining ichki imkoniyatlaridan foydalanib tuziladi va ular o ‘sha til lug ‘at fondini tashkil etadi. O ‘zbek xalqining idish-tovoq buyumlariga ehtiyojini o ‘tovchi kulolchilik mahsulotlari va bu mahsulotlarni tayyorlash jarayonida qo ‘llanila-digan leksik birliklarning ma’ lum qismini turkiy (o ‘zbekcha) so ‘zlar tashkil etadi. Bundan tashqari o ‘zbek tilining o ‘z imkoniyatlari, ya’ ni shevadan so ‘z olish yoki turli usullar bilan yangi so ‘z yasash orqali ham soha leksikasi boyib bormoqda.

Kulolchilik mahsulotlarining nomlarini yaratishdagi ikkinchi manba o ‘zga tillardan so ‘z olishdir. O ‘zbek tili kulolchilik leksikasi tizimidagi leksik birlik-larning aksariyati turkiy millatga mansub bo ‘lmagan arab, fors-tojik, rus va boshqa tillardan o ‘tgan so ‘z-terminlardan tashkil topgan. Soha leksikasi tarkibi-dagi bu o ‘zlashmalarning

ko ‘pchiligi o ‘zbek tilining lug ‘at tarkibida xalq ommasining o ‘z so ‘zi sifatida qo ‘llanilishini kuzatish mukin.

4. Kulolchilik bilan shug‘ullangan kasb egalari sopol buyularini yasash an’analariga ko‘ra buyumlarni ikki tur (guruh) ga ajratganlar: kosagarchilik va ko‘zagarchilik kabi.

Birinchi turdagи buyumlarning ko‘rinishi, asosan, yapaloq shaklda yasalgan. Bu xil idishlarning ko‘pchiligini turli xil hajmdagi kundalik turmushda ovqatlanish va ichish uchun foydalaniladigan tovoq, lagan, katta kosa, kosa, piyola, sut mahsulotlariga mo‘ljallangan og‘iz qismi katta bo‘lgan idishlar, shakar, don, tuz singari mahsulotlarni solish uchun maxsus yasalgan sopo idishlar kiritilgan.

Ikkinci turga ko‘za, ko‘zacha, xum kabi sopol idishlar kiritilgan. Bunday bo‘linish biz tahlil qilayotgan kulolchilik terminlarining barchasini mavzuviy guruhga ajratish uchun asos bo‘la olmaydi. Sohaning tematik guruhini shakllantirishda bundan boshqa yana ko‘plab lisoniy va nolisoniy omillarga e’tibor qaratishga to‘g‘ri keladi. Shuni e’tiborga olib kulolchilik terminlarining tematik tasnifi ishlab chiqildi.

5. Lingvistik adabiyotlarda so‘zlar tuzilishiga ko‘ra sodda, qo‘shma, juft va takroriy singari turlarga ajratib o‘rganiladi. Terminologiya sohasida esa til birliklari birikma shaklida ham qo‘llanishi ta’kidlanadi. O‘zbek tilining kulolchilik leksikasi bo‘yicha olib borgan kuzatishlarimiz ham o‘zbek tilshunosligida qayd etilgan nazariy fikrlarni to‘la isbotlaydi. Sohaga oid leksik birliklarni tuzilishiga ko‘ra sodda, qo‘shma va birikmali birliklar sifatida o‘rganish mumkin.

6. O‘zbek tilining kulolchilik leksikasi tarkibidagi yasama so‘z va atamalar umumtil so‘z yasalish sistemasi qoidalari va prinsiplari asosida yuz bergen. Kulolchilik buyumlari, bu buyumlarda ishlangan chizma, shakl va bezak nomlari, kulolchilik kasbi bilan shug‘ullanuvchi shaxs nomlari so‘z yasalishining quyidagi usullari asosida yuz bergen va shakllangan: o‘zakka

qo'shimcha qo'shish (morfologik usul) orqali; so'zlarni qo'shish (sintaktik usul) orqali.

Affiksatsiya usulida so'z yasash hozirgi o'zbek adabiy tilida bo'lgani singari kulolchilik leksikasida ham yangi so'z yasashda faol usullardan biri sanaladi. Umumo'zbek tili doirasida mavjud bo'lgan so'z yasovchi qo'shimchalarining aksariyati ushbu leksika so'z va atamalarini yasashda qatnashadi. Bu qo'shimchalarining eng muhiimlari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin: -*chi*, -*gir*, -*xona*, -*kash*, -*kor*, -*don*, -*lik*, -*chilik*, +*li*, +*simon* va boshqalar.

Sintaktik usul bilan so'z yasalishi kulolchilik leksikasida eng sermahsul ekanligi kuzatiladi. Soha leksikasi tarkibiga kiruvchi qo'shma so'zlarning yasalish qoliplari va yasovchi birliklar orasidagi munosabatlar ishda aniqlandi va tahlil etishga harakat qilindi: OT+OT, SIFAT+OT, SON+OT kabi.

7. Olimlarimizning e'tirofiga ko'ra hozirgi o'zbek tilidagi so'zlarning deyarli yarmi bir ma'nolidir. Yangi yaratilgan so'z boshlang'ich ishlatilish davrida bitta ma'no ifodalashga xizmat qiladi. Keyinchalik uning mazmun jihatida turli-tuman o'zgarishlar yuz beradi, shunday o'zgarishlarning ma'lum bir qismi natijasida bir ma'noli so'z yangi leksik ma'no kashf etib, ko'p ma'noliga aylanadi. Termin esa odatda bir ma'noli bo'ladi. Lekin so'z kabi terminlarda ham hosila ma'no natijasida ko'p ma'nolilik holati ro'y berishini kuzatish mumkin. Kulolchilik terminologiyasidagi ko 'p ma' nolilik hodisasiga munosabati masalasidagi kuzatishlarimiz shuni ko 'rsatmoqdaki, sohaviy so 'z va terminlardagi buyum nomlari, gul nomlari, buyumlarni ishlab chiqarishda qo 'llaniladigan mahsulot nomlari va boshqalarda ko 'p ma' nolilik hodisasi mavjud.

8. Bizga ma'lumki, o'zbek tili terminologiyasi turli sohalarning minglab terminlarining jamlanmasidan iborat. Jamiyatimiz taraqqiy etar ekan kasbhunarning yangicha turlari maydonga keladi. Yoxud boshqa tillardan termin o'zlashishi yuz beradi. Yangicha munosabatlar yuzaga chiqayotgan hozirgi

jarayonda yangi tushunchalarni nomlash uchun tilimizning imkoniyatlari yetarli bo‘lmasligi mumkin. Shunday holatlarda omonimiya orqali ma’lum bir terminlar til va nutqda qo‘llana boshlashi mumkin.

O‘zbek tili terminlari haqidagi ayrim tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, nolinguistik hodisalardan sanalgan metafora va vazifadoshlik asosida omonimiya hodisasi ro‘y berishi mumkin. Masalan, kulolchilik terminologiyasida qo‘llanishda bo‘lgan “bulbul” termini aynan metafora yo‘li bilan sodir bo‘lgan deb qarash mumkin.

9. O‘zbek tilidagi so‘zlar kabi terminologiyada, shu jumladan, kulolchilik terminologiyasida ham sinonimiya hodisasi mavjuddir. O‘zbek tilining kulolchilik sohachida bulbulak termini qo‘llanilib, ushbu termin orqali: “loydan qush shaklida yasalgan va olovda qizdirib pishirilgan, bolalar puflab chaladigan hushtak-o‘yinchoq” ma’ nosini ifodalaydi. Bulbulak tilimizga fors tilidan o‘zlashgan bo‘lib, tojik tilli yoki ikki tilli shevalarda bu termin qo‘llanishda. O‘zbek shevalarida bulbulcha deya nomlanadi.

10. Variantlarning mavjudligi masalasiga qarashlar turlicha bo‘lib, ko‘pincha ziddiyatliligi bilan xarakterlanadi. Ayrimlar variantlarning mavjudligi imloda murakkabliklarni keltirib chiqarishini ta’kidlashsa, boshqalar ulardan voz kechish tilni qashshoqlashtirishga olib kelishini uqtiradi. Albatta, adabiy tilni barqarorlashtirish va silliqlashtirish undagi barcha tur variantlilikka barham berish amaliyoti asosida bo‘lmasligi lozim

KULOLCHILIK ATAMALARINING QISQACHA IZOHЛИ LUG'ATI

ALFRESKO - nam shuvoq ustiga suvda qorilgan bo‘yoqlar bilan ishlanadigan tasvir.

ALMOSIY - olmos, doira shaklidagi naqsh turi bo‘lib, kompozitsiyaning asosini buklangan barglar tashkil etadi. O‘simpliksimon naqsh turiga kiradi.

ANGUR - uzum g‘ujumlari ko‘rinishidagi naqsh turi.

ANORGUL - naqqoshlikda, kulolchilikda va boshqa xalq amaliy san’at turlarida ishlatiladigan anor elementidan tashkil topgan o‘simpliksimon naqsh.

ANQO - afsonaviy qush, ramziy naqsh elementi bo‘lib, u kishiga baxt keltiruvchi degan ma’noni bildiradi. Kulolchilikda, naqqoshlikda, misgarlikda, ganch o‘ymakorligida va boshqa xalq amaliy san’ati turlarida ishlatiladi.

BARGI ANNOS - Hindistonda o‘sadigan o‘simplik bargiga o‘xshatib chizilgan naqsh turi.

BARGI MADOHIL - barg shaklidagi madohil.

BARGI XURMO - o‘simpliksimon naqsh turi.

BAYT - arab alifbesida badiiy qilib ishlangan she’riy o‘yma naqsh; kulolchilik, misgarlik, ganchkorlik va boshqa xalq amaliy san’at turlarida ishlatiladi.

BODOM GULI - bodomni stillashtirib tasvirlangan o‘simplik-simon naqsh elementi.

BODOMI NA’LNOK - ramziy naqsh elementi bo‘lmish taqa tasviri bilan to‘ldirilgan bodom shaklli naqsh.

Butador - buta o‘simpligining yuza bo‘ylab bir tekis yoyilgan, gul dastalaridan tuzilgan yaxlit naqsh turi.

DAVRAI ISLIMI - o‘simpliksimon naqsh elementlari bilan to‘ldirilgan aylana shaklidagi naqsh.

DAVRAI SEGULA - uch gulli aylana shaklidagi naqsh turi.

DUBARG - ikki bargli naqsh turi.

EPIGRAFIKA - unvonli yozuv, naqqoshlar avliyolar sharafiga bitilgan hamdu sanolarni arab yozuvida, naqshga o‘xshatib tasvirlagan (ishlangan) bezak turi.

ESKIZ - xomaki tasvir, qo‘l bilan ko‘zda chamalab, chizmachilik asboblarisiz taxminiy o‘lchamlarda bajariladigan xomaki chizma tasvir.

FAYANS - sopolning bir turi bo‘lib, u zich sopol parchalaridan yasaladi hamda sirlanadi.

FRIZ - (ital. bezak) amaliy san’at bezak turlaridan.

GARDISH - naqsh doiralardan tashkil topgan ritmik joylashgan kompozitsiya.

GULDON - gul solinadigan, labi qayrilgan badiiy sopol idish.

GULI QAL’AGI - chet el idishlaridan olingan yirik gul nusxasi.

GULI SERAFTOR - uch yo‘nalishli ruta islimiy naqsh.

GULI SHASHBARG - olti yaproqli guldan tashkil topgan o‘simlik-simon naqsh turi.

GULI CHORBARG - to‘rt yaproqli gul naqsh bo‘lib, o‘simliksimon naqsh turiga kiradi.

GULTOJIXO‘ROZ - xo‘roz tojisiga o‘xshagan gulning stillash-tirib olingan o‘simliksimon naqsh elementi.

GULCHA - gul shaklini eslatuvchi juda oddiy zanjira naqsh.

HAL - arabcha eritish, yutish degan ma’noni beradi. Tunj, alyumin, jez, ruh, qalay, kumush hamda oltinlardan tayyorlangan kukun.

ILON IZI - to‘lqinsimon o‘simliksimon naqsh. Viloyatlarda «islimi» naqsh deb yuritiladi.

ISLIMI BULBUL - bulbul tasviri bilan ishlangan o‘simlik-simon naqsh.

ISLIMI MAJNUNI BARG - majnuntol novdalaridan tashkil topgan o‘simliksimon naqsh.

ISLIMI PARGORI - sirkul bilan bajarilgan islimiy naqsh turi.

ISHKOMCHA - ishkomga o‘xshash oddiy o‘simliksimon hoshiya naqsh turi.

JINGALAK - o‘simlik novdalarining ma’lum jingalak shaklidagi ko‘rinishi; o‘simliksimon naqsh elementi.

JIYDAGUL - jiyda guliga o‘xshatib olingan tasvir, islimiy naqsh elementi.

KABIRA - o‘yma panjarasimon naqshning bir turi.

KABUTAR - kabutarning ramziy naqsh elementi bo‘lib, tinchlik va osoyishtalikni bildiradi.

KASB - muayyan bilim va mahorat talab etadigan mehnat faoliyatining turi.

KESMA KOSHIN LOY - o‘tga chidamli qoramtiloydan, ya’ni gilvataga oq tosh yoki oq qum qo‘shib tayyorlanadi. Undan har xil mozaykali koshinlar tayyorlanadi.

KIRMAK - chirmovuqsimon naqsh turi. Marg‘ilonda kirkira deb yuritiladi.

KOLER - tayyor rangli bo‘yoq.

KOMPANOVKA - kerakli joyga chizilishi kerak bo‘lgan naqshni yoki chizmani to‘g‘ri joylashtirish.

KOSAGAR LOY - patloy yoki tovoq loy deb ham yuritiladi. Bu loy sog‘ tuproqqa qamish qozg‘og‘ini aralashtirib tayyorlanadi. Undan yassi yuzali idishlar tayyorlanadi.

KOSIB - arabcha “ishlab topuvchi” degan ma’noni bildiradi. Kosib bozor uchun mahsulot tayyorlaydigan hunarmand.

KOSHIN LOY - shirachli loyga kvars qumi qo‘shib undan har xil koshinlar tayyorlanadi.

KO‘ZAGAR LOY – 60-70% plastik yog‘li loy va 30-40% sog‘ tuproqdan iborat bo‘ladi. Undan xum, guldon, ko‘za va boshqalar tayyorlanadi.

LAVXO‘RI - ovalsimon laganlar, ko‘zalar va to‘rtburchak mis idishlarning yon tomonga qayrilgan o‘ta nafis qilib bezatilgan lablari.

LOY - tuproqning suv bilan qorishmasi.

LOYI GULDON - sershira loy, bu loydan juda nozik guldonlar yasaladi. U elastik xususiyatga ega bo‘lib, jusha loyi qo‘shilgan bo‘ladi.

LOYKOR - loy bilan ishlaydigan suvoqchi ustalar.

MARG‘ULA - gajak, o‘simliksimon naqsh elementi.

MARG‘ULAI NUQTEZ - o‘tkir uchli gajak. O‘simliksimon naqsh turi.

MEDALYON — italyancha “nishon” ma’nosini anglatadi. Doira yoki oval shaklida ishlangan, tugallangan mustaqil kompozitsiya. Medalyon ganch, gips, yog‘och, mis, bronza, toshga o‘yib, pardozlab hosil qilinadi.

MEHROBI MUHJA - kurtakli o‘simliksimon naqshlar bilan to‘ldirilgan mehrob.

MEHROBI NAQSH — mehrob tasvirini beruvchi naqsh.

MISRANG - ko‘krang, misni maydalab, unga o‘xhatib kulolchilnk idishlariga sir beriladi va bu sirni kulolchilikda misrang deb ataladi.

MOH - yarimoy, ramziy naqsh elementi.

MORPECH - (mor-ilon, pech-o‘ralish) - ilon izi shaklidan iborat hoshiya naqsh.

MUNABBAT - arabcha o‘stirmoq degan ma’noni anglatadi. Naqshning asosi to‘g‘ri to‘rtburchakdan tashkil topib to‘rt tomonga takrorlanadigan naqsh taqsimi.

MURAQQA’ - rangli qog‘ozlarga naqsh yoki biror tasvirni chizib, ularni parcha-parcha holda yopishtirib bezash usuli.

MUSALSOL - murakkab chirmashib ketgan arabcha husnixat (musalsol zanjir) demakdir.

Musavvada - loyihaning eskizi, xomaki nusxasi.

Mo‘yak - ganchkor va naqqoshlar qog‘ozga pista ko‘mirda naqsh kompozitsiyalar chizishgan, ortiqcha chiziqlarni o‘chirishda «mo‘yak» mo‘yqalamdan foydalanganlar.

NABOTIY - o‘simliksimon, naqsh.

NA'LAK - taqa, yurak shaklidagi juft gajak bo'lib, o'simlik-simon naqsh elementlariga kiradi.

NA'LAKI NUKTEZ—o'tkir uchli taqacha, ramziy naqsh elementi.

NILOBI - moviy osmonni eslatadigan och zangori rang.

OBI fors-tojikcha suv degan ma'noni anglatadi. Obi naqshning chetiga hamda namoyon bilan hoshiya tutashgan joylarni chegaralab turuvchi chiziq.

ORNAMENT - lotincha "bezak" degan ma'noni bildiradi. Bino yoki biror narsaga ishlangan naqsh.

OYGUL - bir necha yaproqli moychechak shaklidagi naqsh elementi, uning yaprog'ini soniga qarab uch yaproqli, to'rt yaproqli, besh yaproqli oygul va hokazolar deb nomlanadi.

POYKOR - usta oqsoqol yordamchisi.

PUSHTI MOHI - baliq tangachasiga o'xshash naqsh turi.

QIZIL KESAK - tuproqni bir turi bo'lib rangli ganch o'ymakorligida bo'yoq sifatida maydalab ishlatiladi. Avval ganch o'ymakorligida ishlatilgan, hozir turli quruq (pigment) bo'yoqlar tayyorланади.

QO'SHBARG - bir-biriga ulangan ko'rinishdagi ikki katta bargli naqsh.

QO'SHBODOM - o'simliksimon naqsh elementi bo'lib ikki qo'shaloq bodom shakli ko'rinishida bo'ladi.

QO'SHBODOMI XAZONAK - barglari so'ligan ikki bodom tasviri. O'simliksimon naqsh elementi.

RAMZIY NAQSH - o'simlik, qushlar va jonivorlarga yoki biror nishon, shartli tasvira qiyoslab ishlangan naqsh turi.

RAXLI - buyumlarning, yuzalarning chegarasidagi o'tkir yoki o'tmas qirralari.

RTA - ikki tomonga ulanuvchi naqsh taqsimi, hoshiya naqsh.

SEBARG - uchbarg, uchta bargni badiiy holatdagi shakli. Naqsh kompozitsiyalarida tez-tez uchrab turadi.

SEGULA - uch guldan tashkil tolgan o'simliksimon naqsh.

SILUET— (fransuzcha siluette) XVIII asr fransuz davlat arbobi nomidan olingan, kishi, hayvon, qush va boshqalarning soyaga o'xshatib bir xil rangda ishlangan tasviri.

SIMMETRIYA - grekcha so'z bo'lib, mos degan ma'noni bildiradi. O'lchovlarning bir-biriga mosligi, tengligi, mutanosib kelishi.

SMALTA - sopol, shisha hamda chinni buyumlarni bo'yashda ishlatiladigan och qizil bo'yoq.

STILIZATSIYA — qayta ishlash. Tabiatdagi gul, novda, barg, qush, hayvon, odam va boshqalarni naqqosh tomonidan qayta badiiy ishlab tasvirlanishi.

Taka mugiz - oddiy o'simliksimon zanjira naqsh. Echkening shoxini stillashtirib olinib lentasimon ikki tomonga takrorlanishidan hosil bo'ladi.

TAQSIM - kompozitsiyasining xarakterli, takrorlanuvchi qismi. Ular uchburchak, to'rtburchak, kvadrat va hokazo shakllarda bo'ladi.

TARG'IL - naqshning gul va barglarini o'zidagi hosil bo'lgan soyalarni har xil rangli chiziqlar yordamida pardozlash.

TAXMIN - naqsh kompozitsiyasining bir qismini chizish uchun taxminiy o'lchovdagi shakl.

TOJI GUL - gultoj, turunj shaklidagi xurmo bargiga o'xhash shakl.

USTA - biror hunarni egallab, shu sohada malaka orttirgan shaxs.

USTAKOR - ustaxonaga boshchilik qiluvchi eng malakali va tajribali usta.

USTAZODA - ota-bobosining hunarini egallagan usta.

UZMA NAQSH - panjara yasashda ishlatiladigan o'zbek milliy naqsh turi.

YAKKA BAND - naqshdagi bandning bir chiziq bilan tasvirlanishi.

YAKKA ZANJIRA - bir qator zanjira. Oddiy zanjira turiga kiradi.

YAKRAFTOR ISLIMI - to‘lqinsimon band va gullardan tuzilgan bir yo‘nalishli islimiyl hoshiya naqsh hisoblanadi.

YELPIG‘ICH ZANJIRA - yelpig‘ich shaklini eslatuvchi zanjira turi. Kulolchilik, ganchkorlik, tosh va yog‘och o‘ymakorligida juda ko‘p qo‘llaniladigan zanjira.

YULDUZ GUL - yulduz shaklidagi besh qanotli gul, o‘simliksimon naqsh elementi.

ZANJIRAI ISLIMI GULSAPSAR - o‘simliksimon naqsh turlaridan bo‘lib, asosiy naqsh elementi gulsapsar.

ZANJIRAI ISLIMN YAK RAFTOR - ikki tomonga o‘sib boruvchi bir bandli naqsh. Bu naqsh islimiyl zanjira turlaridan biri bo‘lib, oyguldan ikki tomonga band to‘lqinsimon o‘sib kurtaklar hosil qiladi.

ZANJIRAI MADOXILCHA - madoxili shaklida tuzilgan ensiz islimiyl zanjira naqsh.

ZANJIRAI RAFTOR - zanjira naqsh kompozitsiyasining bir turi.

O‘RDAK OFTOBA - qopqog‘i o‘rdaksimon, kaft dastasi, jo‘mragi (o‘rdak tumshug‘iga o‘rnatilgan misdan yasalgan idish) bor. O‘rdak oftoba Qo‘qon shahrida qadimda keng tarqalgan, unda choy damlab ichsa ham bo‘ladi.

O‘SIMLIKSIMON NAQSH - islimiyl naqsh, tabiatning rang-barang o‘simliklari, novdalari, barglari, bahor gularining jozibador va nafis tasviri xonadonga go‘zallik, ko‘tarinki ruh, kayfiyat; ona tabiatga Vatanga muhabbat hissini tarannum etadi.

SHABAKI NAMOYON - mayda qilib o‘yilgan geometrik o‘simliksimon yoki ramziy o‘yma naqsh, panjara.

SHKIFT - novda tanoblarni bog‘lovchi o‘simliksimon naqsh elementi.

Shobarg —islimi naqsh elementlaridan biri bo‘lib, barglar ichida eng kattasi.

Shogird - ustadan, muallimdan biror hunar yoki ilm o‘rganuvchi talaba.

CHARX - har xil asboblar (pichoq, bolta, arra, qaychi) ni charxlash uchun ishlatiladi, asbob aylanayotgan toshga tegizib o'tkirlanadi. Ustalarimiz uni yana charxdonlik, charxdor, charxdon, charxkash, charxchi, charxlash, charxpoya deb yuritadilar,

CHASHMI BULBUL - idishlarga bulbulning ko'ziga o'xshash ishlangan naqsh. Uni bulbul ko'zi deb ham yuritiladn.

CHEKMA QALAM - obi tortilgan joylariga chekma qo'yish uchum ishlatiladigan qalamga o'xshash maxsus tayoqcha.

CHEKUV QALAM - naqsh zaminini va naqsh konturini bezashda ishlatiladigan kandakorlik asbobi, qalam turlaridan biri, Uning uchi uchli hamda dasgasi bo'ladi.

CHINNI LOY // OQ LOY - yarim foyans bo'lib, qoramtiloyga oqtosh va ishqor qo'shilib tayyorlanadi. Bu loydan kosa, piyola, lagan boshqalar tayyorlanadi.

CHOR MADOXIL - to'rt yaproqdan tashkil topgan madoxil naqsh.

CHORDONA - to'rt dona, qator nuqtalardan tashkil topgan oddiy hoshiya naqsh.

CHORGUL - to'rt yaproqli oddiy gul. O'simliksimon naqsh elementi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Rahbariy adabiyotlar

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch. –Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
2. Karimov I. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas’uulmiz. –Toshkent, “O’zbekiston”, 2001.-B.104.
3. Mirziyoyev Sh.M., Erkin va farovon, demokratik O’zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. —T: “O’zbekiston”, 2016.
4. Mirziyoyev Sh.M., Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. . —T: “O’zbekiston”, 2017.

II. Ilmiy adabiyotlar

5. Abdiyev M. Samarqand shevalari kasb-hunar leksikasi. –T., 2007.
6. Abdullayev F. O’zbek tili leksikasining ba’zi bir masalalariga doir. To‘plam. 1-kitob. - T., 1949.
7. Abdurahmonov SH., Asqarova M., Hojiyev A., Rasulov I., Doniyorov X. Hozirgi o’zbek adabiy tili. Pedagogika institutlarining filologiya fakulteti talabalari uchun darslik. Toshkent: O‘qituvchi, 1980.
8. Abduraxmanov X., Maxmudov N., Shukurov R. Madaniy oqartiruv xodimlari uchun qisqacha lug‘at. -T., O‘qituvchi, 1983.
- Apuxin O.K. Badiiy naqsh maktabi -T., O‘qituvchi, 1969.
9. Azimov I. O’zbekiston naqshu nigoralar. - T: G‘ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti.
10. Аvezова Н.А. Паргори. - Т., Гос. изд. Узбекистан, 1958.
11. Андре де-Моран. История декоративного искусства. - М., Искусство, 1969.
12. Ахроров Р., Ремпель А.И. Резной штуки Афрасиёба. -Т., Изд. лит. и искусство им Г.Гуляма 1971.
13. Беймарон В.В. Архитектурно-декоративное искусство Узбекистана -М., 1948.

14. Будагов Л. Сравнительный словарь турецко-татарский наречий. Т. ИИ, -СПб, 1871
15. Bulatov S.S. O‘zbek xalq amaliy bezak san’ati. –Т.: Mehnat. 1991.
16. Bulatov S.S., Tursunaliyev N., Kulolchilik san’ati. –Toshkent, 2002.
17. Dadaxonova T. O‘zbek tilida chevarchilik leksikasi. - Toshkent, 1963.
18. Дарвешов Р. Современная керамика народных мастеров Средней Азии. -М., 1974.
19. Ibrohimov S. Fargona shevalarining kasb-xunar leksikasi. -Toshkent, 1959.
20. Koshg‘riy M. Devonu lug‘tit turk.. 1-t.-Т., 1960. 2-t.-1962. 3-t.-1963.
21. Митрофанов К.Современная монументально-декоративная керамика. - М., 1967.
22. Navoiy asarlari lug‘ati. Tuzuvchilar Shamsiyev P. , Ibrohimov S . – Toshkent: Fan, 1978.
23. O`zbek tili leksikologiyasi – Toshkent. "Fan" nashriyoti 1981.
24. Rabg‘uziy B. Qissasi Rabg‘uziy. Ikki jildli. 1-2-jildlar. –Т.: Yozuvchi.
25. Рахимов. М.К Художественная керамика Узбекистана. – Ташкент. 1951.
26. Rjveladze L.L. Buxoro ochiq osmon ostidagi muzey // To‘plam. -Т.: Adabiyot va san’at nashr, 1991.
27. Ремпель Л.И. Живопись Афрасиаба. -Т., 1975.
28. San’at jurnali. – Toshkent, 2000-2010.
29. O‘rolov A.S. Mo‘jiza yaratish san’ati. –Toshkent, 1996.
30. O‘zbek tikining izohli lug‘ati. 5 jildlik. 1–jild. –Т., 2006.
31. O‘zbek tikining izohli lug‘ati. 5 jildlik. 2–jild. –Т., 2006.
32. O‘zbek tikining izohli lug‘ati. 5 jildlik. 3–jild. –Т., 2007.
33. O‘zbek tikining izohli lug‘ati. 5 jildlik. 4–jild. –Т., 2008.
34. O‘zbek tikining izohli lug‘ati. 5 jildlik. 5–jild. –Т., 2008.
35. Пугаченкова Г.А., Ремпель А.И. Керамика. История и искусство Узбекистана. - М., 1965.

36. Пугаченкова Г.А., Ремпель А.И. Очерки искусства Средней Азии. -М., 1982.

III. Elektron adabiyotlar

37. www.ziyouz.com.

38. uForum.uz.

39. n. ziyouz.com.

40. ma'naviyat.tmz.uz